





I.ISMANOV
I. G'ANIBAYEV

BOSHLANG'ICH BUXGALTERIYA O'QUV KURSI BO'YICHA MASALALAR TO'PLAMI



519.1(04).68.9
281



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

FARG'ONA POLITEXNIKA INSTITUTI
«BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT» KAFEDRASI

IBROXIM NABIYEVICH ISMANOV
ILXOMJON SHOKIRALIYEVICH G'ANIBAYEV

«BOSHLANG'ICH BUXGALTERIYA»
O'QUV KURSI BO'YICHA MASALALAR
TO'PLAMI

O'QUV QO'LLANMA

Ta'lim yo'naliishi: 5230900 - Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha).

**«Boshlang'ich buxgalteriya» o'quv kursi bo'yicha masalalar to'plami
Ibroxim Nabiyevich Ismanov, Ilhomjon Shokiraliyevich G'anibayev**

Annotatsiya: Masalalar to'plami buxgalteriya hisobini mustaqil o'r ganuvchilari uchun mo'ljallangan hamda yuridik shaxslarni moliyaviy xo'jalik faoliyatida yuz beradigan xo'jalik jarayonlari (operatsiyalari) korxona misolida, o'zaro bir-biriga bog'lagan holda aks ettirilgan. Buxgalteriya yozuvlarini yozish, analitik va sintetik schyotlar bo'yicha oborot (aylanma) qaydnomalarni tuzish, buxgalteriya hisobi registrlari va shakllaridan foydalanan hamda moliyaviy hisobot shakllarini tuzish tartiblari aks ettirilgan. Shuningdek, hisoblangan soliq va majburiy ajratma summalarini hamda soliq qonunchiligidagi soliqlar bo'yicha berilgan imtiyozlarni yozuvlarda aks ettirish tartiblari misollar asosida berilgan.


Аннотация: Комплект вопросов предназначен для независимых исследователей бухгалтерского учета и отражает взаимосвязь экономических процессов (операций), происходящих в финансово-хозяйственной деятельности юридических лиц на примере предприятия. Описаны процедуры ведения бухгалтерских проводок, составления оборотных счетов для аналитических и синтетических счетов с использованием регистров и форм бухгалтерского учета, а также составления форм финансовой отчетности. В нем также приведены примеры того, как рассчитываются налоги и обязательные отчисления и как налоговые льготы отражаются в налоговом кодексе.

Abstract: The set of issues is intended for independent researchers of accounting and reflects the interconnectedness of economic processes (operations) in the financial and economic activities of legal entities in the example of the enterprise. Procedures for writing accounting entries, compiling revolving accounts for analytical and synthetic accounts, using accounting registers and forms, and compiling financial reporting forms are outlined. It also provides examples of how tax and compulsory deductions are calculated and how tax benefits are reflected in the tax code.

Taqrizchilar

Nurmatov Orifjon Tolibjonovich - "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi dotsenti, Phd.

Xatamov Shavkatjon Boqiyevich - Mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "HIMOYA FAIR" auditorlik tashkiloti rahbari.



KIRISH

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamdagи iqtisodiy islohotlar, tadbirkorlik subyektlari uchun berilayotgan imtiyoz va preferensiylar tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga katta imkoniyat yaratdi. Natijada, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar soni va mahsulot (ish, xizmatlar) hajmi o‘sdi, ularning faoliyat turlari kengaydi. Bu o‘z navbatida malakali buxgalter mutaxassislariga bo‘lgan talabni yuzaga keltiradi.

Mazkur masalalar to‘plami buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganuvchilar uchun mo‘ljallangan hamda yuridik shaxslarni moliyaviy xo‘jalik faoliyatida yuz beradigan xo‘jalik jarayonlari (operatsiyalari) korxona misolida, o‘zaro bir-biriga bog‘lagan holda aks ettirilgan. Buxgalteriya yozuvlarini yozish, analitik va sintetik schyotlar bo‘yicha oborot (aylanma) qaydnomalarni tuzish, buxgalteriya hisobi registrlari va shakllaridan foydalanish hamda moliyaviy hisobot shakllarini tuzish tartiblari aks ettirilgan.

Shuningdek, hisoblangan soliq va majburiy ajratma summalarini hamda soliq qonunchiligidagi soliqlar bo‘yicha berilgan imtiyozlarni buxgalteriya yozuvlarda aks ettirish tartiblari misollar asosida berilgan.

O‘quv qo‘llanmada barcha materiallar hozirgi kunda amalda bo‘lgan yangi huquqiy-me’yoriy hujjatlar asosida bayon qilingan.

Mazkur masalalar to‘plamidan buxgalteriya hisobi ta’lim yo‘nalishida ta’lim olayotgan oliy ta’lim muassasalari talabalari va buxgalteriya hisobini mustaqil o‘rganuvchilar uchun barcha qiziquvchilar foydalansa bo‘ladi.

MAVZU: ASOSIY VOSITALAR VA ULARNING ESKIRISHI HISOBI

Topshiriq:

1. Berilgan ma'lumotlar asosida 0100-«Asosiy vositalar hisobini hisobga oluvchi hisobvaraqlar bo'yicha» bo'lgan xo'jalik operatsiyalariga buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
2. Hisobvaraqlar bo'yicha oy davomidagi oborotlarni aniqlang va oy oxiriga qoldiqni chiqaring.
3. Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya summasini aniqlang va buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
4. Asosiy vositalar va ularni eskirishini hisobga oluvchi 13-jurnal orderni tuzing.

Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100)

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2004 yil 20 yanvarda 1299-sod bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti, 5-sod BHMS asosiy vositalarni hisobga olishda, ularning aktiv sifatida tan olingen paytini belgilash, ularning mazkur aktivlarga nisbatan qo'llanilishi shart bo'lgan balans qiymatini va amortizatsiyani hisoblash usullarini belgilash, shuningdek asosiy vositalarning balans qiymatidagi boshqa o'zgarishlarni va ularning chiqib ketishi hisobiga moliyaviy natijalarni belgilash va hisobga olishni asosiy qoidalarini belgilaydi.

Mazkur standartda asosiy vositalarga oid quyidagi atamalar qo'llaniladi:

asosiy vositalar — korxona tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar;

amortizatsiyalanadigan qiymat — kutilayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chegirgan holda moliyaviy hisobotlarda ko'rsatilgan

aktivning boshlang'ich (tiklash) qiymati summasi. Boshlang'ich qiymati qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan ta'minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish ishlari bo'yicha xarajatlar summasiga oshirilgan asosiy vositalar uchun amortizatsiyalanadigan qiymat bo'lib, ushbu ishlar tugatilganidan so'ng kutilayotgan (baholangan) tugatish qiymatini chiqarib tashlagan holda mazkur asosiy vositalar ekspluatatsiyaga kiritilgan paytda aniqlangan ularning qoldiq (balans) qiymati hisoblanadi;

amortizatsiya — foydali xizmat muddati mobaynida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymatini asosiy vositalarning vazifasidan kelib chiqqan holda mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga yoki davr xarajatlariga tizimli taqsimlash va o'tkazish ko'rinishida eskirishning qiymat ifodasi;

foydali xizmat muddati — korxona aktivdan foydalanadigan vaqt davri yoki korxona ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo'ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori. Qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan ta'minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirish bo'yicha ishlar tugatilganidan so'ng foydalanishga kiritilgan asosiy vositalar uchun foydali xizmat muddati bo'lib ushbu ishlar tugatilganidan so'ng mazkur asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan paytdan boshlab korxona tomonidan asosiy vositalardan foydalaniladigan vaqt davri yoki korxona ushbu asosiy vositalardan foydalanishdan olishni kutayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori hisoblanadi;

boshlang'ich qiymat — asosiy vositalarni yaratish (qurish va qurib bitkazish) yoki xarid qilish bo'yicha qilingan xarajatlarning qiymati, shu jumladan to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (yig'imlar), shuningdek aktivni undan maqsadga muvofiq foydalanish uchun ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq bo'lgan yetkazib berish va montaj qilish, o'rnatish, ishga tushirish va istalgan boshqa xarajatlar;

joriy qiymat — ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha asosiy vositalarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni umalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga

oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa;

qoldiq (balans) qiymat — jamlangan amortizatsiya summasini chegirgan holda asosiy vositalarning boshlang'ich (tiklash) qiymati;

tugatish qiymati — asosiy vositalarning chiqib ketishi bo'yicha kutilayotgan xarajatlarni chegirgan holda kutilayotgan foydali xizmat muddati oxirida asosiy vositalarni tugatish chog'ida olinadigan aktivlarning kutilayotgan summasi.

Asosiy vositalar tarkibiga quyidagi mezonlarga bir vaqtning o'zida javob beradigan moddiy aktivlar kiritiladi:

- a) bir yildan ortiq xizmat muddati;
- b) bir birlik (to'plam) uchun qiymati O'zbekiston Respublikasida (xarid paytida) belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining ellik baravaridan ortiq bo'lgan buyumlar.

Korxona rahbari hisobot yilda buyumlarni asosiy vositalar tarkibida hisobga olish uchun ular qiymatining eng kam chegarasini belgilash huquqiga ega.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'iy nazar, quyidagilar asosiy vositalar tarkibiga kiritilmaydi:

- a) maxsus asboblar va moslamalar (muayyan buyumlarni seriyalab va ommaviy ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagi buyurtmani tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli vazifadagi asboblar va moslamalar);
- b) maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal;
- v) ko'rpa-to'shaklar;
- g) kanselyariya ashyolari (kalkulyatorlar, stol jihozlari va hokazo);
- d) oshxona inventari, shuningdek oshxona choyshablari;
- e) barpo etish xarajatlari qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (notitul) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;
- j) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;
- z) ovlash qurollari (trallar, yoyma to'rlar, to'rlar, jihozlar, merejlar va hokazo).

Asosiy vositalalar tarkibida qonun hujjatlariga muvofiq korxona multiga topshirilgan yer uchastkalari ham hisobga olinadi.

Ko‘p yillik ko‘chatlarga, yerni tubdan yaxshilashga, ijara ga olingan asosiy vositalalar obyektlariga kapital qo‘yilmalar har yili butun ishlar majmui yakunlangan sanadan qat’iy nazar, hisobot yilda foydalanishga qabul qilingan asosiy vositalarga tegishli xarajatlar summasida asosiy vositalalar tarkibiga kiritiladi.

Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi birligi bo‘lib inventar obyekti hisoblanadi. Asosiy vositalarning inventar obyekti sifatida barcha qurilmalari va jihozlariga ega bo‘lgan obyekt yoki muayyan mustaqil vazifalarni bajarish uchun mo‘ljallangan alohida konstruktiv asosdagi buyum yoxud butun bir yaxlitlikni ifodalovchi va muayyan ishlarni bajarish uchun mo‘ljallangan konstruktiv jamlangan buyumlarning alohida majmui tan olinadi. Konstruktiv jamlangan buyumlarning majmui — umumiylar moslamalarga va jihozlarga, umumiylar boshqaruvga ega, bir poydevorda qurilgan, natijada majmuuga kiruvchi har bir buyum o‘z vazifasini mustaqil ravishda emas, balki faqatgina majmua tarkibida bajara oladigan bir yoki turli maqsadlarga mo‘ljallangan bitta yoki bir nechta buyumlardir.

Bitta asosiy vositada turlicha foydali foydalanish muddatiga ega bir nechta mustaqil obyektlar mavjud bo‘lganda, har bir bunday obyekt buxgalteriya hisobida alohida mustaqil inventar obyekti sifatida tan olinadi.

Ikki yoki undan ortiq korxona mulki bo‘lgan asosiy vositalar har bir korxona tomonidan asosiy vositalar tarkibida uning umumiylar mulkdagi ulushiga mutanosib tarzda aks ettiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 9 sentyabrdagi O‘zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti (BHMS №21) “Xo‘jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi schyotlar rejasiga uni qo‘llash bo‘yicha Yo‘riqnomani tasdiqlash to‘g‘risida»gi 103-sonli buyrug‘i qabul qilindi va O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2002 yil 23 oktyabrdagi 1181-sod bilan ro‘yxatga olindi.

Mazkur yo‘riqnomaga asosan, mulkchilik huquqi korxonaga tegishli bo‘lgan asosiy vositalarning mavjudligi va harakati, foydalilanayotgan, konservatsiya qilingan yoki operativ ijara shartnomasi bo‘yicha berilgan

asosiy vositalar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

0110 "Yer";

0111 "Yerni obodonlashtirish";

0112 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish";

0120 "Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar";

0130 "Mashina va asbob-uskunalar";

0140 "Mebel va ofis jihozlari";

0150 "Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi";

0160 "Transport vositalari";

0170 "Ishchi va mahsuldor hayvonlar";

0180 "Ko'p yillik o'simliklar";

0190 "Boshqa asosiy vositalar";

0199 "Konservatsiya qilingan asosiy vositalar".

Analitik hisobning tashkil qilinishi respublika hududi va xorijdagi asosiy vositalarning mavjudligi va ularning harakati to'g'risidagi axborotlarni olish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

Asosiy vositalar asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarda quyidagi obyektlar uchun aniqlanadigan boshlang'ich qiymatda hisobga olinadi:

a) korxonaning ustav kapitaliga ta'sischilar tomonidan ularning ulushi hisobidan kiritilgan obyektlar - tomonlarning kelishuviga asosan;

b) korxonaning o'zida tayyorlangan shuningdek, to'lov evaziga boshqa korxona va shaxslardan sotib olingan obyektlar - ushbu obyektlarni (inshoot, qurish, tiklash) barpo etishga ketgan haqiqiy xarajatlardan kelib chiqib yoki ushbu obyektlarni xarid qilishda, to'langan va qoplanmaydigan soliqlar (boshqa majburiy to'lovlari) shuningdek, yetkazib berish, yig'ish, o'rnatish, ishga tushirish va ushbu aktivni ishchi holatiga keltirish bilan bevosita bog'liq boshqa xarajatlarni hisobga olgan holda;

v) boshqa korxona va shaxslardan tekinga olingan shuningdek, hukumat idoralari tomonidan subsidiya ko'rinishida olinganlari - qabul

qilish sanadagi bozor bahosi yoki qabul qilish-topshirish hujjatlarida ko'rsatilgan qiymat bo'yicha.

Asosiy vositalarning boshlang'ich qiymati faqat qayta qurilganda, ta'mirlanganda va qisman tugatilganda hamda qayta baholangan hollarda o'zgartirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 31 dekabrdagi 490-sonli "Asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar prognozi va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetining 2002 yilgi parametrlari to'g'risida"gi qarori va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli qaroriga muvofiq barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar (mikrofirma va kichik korxonalardan tashqari) mulkchilik shaklidan qat'iy nazar har yili 1 yanvar holatiga asosiy vositalar qiymatini joriy bahoga keltirish uchun qayta baholashni amalga oshiradilar, shu jumladan, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan 1 yanvar holatiga asosiy vositalar qiymatini uch yilda bir marta qayta baholashni amalga oshiradilar. Asosiy vositalar bahosini oshirish (tushirish) summasi asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarning (0100) debeti (krediti) bo'yicha 8510 "Mulkni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar" schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Ta'sischilar tomonidan korxonaning ustav kapitaliga ulush hisobidan kiritilgan asosiy vositalarni kirim qilish asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarning (0100) debeti va 4610 "Ustav kapitaliga ta'sischilarning ulushlari bo'yicha qarzi" schyotining kreditida aks ettiriladi.

Korxonaning o'zi tomonidan qurilgan shuningdek, pudrat shartnomasiga asosan qurilgan asosiy vosita obyektlarni tegishli asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarning (0100) debeti, 0810 "Tugallanmagan qurilish" schyotining krediti bo'yicha kirim qilinadi.

Mol yetkazib beruvchilar, pudratchilar va boshqa shaxslardan sotib olingan asosiy vosita obyektlari asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarning (0100) debeti va 0820 "Asosiy vositalarni xarid qilish" schyotining krediti bo'yicha kirim qilinadi.

Boshqa korxona va shaxslardan tekinga olingan asosiy vositalarning kirim qilinishi asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlarning (0100) debetida 8530 "Tekinga olingan mulkler" schyoti bilan bog'langan holda aks ettiriladi. Biroq, soliqqa tortish maqsadida, tekinga olingan asosiy vositalarning qiymati foyda solig'ini hisoblashda soliqqa tortiladigan bazaga qo'shiladi.

Asosiy vositalarni tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, moliyaviy ijaraga berish, kamomad yoki buzilishi natijasida hisobdan chiqarishda ularning boshlang'ich qiymati tegishli (0100) asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlardan 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

0110 «Yer» schyotida qonunchilikka muvofiq korxonaga mulk sifatida berilgan yer maydonlari hisobga olib boriladi. 0110 «Yer» schyotining debetida shuningdek, yer maydonlarini xarid qilishda to'lanadigan qo'shimcha xarajatlar, ko'chmas mulk agentlarining komission mukofoti, advokatlarning xizmat haqi, sotib olish bilan bog'liq soliqlar, zovurlar qiymati, yerlarni tozalash va tekislash xarajatlari hisobga olinadi.

Yerlarni foydalanishga tayyorlash jumladan, suv olib kelish, oqova suvlarni chiqarish inshootlari, geodeziya ishlari bo'yicha umumiylar xarajatlar 0110 «Yer» schyotida kapitalizatsiya qilinadi. Chunki ushbu xarajatlar yerdan kelgusida foydalanish va uning qiymatini oshirish uchun zarur.

Yer maydoni bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish yoki qurish uchun sotib olinganda, mavjud konstruksiyalar va boshqa to'siqlarni bartaraf etish qiymati 0110 «Yer» schyotining debetida kapitalizatsiya qilinadi. Bunda konstruksiyani tugatishdan olingan materiallarni sotishdan tushgan tushum ushbu xarajatlarni kamaytiradi.

Agar yer maydoni oldindan tasarrufda bo'lsa va mavjud konstruksiyalar yangi qurilish obyektiga joy berish uchun buzib tashlansa, buzish bo'yicha xarajatlar 0110 «Yer» schyotiga kapitalizatsiya qilinmaydi, balki eski konstruksiyalarni hisobdan chiqarish bilan bog'liq xarajat sifatida aks ettiriladi.

0111 "Yerni obodonlashtirish" schyotida yer maydonlari tuzilishini o'zgartirish, kelish yo'llari, avtomobillar va boshqa transport vositalarining to'xtash maydonlari, devorlar va boshqa inshootlarning holatini yaxshilash xarajatlari hisobga olinadi.

0112 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish" schyotida moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha ijaraga olingan mulkni obodonlashtirish bilan bog'liq kapital xarajatlar hisobga olinadi.

Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish bo'yicha kapital xarajatlarga shuningdek, rekonstruksiya va modernizatsiya qilish xarajatlari ham qo'shiladi.

0120 "Binolar, inshootlar va uzatuvchi moslamalar" schyotida quyidagilar hisobga olinadi:

a) bino - ishlab chiqarish, ma'muriy, ijtimoiy-maishiy, uy-joy (inventar obyekti bo'lib, mustaqil xo'jalik ahamiyatiga ega bo'lgan, alohida turgan bino yoki qo'shimcha qurilishlar hisoblanadi). Bino va qo'shimcha qurilishlar tarkibiga bir me'yorda foydalanish uchun sharoit yaratib beradigan barcha kommunikatsiya tizimi (isitish, yoritish, shamollatish, suv-gaz ta'minoti tizimlari, ichki telefon va kompyuter tarmoqlari, lift xo'jaligi, yong'indan saqlash va qo'riqlash signalizatsiya tizimi) kiradi;

b) inshootlar - avtomobil yo'llari, ko'priklar, osma yo'llar, suv ombori, neft va gaz quduqlari, shaxta quduqlari va boshqalar;

v) o'tkazuvchi moslamalar - elektr quvvatini uzatish tizimlari, truba yo'llari, issiqlik va gaz tarmoqlari, transmissiyalar va boshqalar.

0130 "Mashina va asbob-uskunalar" schyotida quyidagilar hisobga olinadi:

a) kuchlantiruvchi mashina va uskunalar - atom reaktorlari, qozonlar, bug' dvigatellari, turbinalar, kuchlantiruvchi transformatorlar, ichki yonuv dvigatellari va boshqalar;

b) ishchi mashinalar va uskunalar - mehnat buyumlariga mexanik, issiqlik, kimyoiy va boshqa texnologik ta'sir ko'rsatuvchi stanoklar, apparatlar, agregatlar;

v) o'lchov va boshqaruv moslamalari va laboratoriya uskunalarini hamda jihozlari - tarozilar, manometrlar, termostatlar, dispatcher nazorati uskunalarini, signalizatsiya, ilmiy-tekshirish laboratoriyasi, seysmologik stantsiya uskunalarini va boshqalar;

g) boshqa mashinalar va uskunalar - telefon stansiyasi uskunalarini va boshqa oldingi guruhlarda hisobga olinmaydigan mashina va uskunalar.

0140 "Mebel va ofis jihozlari" schyotida ishlab chiqarish va boshqaruv uchun mo'ljallangan mebel va jihozlar (stollar, shkaflar, mebel yig'imlari, kreslo, temir seyflar va boshqalar) shuningdek, ofis jihozlari (telefaks apparati, qog'oz qirqadigan va yo'q qiladigan mashinalar va boshqalar) hisobga olinadi.

0150 "Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi" schyotida kompyuterlar, printerlar, skanerlar, modem va boshqa kompyuter jihozlari, hamda hisoblash texnikalari hisobga olinadi.

0160 "Transport vositalari" schyotida temir yo'l, suv, havo, avtomobil, ishlab chiqarish va kommunal transport vositalarining harakatlanuvchi tarkibi shuningdek, magistral quvur tarmoqlari (truboprovodlar) hisobga olinadi.

0170 "Ishchi va mahsulor hayvonlar" schyotida ishchi kuchi sifatida foydalaniladigan ishchi hayvonlar - otlar, ho'kizlar, tuyalar, xachir va eshaklar va boshqa ishchi hayvonlar (shuningdek, yuk transport vositasi sifatida foydalaniladigan hayvonlar) hamda mahsulot (nasl, sut, jun va boshqalar) beradigan hayvonlar - sigirlar, biyalar, qo'ylar, echkilar va boshqalar hisobga olinadi.

0180 "Ko'p yillik o'simliklar" schyotida ko'kalamzorlashtirish, dekoratsiya, meva-rezavor daraxtlar va o'simliklar, yashil devorlar va boshqalar hisobga olinadi.

0190 "Boshqa asosiy vositalar" schyotida yuqorida keltirilgan schyotlarda sanab o'tilmagan asosiy vositalar hisobga olinadi.

0199 "Konservatsiya qilingan asosiy vositalar" schyotida qonunlarda belgilangan tartibda konservatsiyalangan asosiy vositalar hisobi yuritiladi.

Asosiy vositalarni hisobga oluvchi schyotlar (0100)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qurib bitkazilgan va foydalanishga topshirilgan obyektlarning asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilishi	0110-0190	0810
2	Oldi-sotdi shartnomasiga bo'yicha xarid qilingan obyektlarni asosiy vositalar tarkibiga o'tkazilishi	0110-0190	0820
3	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan obyektlarni moliyaviy ijara shartnomasi tugagandan keyin asosiy vositalar tarkibiga qabul qilinishi	0110-0190	0310
4	Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulush (pay) sifatida kiritgan yoki aksiyalarga to'lov sifatida kelib tushgan asosiy vositalarning kirim qilinishi	0110-0190	4610
5	Asosiy vositalarning tekinga kelib tushishi	0110-0190	8530
6	Asosiy vositalarning ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan kelib tushishi	0110-0190	6110, 6120
7	Qo'shimcha qurish, uskunalar o'rnatish, modernizatsiya, rekonstruksiya qilish va boshqa sifat jihatdan yaxshilash natijasida asosiy vositalar boshlang'ich qiymatining ko'payishi	0110-0190	0890
8	Yerni obodonlashtirish bilan bog'liq	0111	0850

	xarajatlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritish		
9	Moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish bilan bog'liq xarajatlarni asosiy vositalar tarkibiga kiritish	0112	0860
10	Ishchi va mahsuldor hayvonlarning asosiy vositalar tarkibiga kirim qilinishi	0170	0840
11	Asosiy vositalarni qayta baholash: a) qiymatining oshirilishi b) qiymatining kamaytirilishi	0110-0199 8510	8510 0110-0199
12	Tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, moliyaviy ijaraga berish, kamomad yoki buzilish natijasida asosiy vositalarning boshlang'ich qiymatini hisobdan chiqarish	9210	0110-0190
13	Ajratilgan bo'linmalarga asosiy vositalarni berilishi	4110	0110-0190
14	Qonunchilikda belgilangan tartibda konservatsiya qilingan asosiy vositalar	0199	0110-0190

Berilgan:

1. «A» xususiy ishlab chiqarish firmasida 2021 yilni 1-yanvar holatiga asosiy vositalar qoldig'i va ularning eskirishi quyidagicha bo'lган.

Hi-sob raq	Asosiy vositalar nomi	O'l-chov birligi	Miq-dori	Dastlabki qiymati	Eskirish summasi
0121	Boshqaruv binosi	dona	1	50000000	20000000
0122	Sex binosi	dona	1	80000000	32000000
0123	Tayyor mahsulotlar ombori	dona	1	20000000	8000000
0140	binosi	komp	25	25000000	7500000

0150	Stol va stullar	komp	1	1800000	720000
0190	Kompyuter	dona	1	2200000	990000
0160	Televizor «ALFA»	dona	1	6000000	24000000
0130	Avtomobil «NEKSIYA» Tikuv mashinasi	dona	20	40000000	18000000
	Jami			279000000	111210000

2. «A» xususiy ishlab chiqarish korxonasida 2021 yilning yanvar oyi davomida asosiy vositalar harakati bo'yicha quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan.

Sana	Xo'jalik operatsiyasi nomi	Summa
10.01.21	15-sonli hisobvaraq faktura va 08.01.21 yilda tuzilgan 4-sonli shartnomaga asosan «SAMSUNG» firmasidan sex binolari uchun 4 dona, har birining bahosi 1700000-00 so'mdan bo'lgan konditsioner sotib olindi va balansga kirim qilindi.	6800000-00
15.01.21	44-sonli hisobvaraq faktura va 07.01.21 yilda tuzilgan shartnomaga asosan Toshkent shahrida joylashgan «Koinot» firmasidan 2 dona, har birining bahosi QQS bilan birga 5750000 so'mdan bo'lgan tikuv mashinasi sotib olindi, shundan QQS summasi 750000 so'm.	5000000-00 750000-00
15.01.21	Transport tashkiloti bilan tuzilgan shartnoma va uning 14.01.21 yilda bergen schyotiga asosan avtomobil xizmati uchun pul o'tkazib berildi.	220000-00
25.01.21	Hisobdan chiqarish dalolotnomasiga asosan ishga yaroqsiz holga kelgan 1 dona tikuv mashinasi hisobdan chiqarildi. -Boshlang'ich qiymati 2000000 so'm; -Eskirish summasi 2000000 so'm; -Hisobdan chiqarish natijasida 50 kg metallom olindi va 1 kgmi 8000 so'mdan baholanib, omborga kirim qilindi.	400000

28.01.21	Foydalanilayotgan 1 dona tikuv mashinasini Farg'ona «Nargiza» firmasiga 5-sonli hisobvaraq faktura va tuzilgan shartnomaga asosan sotildi va balansdan chiqarildi. - Sotish bahosi QQS bilan, so'm. - Sotilgan tikuv mashinasining boshlang'ich qiymati 2000000 so'm -Eskirish summasi 1300000 sum		1150000
----------	---	--	---------

Asosiy vositalar harakati bo'yicha sodir bo'lgan xo'jalik operatsiyalarga buxgalteriya yozuvlarini amalgalashiring.

№	Operatsiya mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
		debit	kredit	
1	Konditsioner sotib olindi Sotib olib kelinan konditsioner balansga qabul qilindi.	0820 0190	6010 0820	6800000-00 6800000-00
2	Tikuv mashinasini sotib olindi QQS summasiga Tikuv mashinasini olib kelish xarajaflariga Tikuv mashinasini balansga qabul qilindi	0820 4411 0820 0130	6010 6010 5110 0820	5000000-00 750000-00 220000-00 5220000-00
3	Tikuv mashinasini ishga yaroqsizligi tufayli hisobdan chiqarildi. -dastlabki qiymatiga -eskirish summasiga -omborga kirim qilingan material (metallom) summasiga -hisobdan chiqarish natijasida olingan foyda summasiga	9210 0230 1090 9210	0130 9210 9210 9310	2000000-00 2000000-00 400000-00 400000-00
4	Tikuv mashinasini sotildi: -sotish qiymatiga QQS siz -boshlang'ich qiymatiga -eskirish qiymatiga -QQS summasiga -sotishdan olingan foyda summasiga	4010 9210 0230 4010 9210	9210 0130 9210 6410 9310	1000000-00 2000000-00 1300000-00 150000-00 300000-00

**Asosiy vositalarni hisobot davri oxiriga bo‘lgan holatini quyidagi shakl
orqali aniqlang.**

№	Asosiy vosita nomi	Hisobot davri boshiga qoldiq		Kirim		Chiqim		Hisobot davri oxiriga qoldiq	
		Miq-dori	summasi	Miq-dori	Summasi	Miq-dori	Summasi	Miq-dori	Summasi
1	Boshqaruv binosi	1	50000000					1	50000000
2	Sex binosi	1	80000000					1	80000000
3	Tayyor mahsulot ombori	1	20000000					1	20000000
4	Stol va stullar	25	25000000					25	25000000
5	Kompyuter	1	1800000					1	1800000
6	Televizor	1	2200000					1	2200000
7	Avtomobil	1	60000000					1	60000000
8	Tikuv mashinasi	20	40000000	2	5220000	2	4000000	20	41220000
9	Kondisioner			4	6800000			4	6800000
	JAMI		279000000		12020000		4000000		287020000


13-jurnal-order va vedomost.

0820-schyot debeti bo'yicha

D-t K-t	6010	6010	5110		Jami
0820	6800000-00	5000000	2200000		12020000
Jami	6800000-00	5000000	2200000		12020000

0820-schyot krediti bo'yicha

D-t K-t	0190	0130			Jami
0820	6800000	5220000			12020000



Jami	6800000	5220000			12020000

0100-schyot debeti bo'yicha

K-t D-t	0820				Jami
0190	6800000				6800000
0130	5220000				5220000
Jami	12020000				12020000

0100-schyot krediti bo'yicha

D-t K-t	9210				Jami
0130	2000000-00				2000000-00
0130	2000000-00				2000000-00
Jami	4000000-00				4000000-00

9210-schyot debeti bo'yicha

K-t D-t	0130	9310	4010	6412	Jami
9210	2000000	400000			2400000
9210	2000000	300000			2300000
Jami	4000000	700000			4700000

9210-schyot krediti bo'yicha

D-t K-t	0230	1090	4010		Jami
9210	3300000	400000	1000000		4700000
Jami	3300000	400000	1000000		4700000

Asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200)

Asosiy vositalar qiymati amortizatsiya hisoblash yo'li bilan qoplanadi. Amortizatsiyalanadigan qiymat butun foydali xizmat muddati mobaynida subyekt xarajatlariga amortizatsiya ajratmalar ko'rinishida tizimli taqsimlanadi.

Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur obyekt asosiy vositalar tarkibiga qabul qilingan oydan keyingi oyning dastlabki sanasidan boshlanadi hamda mazkur obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to'liq qoplangunga yoxud ushbu obyekt balansdan hisobdan chiqarilgunga qadar amalga oshiriladi.

Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash mazkur obyektning amortizatsiyalanadigan qiymati to'liq qoplangunga yoki ushbu obyekt balansdan hisobdan chiqarilgan oydan keyingi oyning dastlabki sanasida to'xtatiladi.

Asosiy vositalarni foydali xizmat muddati davomida amortizatsiya ajratmalarini hisoblash to'xtatilmaydi, asosiy vositalar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiya qilishga o'tkazilgan holatlar, shuningdek ularni to'liq to'xtatish sharti bilan obyektni qo'shimcha qurish, qo'shimcha asbob-uskunalar bilan tu'minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish, texnik qayta qurollantirish davri bundan mustasno.

Asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash hisobot davridagi korxona faoliyati natijalaridan qat'iy nazar amalga oshiriladi va u tegishli bo'lgan hisobot davridagi buxgalteriya hisobida aks ettiriladi.

Asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan amortizatsiya summaları buxgalteriya hisobida ushbu summaları alohida schyotda jamg'arish yo'li bilan aks ettiriladi.

Quyidagilar amortizatsiya qilinmaydi:

- a) yer uchastkalari va tabiatdan foydalanishga doir boshqa obyektlar (suv, yer osti boyliklari va boshqa tabiiy resurslar);
- b) mahsuldar chorva mollari;
- v) axborot-kutubxona fondi;
- g) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda konservatsiyalashga o'tkazilgan asosiy vositalar;
- d) muzey ashyolari;
- e) moddiy madaniy meros obyektlari;
- j) umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari, yo'laklar, sayilgohlar, xiyobonlar, mahalliy davlat hokimiyyati organlari tasarrufida bo'lgan obodonlashtirish inshootlari;
- z) to'liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

Amortizatsiya quyidagi usullarni qo'llash yo'li bilan hisoblanadi:

- a) amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash.

Amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya asosiy vositalarni foydali xizmat muddati mobaynida ularning amortizatsiyalananadigan qiymatidan kelib chiqqan holda bir maromda, teng ulushlarda hisoblanadi.

Mazkur usulga ko'ra asosiy vositalarning amortizatsiyalananadigan qiymati uning xizmat muddati davomida tegishli xarajatlarga bir maromda hisobdan chiqariladi (taqsimlanadi). Usul amortizatsiya me'yori foydali xizmat muddatining faoliyatiga bog'liqligiga asoslangan. Har bir davr uchun amortizatsiya ajratmalari summasi amortizatsiyalananadigan qiymatni asosiy vositalardan foydalanilgan hisobot davrlari soniga bo'lish yo'li bilan hisoblanadi.

Amortizatsiyani bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulida amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalarning amortizatsiya qiymati va mazkur obyektning foydali xizmat muddatidan kelib chiqib aniqlanadi;

b) amortizatsiyani bajarilgan ishlar hajmiga mutanosib ravishda hisoblash (ishlab chiqarish usuli).

Amortizatsiya hisoblashning ishlab chiqarish usuli har bir muayyan yildagi asosiy vositalarning ishlab chiqarish quvvati hisobga olishga asoslangan.

Mazkur usul bo'yicha amortizatsiyaning har yilgi qiymatini hisoblash uchun butun foydali xizmat muddatidagi umumiylar baholangan ishlab chiqarish quvvati yig'indisini va mazkur muayyan yildagi ishlab chiqarish quvvatini aniqlash lozim. Ishlab chiqarish quvvati sifatida ishlab chiqariladigan mahsulot birliklari soni, ishlangan soatlar soni, bosib o'tgan tonna-kilometrlar soni va boshqalar olinishi mumkin.

Amortizatsiya hisoblashning ishlab chiqarish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi hisobot davridagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmining natural ko'rsatkichidan hamda asosiy vositalar amortizatsiyalanadigan qiymatining asosiy vositalar butun foydali xizmat muddatida nazarda tutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Asosiy vositalardan intensiv foydalanilganda, shuningdek ilmiy- texnikaviy jarayonning katta ta'sirida asosiy vositalar amortizatsiyasi quyidagi usullarda hisoblanadigan jadallashtirilgan amortizatsiya yo'li bilan ifodalanadi:

a) ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli;

b) yillar yig'indisi usuli (kumulyativ usul).

Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli amortizatsiya hisoblash davrida aktivning amortizatsiyalanadigan qiymati kamayishini anglatadi.

Mazkur usulga ko'ra bir maromli (to'g'ri chiziqli) hisoblash usulidan ikki baravar amortizatsiya me'yori mazkur hisobot davridagi asosiy vositaning tegishli qoldiq qiymatiga ko'paytiriladi. Ikki baravar

amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usuli bo'yicha amortizatsiya hisoblashda kutilayotgan tugatish qiymati boshlang'ich (tiklash) qiymatidan chegirilmaydi.

Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida yillik amortizatsiya ajratmalari summasi asosiy vositalarning hisobot yili boshidagi qoldiq qiymatidan va mazkur obyektni foydali xizmat muddatidan kelib chiqib hisoblangan amortizatsiya me'yorining ikki baravaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Ikki baravar amortizatsiya me'yori bilan qoldiqni kamaytirish usulida asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarini hisoblash ushbu obyektlarning balans (qoldiq) qiymati ularning tugatish qiymatiga teng bo'lган vaqtida tugatiladi.

Yillar yig'indisi usuliga (kumulyativ usulga) ko'ra har yilgi amortizatsiya me'yori amortizatsiya muddati oxiriga qadar qoladigan amortizatsiyalanadigan qiymatga ulush sifatida aniqlanadi. Ulush amortizatsiya ajratmalari tugaguniga qadar qoladigan to'liq yillar sonini amortizatsiya muddatini tashkil qiladigan yillar tartib sonlari yig'indisiga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yillar yig'indisi usulida (kumulyativ usulda) amortizatsiya ajratmalarining yillik summasi asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymatidan hamda suratida obyektni foydali xizmat muddatining oxiriga qadar qoladigan yillar soni, maxrajida esa — obyektni foydali xizmat muddati yillari soni yig'indisining nisbatidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq solish maqsadida O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksida asosiy vositalarning boshlang'ich (qayta tiklash) qiymatiga nisbatan foizlarda har yillik amortizatsiya me'yorlari belgilangan va ushbu har yillik me'yor xarajatlarga bir maromda hisobdan chiqariladi.

Hisobot yili davomida asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalari qo'llaniladigan hisoblash usulidan qat'iy nazar (amortizatsiya hisoblashning ishlab chiqarish usulidan tashqari), yillik summaning 1/12 miqdorida har oyda hisoblanadi.

Mavsumiy tusdag'i ishlab chiqarish korxonalarida foydalilanadigan asosiy vositalar bo'yicha amortizatsiya ajratmalarining

yillik summasi hisobot yilda korxona tomonidan asosiy vositalardan foydalanish davri mobaynida bir maromda hisoblanadi.

Asosiy vositalarning har xil turlariga (guruhlariga) amortizatsiya hisoblashning turli usullarini qo'llashga yo'l qo'yiladi. Bunda asosiy vositalarning bir turdag'i obyektlari bo'yicha (markasi, turi va boshqalar bo'yicha) faqat bitta usul qo'llaniladi.

Qo'llaniladigan amortizatsiya hisoblash usuli korxonaning hisob siyosatida majburiy tartibda aks ettiriladi.

Agar asosiy vositalardan foydalanishdan kutilayotgan iqtisodiy naf sezilarli darajada o'zgarish yuz bersa, amortizatsiya hisoblash usuli, agar yuzaga kelgan holatlar amortizatsiya usulining o'zgartirilishini oqlasa, o'zgarayotgan tendensiyani aks ettiradigan tarzda o'zgartirilishi mumkin. Bunday o'zgarish hisob siyosatida aks ettirilishi lozim. Bunda moliyaviy hisobotga tushuntirish xatida mazkur o'zgarish sabablari va ularning iqtisodiy samarasini ochib berilishi zarur.

Asosiy vositalar holatini yaxshilaydigan va, mos ravishda, xizmat muddatini uzaytiradigan xarajatlar amalga oshirilganini hamda xizmat muddatni qisqartiradigan texnologik o'zgarishlarni hisobga olib asosiy vositalarning foydali xizmat muddati korxona tomonidan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.

Tugatish qiymati asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymatini hisob-kitob qilishda muhim tarkibiy omil hisoblanadi. Tugatish qiymati muhim bo'lмаган holatda, u amortizatsiyalanadigan qiymatni hisoblab chiqarishda hisobga olinmasligi mumkin.

Agar tugatish qiymati ahamiyatga ega bo'lsa, u asosiy vositalarni xarid qilingan sana yoki ularni qayta baholash sanasida aniqlanadi. Tugatish qiymati asosiy vositalarning xizmat muddati oxirida tugatish bo'yicha kutilayotgan xarajatlarga kamaytiriladi.

Soliq solish maqsadida amortizatsiya qilinishi kerak bo'lgan mol-mulk amortizatsiyaning quyidagi eng yuqori normalari bilan guruhlarga taqsimlanadi:

Guruuhlar tartib raqami	Kichik guruuhlar tartib raqami	Asosiy vositalarning nomi	Amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi, foizlarda
I		Binolar, imoratlar va inshootlar	3
	1	Binolar, imoratlar	
	2	Nest va gaz quduqlari	
	3	Neft-gaz omborlari	
	4	Kema qatnaydigan kanallar, suv kanallari	
	5	Ko'priklar	
	6	Dambalar, to'g'onlar	
	7	Daryo va dengiz prichal inshootlari	
	8	Korxonalarning temir yo'llari	
	9	Qirg'oqni mustahkamlovchi, qirg'oqni himoyalovchi inshootlar	
	10	Rezervuarlar, sisternalar, baklar va boshqa sig'imlar	
	11	Ichki xo'jalik va xo'jaliklararo sug'orish tarmog'i	
	12	Yopiq kollektor-drenaj tarmog'i	
	13	Havo kemalarining uchish-qo'nish yo'llari, yo'laklari, to'xtash joylari	
	14	Bog'larning va hayvonot bog'larining inshootlari	
	15	Sport-sog'lomlashtirish inshootlari	
	16	Issiqxonalar va parniklar	
	17	Boshqa inshootlar	
II		Uzatish qurilmalari	5
	1	Elektr uzatish hamda aloqa qurilmalari va liniyalari	
	2	Ichki gaz quvurlari va quvurlar	
	3	Vodoprovod, kanalizatsiya va issiqlik tarmoqlari	
	4	Magistral quvurlar	
	5	Boshqalar	

III		Kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar	
	1	Issiqlik texnika uskunalar	8
	2	Turbina uskunalar va gaz turbinalari qurilmalari	
	3	Elektr dvigatellari va dizel-generatorlar	
	4	Kompleks qurilmalar	
	5	Boshqa kuch-quvvat beradigan mashinalar va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
IV		Faoliyat turlari bo'yicha ish mashinalari va uskunalar (harakatlanuvchi transportdan tashqari)	
	1	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga tegishli mashinalar va uskunalar	15
	2	Qishloq xo'jaligi traktorlari, mashinalari va uskunalar	
	3	Kommutatsiyalar va ma'lumotlarni uzatish raqamli elektron uskunalar, raqamli tizimlar uzatish uskunalar, raqamli aloqa o'chov texnikasi	
	4	Yo'ldosh, uyali aloqa, radiotelefon, peyjing va trunking aloqa uskunalar	
	5	Uzatishlar tizimlari kommutatsiyalarining o'xshash uskunalar	
	6	Kinostudiyalarning maxsus uskunalar, tibbiy va mikrobiologiya sanoati uskunalar	
	7	Kompressor mashinalari va uskunalar	
	8	Nasoslar	
	9	Yuk ko'tarish-transport, yuk ortish-tushirish mashinalari va uskunalar, tuproq, karyer hamda yo'l-qurilish ishlari uchun mashinalar va uskunalar	

	10	Ustun-qoziq qoqish mashinalari va uskunalari, maydalash-yanchish, saralash, boyitish uskunalari	
	11	Texnologik jarayonlar uchun barcha turdag'i sig'implar	
	12	Neft qazib chiqarish va burg'ulash uskunalari	
	13	Boshqa mashinalar va uskunalar	
V	Harakatlanuvchan transport		
	1	Temir yo'lning harakatdagi tarkibi	4
	2	Dengiz, daryo kemalari, baliqchilik sanoati kemalari	
	3	Havo transporti	
	4	Avtomobil transportining harakatdagi tarkibi, ishlab chiqarish transporti	
	5	Engil avtomobillar	20
	6	Sanoat traktorlari	
	7	Kommunal transport	
	8	Maxsus vaxta vagonlari	10
	9	Boshqa transport vositalari	
VI	Kompyuter, periferiya qurilmalari, ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalar		
	1	Kompyuterlar	20
	2	Periferiya qurilmalari va ma'lumotlarni qayta ishlash uskunalar	
	3	Nusxa ko'chirish-ko'paytirish texnikasi	
	4	Boshqalar	
VII	Boshqa guruhlarga kiritilmagan asosiy vositalar		
	1	Ko'p yillik dov-daraxtlar	10
	2	Boshqalar	15

Soliq solish maqsadlari uchun har bir kichik guruh bo'yicha amortizatsiya ajratmalari amortizatsiya normasini qo'llash orqali, biroq

Soliq kodeksda belgilangan eng yuqori normadan oshmagan holda hisoblab chiqiladi.

Soliq solish maqsadlari uchun amortizatsiyani yuqorida belgilanganidan pastroq va soliq to‘lovchining hisob siyosatida mustahkamlab qo‘yilgan normalar bo‘yicha hisoblashga yo‘l qo‘yiladi.

Soliq solinadigan foydaning to‘liq hisoblanmagan amortizatsiya summasiga soliq solish maqsadlarida yuqorida nazarda tutilgan normalarga zid ravishda qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalar obyektlarini oladigan soliq to‘lovchi ushbu asosiy vositalar obyekti bo‘yicha amortizatsiya normasini mazkur asosiy vositalar obyektidan avvalgi mulkdorlar tomonidan foydalilanigan yillar (oylar) soniga kamaytirilgan foydalanish muddatini hisobga olgan holda belgilashga haqlidir. Agar mazkur asosiy vositadan avvalgi mulkdorlarda amalda foydalanish muddati ushbu asosiy vositalarning Soliq kodeksi 144-moddasida tasniflanishi bilan belgilanadigan foydalanish muddatiga teng yoki undan ortiq bo‘lsa, soliq to‘lovchi texnika xavfsizligi talablarini va boshqa omillarni hisobga olgan holda bu asosiy vositadan unumli foydalanish muddatini mustaqil ravishda, lekin uch yildan kam bo‘limgan muddatga belgilashga haqlidir. Foydalanishda bo‘lgan asosiy vositalardan foydalanish muddatini aniqlash imkoniyati bo‘limgan taqdirda, amortizatsiyani hisoblash yangi asosiy vositalarga bo‘lgani singari amalga oshiriladi.

Korxonaning mulki hisoblangan yoki moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

0211 "Yerni obodonlashtirishning eskirishi";

0212 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo‘yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirishning eskirishi";

0220 "Bino, inshoot va uzatuvchi moslamalarning eskirishi";

0230 "Mashina va asbob-uskunalarning eskirishi";

0240 "Mebel va ofis jihozlarining eskirishi";

0250 "Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasining eskirishi";

0260 "Transport vositalarining eskirishi";

- 0270 "Ishchi hayvonlarning eskirishi";
- 0280 "Ko'p yillik o'simliklarning eskirishi";
- 0290 "Boshqa asosiy vositalarning eskirishi";
- 0299 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi".

Analitik hisobning tashkil qilinishi O'zbekiston Respublikasi hududidagi va xorijdagi asosiy vositalarning mayjudligi va eskirishining harakati to'g'risidagi ma'lumotlarni olish imkoniyatini ta'minlashi lozim.

- 0211-0290 schyotlarda mulkchilik huquqi korxonaga tegishli bo'lgan asosiy vositalarning eskirishi hisobga olinadi.

0299 "Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarning eskirishi" schyotida moliyaviy ijaraga olingan asosiy vositalarning eskirishi xususiy asosiy vositalarga eskirish hisoblash tartibi kabi bir xil tartibda hisobga olinadi.

Asosiy vositalarga hisoblangan eskirish summasi tegishli asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning (0200) kreditida, xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda olib boriladi.

Ijaraga beruvchi korxonalar joriy ijaraga berilgan asosiy vositalar bo'yicha hisoblangan eskirish summasini tegishli asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning (0200) krediti va 9430 "Boshqa operatsion xarajatlar" schyotining debetida aks ettiradilar.

Korxona mulki bo'lgan asosiy vositalarni tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, moliyaviy ijaraga berish, kamomad yoki buzilish natijasida hisobdan chiqarishda ularga hisoblangan eskirish summasi tegishli asosiy vositalarning eskirishini hisobga oluvchi schyotlarning (0200) debetidan 9210 "Asosiy vositalarning chiqib ketishi" schyotining kreditiga hisobdan chiqariladi.

Asosiy vositalar eskirishini hisobga oluvchi schyotlar (0200)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Asosiy, yordamchi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblash	2010, 2310, 2710	0211-0299
2	Umumishlabchiqarish maqsadida foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblash	2510	0211-0299
3	Savdo korxonalarida foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblash	9410	0211-0299
4	Ma'muriy maqsadlar uchun foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblash	9420	0211-0299
5	Quyidagi maqsadlarda foydalanilayotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblash: a) yangi turdag'i mahsulotni ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ishga tushirish ishlarida; b) umumiylar yoki yakka tartibda ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirishda.	9430	0211-0299
6	Ishchi xayvonlarga eskirish hisoblash	2010, 2310	0270
7	Ko'p yillik o'simliklarga eskirish hisoblash	2010	0280
8	Joriy (qisqa muddatli) ijara berilgan asosiy vositalarga eskirish hisoblash	9430	0220-0299
9	Moliyaviy ijara shartnomasi bo'yicha	0299	0211-0290

	olingen asosiy vositalarni xususiy asosiy vositalar tarkibiga o'tishi natijasida ularga hisoblangan eskirish summasini o'tkazish		
10	Moliyaviy ijara shartnomasining muddati tugagandan keyin ijaraga beruvchiga qaytariladigan asosiy vositalarning eskirishni hisobdan chiqarish	0299	0310
11	Asosiy vositalarning eskirishini qayta baholash: a) qiymati oshirilganda b) qiymati kamaytirilganda	8510 0211-0299	0211-0299 8510
12	Asosiy vositalarni tugatish, sotish, tekinga berish, ustav kapitaliga ulush sifatida berish, moliyaviy ijaraga berish, kamomad yoki buzilish natijasida ularga haqiqatda hisoblangan eskirishni hisobdan chiqarish	0211-0290	9210

2021 yil yanvar oyi davomida foydalani layotgan asosiy vositalarga eskirish hisoblang.

No	Asosiy vosita nomi	Miq -dori	Dastlabki qiymati	Amor t nor-masi (%)	Yillik amorti-zatsiya summasi	Bir oylik amortizat siya summasi
1	Boshqaruv binosi	1	50 000 000	3	1500000	125000
2	Sex binosi	1	80 000 000	3	2400000	200000
3	Tayyor mahsulotlar ombori binosi	1	20 000 000	3	600000	50000
4	Tikuv mashinasi	19	38 000 000	15	5700000	475000

5	Stol va stullar	25	25 000 000	15	3750000	312500
6	Kompyuter	1	1 800 000	20	360000	30000
7	Avtomobil «NEKSIYa»	1	60 000 000	20	12000000	1000000
8	Televizor «ALFA»	1	2 200 000	15	330000	27500
	JAMI		277 000 000			2 220 000

Tikuv mashinasi uchun amortizatsiya summalarini to‘g‘risidagi ma‘lumotlar quyidagi berilgan jadvalni jami summasidan olinadi.

Korxonada uch turdagini maxsus kiyimlar tikiladi.

- Maxsus kiyim bosh
- Maxsus qo‘lqop
- Erkaklar xalati.

Mazkur kiyimlarga sarflangan xarajatlarni hisobga olish uchun quyidagi schyotlar ajratilgan.

2011- Maxsus kiyim bosh tikish uchun sarflangan xarajatlar

2012- Maxsus qo‘lqop tikish uchun sarflangan xarajatlar

2013- Erkaklar xalati tikish uchun sarflangan xarajatlar

Amortizatsiya hisoblanayotgan tikuv mashinalarining 11 donasi maxsus kiyim bosh tikish, 3 donasi maxsus qo‘lqoplar tikish va 5 donasi erkaklar xalatini tikish uchun foydalaniлади.

Nº	Asosiy vosita nomi	Miq-dori	Dastlabki qiymati	Amor norma (%)	Yillik amortizatsiya summasi	Bir oylik amortizatsiya summasi
1	Tikuv mashinasi	11	22 000 000	15	3300000	275000
2	Tikuv mashinasi	3	6 000 000	15	900000	75000
3	Tikuv mashinasi	5	10 000 000	15	1500000	125000
	JAMI		38 000 000		5700000	475000

Hisobot davridagi eskirish summalariga quyidagi shaklda buxgalteriya yozuvlari qiling.

№	Xo‘jalik jarayoni mazmuni	PROVODKA		SUMMA
		D-t	K-t	
1	Boshqaruv bino uchun eskirish hisoblandi	9420	0221	125000
2	Sex binosi uchun eskirish hisoblandi	2510	0222	200000
3	Omchor binosi uchun eskirish hisoblandi	9420	0223	50000
4	Tikuv mashinasi uchun eskirish hisoblandi			
	Maxsus kiyim bosh tik mashinalarga	2011	0230	275000
	Qo‘lqop tikuvchi mashinalarga	2012	0230	75000
	Erkaklar xalati tikuvchi mashinalarga	2013	0230	125000
5	Stol va stillarga eskirish hisoblandi	9420	0240	312500
6	Kompyuter uchun eskirish hisoblandi	9420	0250	30000
7	Televizor uchun eskirish hisoblandi	9420	0290	27500
8	Avtomobil uchun eskirish hisoblandi	9420	0260	1000000
9	Tikuv mashinasi hisobdan chiqarildi	0230	9210	3300000

Hisobot davri oxiriga eskirish summasini quyidagi shakl asosida aniqlang.

Schyot raqam mi	Asosiy vosita nomi	Miqdori	Hisobot davri boshiga eskirish summasi	Eskirish bo'yicha oborotlar		Hisobot davri oxiriga eskirish summasi
				Hisobdan chiqarildi (Debet)	Hisoblandi (Kredit)	
0221	Boshqaruv binosi	1	20 000 000		125000	20125000
0222	Sex binosi	1	32 000 000		200000	32200000
0223	Tayyor mahsulotlar ombori binosi	1	8 000 000		50000	8050000
0230	Tikuv mashinasi	20	18 000 000	3300000	475000	15175000
0240	Stol va stullar	25	7 500 000		312500	7812500
0250	Kompyuter	1	720 000		30000	750000
0260	Avtomobil «NEKSIYA»	1	24 000 000		1000000	25000000
0290	Televizor «ALFA»	1	990 000		27500	1017500
	Jami		111 210 000	3300000	2220000	110130000

13-jurnal-order va vedomost.

0200-schyot debeti bo'yicha

9210					Jami
K-t	D-t				
0230	3300000				3300000
Jami	3300000				3300000

0200-schyot krediti bo'yicha.

D-t K-t	9420	2510	2011	2012	2013	Jami
0221	125000					125000
0222		200000				200000
0223	50000					50000
0230			275000	75000	125000	475000
0240	312500					312500
0250	30000					30000
0260	1000000					1000000
0290	27500					27500
Jami	1545000	200000	275000	75000	125000	2220000

MAVZU: XOM ASHYO VA MATERIALLAR HISOBI

Topshiriq:

1. «A» xususiy ishlab chiqarish firmasida xom ashyo va materiallar harakati bo'yicha sodir bo'lgan xo'jalik jarayonlariga buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
2. Ishlab chiqarishga berilgan materiallar qiymatini aniqlang va buxgalteriya yozuvlari qiling.
3. Materiallarni harakati bo'yicha aylanma qaydnomasini tuzing.
4. Materiallar harakati bo'yicha 10-jurnal order va vedomostni to'ldiring.

Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000)

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 17 iyulda 1595-son bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti, 4сон BHMSda tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning asosiy qoidalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: tan olish paytini belgilash, tasniflash, balans qiymatini baholash; tovar-moddiy zaxiralar tannarxiga kiritiladigan xarajatlarni belgilash, xarajatlarni, shu jumladan xarajat sifatida tovar-moddiy zaxiralar qiymatini keyinchalik tan olish; tovar-moddiy zaxiralar qiymatini sotish (baholash)ning sof qiymatiga qadar kamaytirish; ularning chiqib ketishidan moliyaviy natijalarni, shuningdek ular bo'yicha axborotni moliyaviy hisobotda yoritish tartibini aniqlash.

Tovar-moddiy zaxiralar - keyinchalik sotish maqsadida normal taoliyat yuritish jarayonida tutib turiladigan va ishlab chiqarish jarayonida mavjud bo'lgan, shuningdek mahsulot ishlab chiqarish, uhlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish uchun foydalilaniladigan moddiy aktivlar;

Sotishning sof qiymati - tovar-moddiy zaxiralarни maqsadiga ko'ra ishlataladigan holatga keltirish va sotish bo'yicha baholangan xarajatlar chegirilgan holda joriy qiymati;

Joriy qiymat - ma'lum sanadagi amal qilayotgan bozor narxlari bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarning qiymati yoki xabardor qilingan, bitimni amalga oshirishni xohlovchi, mustaqil taraflar o'rtasida bitimni amalga oshirishda aktivni sotib olish yoki majburiyatni bajarish uchun yetarli bo'lgan summa;

Bevosita xarajatlar - alohida turdag'i tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish) jarayoni bilan bevosita bog'liq bo'lgan hamda ularning birligi tannarxiga to'g'ridan-to'g'ri kiritiladigan ishlab chiqarish xarajatlari;

Bilvosita xarajatlar - bir necha turdag'i tovar-moddiy zaxiralarni ishlab chiqarish (xizmatlar ko'rsatish va ishlar bajarish) jarayoni bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish xarajatlari, ular muayyan tovar-moddiy zaxiralalar birliklari tannarxiga bevosita kiritilmaydi, buning oqibatida ular xarajatlar obyektlari va ularning birliklari tannarxi o'rtasida hisob-kitob yo'li bilan taqsimlanadi;

Bo'linish nuqtasi - ishlab chiqarish jarayonining muayyan payti, bu yerda birqalikda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni ishlab chiqarishda mahsulotlarning alohida turlari aniq identifikatsiyalanadi;

Idish - mahsulotlar (tovarlar)ni saqlash, o'rabi-joylash va tashish uchun ishlatiladigan buyumni ifoda etuvchi moddiy obyekt.

Tovar-moddiy zaxiralalar tashkilotlarda quyidagilar ko'rinishida bo'lishi mumkin:

a) xom ashyo va materiallar, xarid qilingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, yoqilg'i, tara va tarabop materiallar, ehtiyoj qismlar, inventar va xo'jalik jihozlari hamda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish, ma'muriy ehtiyojlar va boshqa maqsadlar uchun mo'ljallangan boshqa materiallar zaxiralari;

b) boquvdagi va yaylovdagi yosh hayvonlar, katta yoshdagi hayvonlar, parrandalar, asalari oilalari, sotish uchun asosiy podadan yaroqsiz qilingan (boquvg'a qo'yilmasdan) katta yoshdagi qoramollar, sotish uchun chetdan qabul qilingan qoramollar;

v) detallar, uzellar, buyumlarning tugallanmagan ishlov berilishi va yig'ilishi hamda tugallanmagan texnologik jarayonlar ko'rinishida

tugallanmagan ishlab chiqarish. Ishlarni bajaradigan va xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlarda tugallanmagan ishlab chiqarish ular bo'yicha qabul qilish-topshirish hujjatlari rasmiylashtirilmagan va tashkilot tomonidan tegishli daromad tan olinmagan tugallanmagan ishlari (xizmatlar)ni bajarishga doir xarajatlardan tashkil topadi;

g) tashkilotda tayyorlangan tayyor mahsulot (ishlab chiqarish siklining pirovard natijasi - sotish uchun mo'ljallangan va qonun hujjatlari bilan belgilangan hollarda shartnomada yoki boshqa hujjatlarning talablarida nazarda tutilgan texnik va sifat tavsiflariga muvofiq kladigan ishlov berilishi (butlanishi) tugallangan aktiv);

d) boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslardan xarid qilingan (olingan) va tashkilotning odatdagи faoliyati davomida qo'shimcha ishlov berishsiz sotish yoki qayta sotish uchun mo'ljallangan tovarlar. Bunda uzoq muddatli aktivlar obyektlari (binolar, inshootlar, transport vositalari, mulkiy (mutlaq) huquqlar va boshqalar) keyinchalik sotish yoki qayta sotish maqsadida xarid qilingan hollarda tovar bo'lib hisoblanishi mumkin.

Inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan aktivlar kiritiladi:

a) xizmat muddati bir yildan oshmaydigan;

b) qiymati bir birlik (komplekt) uchun xizmat muddatidan qat'i nazar, O'zbekiston Respublikasida belgilangan (xarid qilish paytida) eng kam ish haqining elliq baravarigacha miqdorda bo'lgan buyumlar. Tashkilot rahbari hisob siyosatida ularni inventar va xo'jalik anjomlari tarkibida hisobga olish uchun buyumlar qiymatining bundan past chegarasini belgilash huquqiga egadir.

Xizmat muddati va qiymatidan qat'i nazar inventar va xo'jalik anjomlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

a) maxsus asboblar va moslamalar (muayyan buyumlarni turkumli va ommaviy ishlab chiqarish yoki yakka tartibdagи buyurtmani tayyorlash uchun mo'ljallangan maqsadli vazifadagi asboblar va moslamalar);

b) maxsus va sanitariya kiyimlari, maxsus poyabzal;

v) ko'rpa-to'shaklar;

- g) yozuv-chizuv anjomlari (kalkulyatorlar, stol ustiga qo‘yiladigan asboblar va hokazo);
- d) oshxona inventari, shuningdek sochiq-dasturxonlar;
- e) ularni barpo etish xarajatlari qurilish-montaj ishlarining tannarxiga kiritiladigan vaqtinchalik (titulda bo‘limgan) inshootlar, moslamalar va qurilmalar;
- j) foydalanish muddati bir yildan kam bo‘lgan almashtiriladigan uskunalar;
- z) ovlash qurollari (trallar, yoyma to‘rlar, to‘rlar, anjomlar, matraplar va hokazo).

Tovar-moddiy zaxiralalar aktiv sifatida tan olinadi, agar:

- a) tashkilotga kelgusida aktiv bilan bog‘liq iqtisodiy foyda kelib tushishiga ishonch bo‘lsa;
- b) aktiv qiymatini ishonchli baholash mumkin bo‘lsa;
- v) ularga bo‘lgan mulk huquqi o‘tsa.

Tovar-moddiy zaxiralarga bo‘lgan mulk huquqi, ular bilan bog‘liq xatarlar va mukofotlarning o‘tish payti uning shartlari kelishiladigan yetkazib berish (oldi-sotdi) shartnomasi asosida belgilanadi.

Tovar-moddiy zaxiralalar tashkilotning buxgalteriya balansiga tannarxi bo‘yicha kiritiladi, u xarid qiymati (yetkazib beruvchiga to‘lanadigan summalar) va ularni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan barcha xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan va ularning tannarxiga kiritiladigan xarajatlarga quyidagilar kiritiladi:

- a) bojxona bojlari va yig‘imlari;
- b) tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan soliq va yig‘imlar summalarini (agar ular qoplanmasa);
- v) tovar-moddiy zaxiralalar ular orqali xarid qilingan ta’minotchi va vositachi tashkilotlarga to‘lanadigan vositachilik haqi;
- g) tovar-moddiy zaxiralarni sertifikatlash va ularni tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bog‘liq bo‘lgan texnik shartlarga muvofiq sinash bo‘yicha xarajatlar;
- d) tovar-moddiy zaxiralarni tayyorlash va ularni joriy joylashish yoki foydalanish joyiga yetkazib berish bo‘yicha transport-tayyorlov

xarajatlari. Ular tayyorlash, yuklash-tushirish ishlari, tovar-moddiy zaxiralarni barcha turdag'i transport bilan ularni joriy joylashish yoki foydalananish joyiga tashish uchun tariflar (fraxt)ni to'lash bo'yicha xarajatlar, shu jumladan tovar-moddiy zaxiralarni tashishda xatarlarni sug'ortalash bo'yicha xarajatlardan tashkil topadi;

c) tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlar.

Tovar-moddiy zaxiralalar qoldiqlari va chiqib ketayotgan (shuningdek ishlab chiqarishga berilgan) tovar-moddiy zaxiralalar qiymatini aniqlash quyidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi:

- a) tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi bo'yicha;
- b) o'rtacha tortilgan qiymat bo'yicha (AVECO);
- v) TMZ xarid qilingan vaqt bo'yicha dastlabki zaxiralalar tannarxi bo'yicha (FIFO).

Tovar-moddiy zaxiralarning har bir guruhi (turi) bo'yicha hisobot yili mobaynida qiymatni aniqlashning faqat bir usuli qo'llanadi. Tovar-moddiy zaxiralarning guruhi (turi) bo'yicha qiymatni aniqlash usullaridan birini qo'llash hisob siyosatini qo'llash ketma-ketligiga yo'l qo'yishdan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Tashkilot tomonidan alohida tartibda foydalilaniladigan (qimmatbaho metallar, qimmatbaho toshlar va hokazo) va bir-birining o'mini bosinaydigan (ya'ni ular odatdag'i holda bir-birini almashtira olmaydi), shuningdek maxsus loyihalar uchun ishlab chiqarilgan va mo'ljallangan (ishlatiladigan) tovar-moddiy zaxiralalar tegishli birlikning identifikatsiyalangan tannarxi usuli bo'yicha baholanadi.

Ushbu usulda spetsifik xarajatlar muayyan tovar-moddiy zaxiralarga qalluqli bo'ladi. Aks ettirishning ushbu usuli, ular sotib olinganligi yoki ishlab chiqarilganligidan qat'iy nazar, maxsus loyihalar uchun mo'ljallangan mahsulotlarga to'g'ri keladi.

AVECO usuli bo'yicha tovar-moddiy zaxiralalar har bir birligining qiymati davr boshida aynan bir xil birliklarning o'rtacha tortilgan qiymati va davr mobaynida xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan aynan bir xil birliklarning qiymatidan kelib chiqib aniqlanadi.

Tovar-moddiy zaxiralar har bir birligi qiymatini AVECO usuli bo'yicha aniqlash tegishincha davr boshidagi tovar-moddiy, zaxiralar qoldig'ining tannarxi va miqdori hamda ushbu davr mobaynida kelib tushgan tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi va miqdoridan shakllanadigan, aynan bir xil birliklarning umumiy tannarxini ularning umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan amalga oshiriladi. O'rtacha qiymat tashkilot tomonidan tanlangan usulga qarab davriy yoki tovar-moddiy zaxiralarning har bir yangi partiyasi kelib tushishiga ko'ra hisoblab chiqarilishi mumkin.

* FIFO usuli bo'yicha tovar-moddiy zaxiralarning chiqib ketayotgan birliklari tannarxiga birinchi navbatda xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralarning qiymati kiradi, davr oxiridagi tovar-moddiy zaxiralar qiymati esa oxirgi bo'lib xarid qilingan yoki ishlab chiqarilgan zaxiralar birliklarining umumiy qiymatidan tashkil topadi.

Korxonaga tegishli bo'lgan xom ashyo, materiallar, yoqilg'i, ehtiyyot qismlar, butlovchi buyumlar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, konstruksiyalar, detallar, idishbob materiallar, inventarlar, xo'jalik jihozlari va sh.k. qiymatliklarning mavjudligi va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

1010 "Xom-ashyo va materiallar";

1020 "Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar";

1030 "Yoqilg'ilar";

1040 "Ehtiyyot qismlar";

1050 "Qurilish materiallari";

1060 "Idish va idishbob materiallar";

1070 "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar";

1080 "Inventar va xo'jalik jihozlari";

1090 "Boshqa materiallar".

Materiallar hisobda ikkita bahoning eng pasti bo'yicha materiallarni hisobga oluvchi schyotlarda - haqiqiy tannarxi (sotib olish bahosi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo'yicha yoki bozor bahosi (sotishning sofiqiymati) bo'yicha hisobga olinadi.

Zarur hollarda (ishlatiladigan materiallarning nomenklaturasi katta bo‘lganda, korxona ichida materiallarning harakati intensiv bo‘lganda, qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishida va boshqalarda) materiallar hisobi hisob bahosi bo‘yicha yuritilishi mumkin. Hisob bahosi sifatida reja tannarxi, o‘rtacha sotib olish narxlari, ulgurji va boshqalar qabul qilinadi. Materiallarni hisob bahosi bo‘yicha hisobga olishda, har oy, haqiqiy tannarxi ko‘rsatilgan bahosining qiymatidan farqlanish summasi va foizlari hisoblab chiqiladi. Farqlar 1610 "Materiallar qiymatidagi farqlar" schyotida hisobga olinadi.

010 "Xom ashyo va materiallar" schyotida quyidagilarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi:

a) ishlab chiqarilayotgan mahsulotning tarkibiga kiradigan, uning asosini tashkil etadigan yoki uni tayyorlashda (ishlab chiqarishda) zarur tarkibiy qismlar hisoblaniladigan xom-ashyo va asosiy materiallar;

b) mahsulot ishlab chiqarishda yoki xo‘jalik ehtiyojlari uchun surʼilanadigan, texnik maqsadlar va ishlab chiqarish jarayoniga yordamlashishda ishtirok etadigan yordamchi materiallar;

v) qayta ishslash uchun tayyorlangan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari va h.k.;

g) yem-xashak va to‘shamalar. O‘zida ishlab chiqarilgan yem-xashak va to‘shamalar yil oxirida haqiqiy tannarxiga to‘g‘rilash bilan yil davomida reja tannarxi bo‘yicha aks ettiriladi.

1020 "Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar" schyotida yig‘ishda va qayta ishlov berishda xarajat talab qiladigan ishlab chiqarilayotgan (qurilish) mahsulotni butlash uchun ishlab chiqarish kooperatsiyasi tartibida xarid qilingan, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, tayyor butlovchi buyumlar, qurilish detallari va konstruksiyalarining mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

Ilmiy-tadqiqot va konstrukturlik tashkilotlari tomonidan ilmiy-tadqiqot va konstrukturlik mavzulari bo‘yicha ilmiy va eksperimental ishlarni o‘tkazish uchun chetdan sotib olinadigan butlovchi buyumlarni, maxsus uskunalarni, asboblarni, moslamalarni va boshqa qiymatliklarni 1020 "Sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar" schyotida hisobga olinadi.

1030 "Yoqilg'ilar" schyotida neft mahsulotlari, yoqilg'i-moylash materiallari (YoMM) (neft, benzin, kerosin, dizel yoqilg'isi, yog' va hokazolar), qattiq yoqilg'i (ko'mir, o'tin va hokazolar) va gazsimon yoqilg'i (gaz, gazolin) shuningdek, ishlab chiqarish chiqindilari va qattiq yoqilg'i sifatida ishlataladigan ikkilamchi material qiymatliklarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Yoqilg'i-moylash materiallari (YoMM) uchun talonlardan foydalanilganda ham ularning hisobi 1030 "Yoqilg'ilar" schyotida yuritiladi.

1040 "Ehtiyyot qismlar" schyotida mashina, uskuna, transport vositalari va boshqalarni ta'mirlash va eskirgan qismini almashtirish uchun mo'ljallangan asosiy faoliyat uchun xarid qilingan yoki tayyorlangan, ehtiyyot qismlarning mavjudligi va harakati, hamda zahiradagi avtomobil shinalari hisobga olinadi. Shu yerda ta'mirlash zavodlarida va texnik servis punktlarida korxonaning ta'mirlash bo'limlarida qilingan (yaratilgan) agregatlar, dvigatellar, uskunalar, to'liq komplektli mashinalarning almashish fondi harakati ham hisobga olinadi.

1050 "Qurilish materiallari" schyotida qurilish konstruksiyalari va detallari, bino va inshootlarning qismlari, konstruksiya va detallarini qurish va pardoz qilish, qurilish detallarini tayyorlash qurilish va montaj ishlarida ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun ishlataladigan shuningdek, boshqa ehtiyojlar uchun chetdan sotib olingan va o'zida ishlab chiqilgan qurilish materiallarining mavjudligi va harakati hisobga olinadi.

1060 "Idish va idishbob materiallar" schyotida idishlarning barcha turlari (xo'jalik inventari sifatida foydalaniladigan idishlardan tashqari) shuningdek, idishlar tayyorlash va ta'mirlash uchun mo'ljallangan materiallar va detallar (yashiklarni yig'ish uchun detallar, bochka taxtasi, temir gardish va boshqalar)ning mavjudligi va harakati yuritiladi. Yuklanadigan mahsulotlarning butligi va saqlanishini ta'minlash maqsadida vagonlar, barjalar, samolyotlar, kemalarni qo'shimcha jihozlash uchun mo'ljallangan buyumlar 1010 "Xom ashyo va materiallar" schyotida hisobga olinadi.

1070 "Chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallar" schyotida chetga qayta ishlash uchun berilgan materiallarning mavjudligi va

harakati hisobga olinadi. Bunda materiallarga qayta ishlov berish bilan bog'liq chetdagi korxonalarga to'langan xarajatlar bevosita qayta ishlashdan olingen buyumlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetiga olib boriladi.

1080 "Inventar va xo'jalik jihozlari" schyotida korxonaning aylanma mablag'lari tarkibiga kiramidan inventarlar, asboblar, xo'jalik jihozlari va boshqa mehnat vositalarining (kam baholi va tez eskiruvchi buyumlar) mayjudligi va harakati hisobga olinadi.

Ushbu schyotda quyidagi mezonlardan biriga javob beradigan mult hisobga olinadi:

- a) xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan;
- b) xizmat qilish muddatidan qat'iy nazar bir birligi (komplekti)ning qiymati (sotib olish vaqtida) O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam ish haqi miqdorining ellik barobarigacha bo'lgan buyumlar. Rahbar hisobot yilda buyumlarning inventar va xo'jalik jihozlari tarkibida hisobga olinishi uchun qiymatining past chegarasini belgilash huquqiga ega.

Xizmat qilish muddati va qiymatidan qat'iy nazar inventar va xo'jalik jihozlari tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- a) maxsus asboblar va moslamalar (alohida buyurtmani tayyorlash uchun yoki ma'lum bir turdag'i buyumlarni seriyali va ommaviy ishlab chiqarish uchun mo'ljalangan maqsadli asboblar va moslamalar);
- b) maxsus va sanitar buyumlar, maxsus poyafzal;
- v) yotoq jihozlari;
- g) kanselyariya jihozlari (kalkulyatorlar, stol jihozlari va h.k.);
- d) oshxona va ovqatlanish xonasi jihozlari shuningdek, ovqatlanish xonasi choyshablari;
- e) xarajatlari, ularni qurish, qurilish-montaj ishlari tannarxiga olib boriladigan vaqtinchalik (titulsiz inshootlar) qurilma va moslamalar;
- j) foydalanish muddati bir yildan kam bo'lgan almashtiriladigan uskunalar;
- z) ov qurollari (ko'kan, qopqon, to'rlar va h.k.).

Korxonalar mustaqil ravishda inventarlar, asboblar va xo'jalik jihozlarni hisobga oluvchi schyotlarni ularning moliyaviy-xo'jalik

faoliyatidagi o'rni va roliga qarab ochishlari mumkin. Ularning qiymati foydalanishga berilgan vaqtida ishlab chiqarish yoki davr xarajatlariga to'liq qo'shilishi mumkin. Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlarining saqlanishini ta'minlash maqsadida keyinchalik ularning hisobi balansdan tashqari 014 "Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari" schyotida sex, ombor va alohida foydalanuvchilar bo'yicha yuritiladi.

Inventar va xo'jalik jihozlari keyinchalik foydalanishga yaroqsiz holga kelgan hollarda ularni balansdan tashqari schyotdan hisobdan chiqarish belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan hisobdan chiqarish dalolatnomasiga asosan amalga oshiriladi.

1090 "Boshqa materiallar" schyotida yuqorida keltirilgan schyotlarda nazarda tutilmagan materialarning mavjudligi va harakati hisobga olinadi. Bu yerda ishlab chiqarish chiqindilari (qirqimlar, qirindi va sh.k.); tuzatib bo'lmaydigan yaroqsiz mahsulotlar; asosiy vositalarning chiqib ketishidan olingan moddiy qiymatliklar (metallolom, yaroqsiz xom ashyo, eskirgan shinalar, kameralar, yaroqsiz rezina, ishlatalilgan moy, nigrol va h.k.) hisobga olinadi.

Materiallarning kelib tushishi 1510 "Materialarni tayyorlash va xarid qilish" va 1610 "Materiallar qiymatidagi farqlar" schyotlaridan foydalanilgan holda (agar bu korxonaning hisob schyotida belgilangan bo'lsa) yoki ushbu schyotlardan foydalanilmagan holda aks ettirilishi mumkin.

Materiallarni ishlab chiqarishga yoki boshqa xo'jalik maqsadlariga haqiqatda sarflanishi (1000) materiallarni hisobga oluvchi schyotlarning kreditida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Materiallarni chetga sotish (1000) materiallarni hisobga oluvchi schyotlarning krediti va 9220 "Boshqa aktivlarning chiqib ketishi" schyotining debetida aks ettiriladi.

Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000)ning analitik hisobi saqlanish joylari va ularning alohida nomlari (turlari, naylari, hajmlari va boshqalar) bo'yicha yuritiladi.

Materiallarni hisobga oluvchi schyotlar (1000)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mol yetkazib beruvchilardan materiallar olindi	1010-1090	6010
2	Asosiy vositalarni tugatish natijasida kelib tushgan materiallarning qiymati	1090	9210
3	Ta'sischilardan ularning ulushi hisobidan turli xil materiallarning kelib tushishi	1010-1090	4610
4	Ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan materiallarning kelib tushishi	1010-1090	6110, 6120
5	Boshqa shaxslardan materiallarning tekinga olinishi	1010-1090	8530
6	Materiallar kirim qilingandan keyin aniqlangan yaroqsizlik (defekt) bo'yicha mol yetkazib beruvchiga bildirilgan da'vo	4860	1010-1090
7	Transport-tayyorlov xarajatlarining materiallar tannarxiga kiritilishi	1010-1090	1510
8	Yaroqsiz mahsulotdan qolgan materiallarning kirim qilinishi	1090	2610
9	Materiallarning haqiqiy tannarxi bo'yicha kirim qilinishi (1500 schyot qo'llanilganda)	1010-1090	1510
10	O'zida ishlab chiqarilgan materiallarning kirim qilinishi	1010-1090	2310
11	To'lovi inkor etilgan oldin bildirilgan da'vo summasining hisobdan chiqarilishi	1010-1090	4860
12	Asosiy, yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga materiallarning chiqarilishi	2010, 2310, 2510, 2710	1010-1090

13	Ma'muriy ehtiyojlar uchun materiallarning berilishi	9420	1010-1090
14	Yaroqsiz mahsulotni tuzatish uchun materiallarning sarflanishi	2610	1010-1090
15	Mahsulotlarni sotish uchun idishlarning sarflanishi	9410	1060
16	Chetga chiqib ketayotgan materiallarning qiymatini hisobdan chiqarish	9220	1010-1090
17	Tabiiy ofat natijasida yo'qotilgan materiallarning hisobdan chiqarilishi	9720	1010-1090
18	Inventarizatsiya natijasida materiallarning kamomadi aniqlandi	5910	1010-1090
19	Tog'-kon tayyorgarlik ishlarida foydalanilgan qurilish materiallarining hisobdan chiqarilishi	2010, 0800	1050

Berilgan:

«A» xususiy ishlab chiqarish firmasi 2021 yilning yanvar oyida 1000- «Materiallar hisobi hisobvarag'i» bo'yicha quyidagi xo'jalik jarayonlari sodir bo'lgan.

Nº	Sana	Jarayon mazmuni	Summa
1	03.01.21	Tuzilgan shartnoma va mol yetkazib beruvchi «SADAF-N» firmasining 3-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan 1400 metr material «Diogonal» qabul qilindi. Jami summasi QQS bilan Shundan material qiymati Shundan: QQS summasi	19 320 000 16 800 000 2 520 000
2	03.01.21	Tuzilgan shartnoma va mol yetkazib beruvchi «HAYOT» firmasining 10-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan 1000 m material «X/b» qabul qilindi. Jami	15 000 000

		summasi QQSsiz	
3	10.01.21	Tuzilgan shartnoma va mol yetkazib beruvchi «SADAF-N» firmasining 18-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan 800 m material «Dioganal» qabul qilindi. Jami summasi QQS bilan Shundan material qiymati Shundan: QQS summasi	11 500 000 10 000 000 1 500 000
4	13.01.21	Tuzilgan shartnoma va mol yetkazib beruvchi «BAHOR» firmasining 5-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan QQSsiz quyidagi materiallar kirim qilindi: Jami summasi Shundan Tugma 3500 dona Ip 500 dona	2 250 000 1 750 000 500 000
5	14.01.21	Tuzilgan shartnoma va mol yetkazib beruvchi «HAYOT» firmasining 35-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan 900 m material «X/b» qabul qilindi, jami summasi QQSsiz	14 400 000
7	22.01.21	Tuzilgan shartnomaga asosan va mol yetkazib beruvchi «SADAF-N» firmasining 44-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan 600 m material «Dioganal» qabul qilindi. Jami summasi QQS bilan Shundan material qiymati Shundan: QQS summasi	8 625 000 7 500 000 1 125 000
8	23.01.21	Tuzilgan shartnoma va mol yetkazib beruvchi «SADAF-N» firmasining 71-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan 1400 m material «Dioganal» qabul qilindi, Jami summasi QQS bilan Shundan material qiymati	22 540 000 19 600 000 2 940 000

		Shundan: QQS summasi	
9	25.01.21	Hisobdan chiqarish dalolotnomasiga asosan ishga yaroqsiz holga kelgan 1 dona tikuv mashinasi hisobdan chiqarish natijasida 50 kg metallom olindi va 1 kgmi 8000 so'mdan baholanib, omborga kirim qilindi.	400 000

Moddiy javobgar shaxs O.Tolipovning yanvar oyi uchun taqdim etgan hisobotiga asosan quyidagi materiallar hisobdan chiqarildi:

a) Maxsus kiyimi bosh tikish uchun :

-material «Dioganal»	3075 metr
-tugma	4920 dona
-ip	410 dona

b) Qo'lqop tikish uchun :

-Material «Dioganal»	1200 metr
-ip	100 dona

v) Erkaklar xalati tikish uchun;

-Material «X/b»	1426 metr
-tugma	2480 dona
-ip	186 dona

«A» xususiy ishlab chiqarish firmasida 1010 «Materiallar» hisobvarag'i bo'yicha 01.01.21 yilga bo'lgan holati quyidagicha:

Nº	NOMI	O'lcov birligi	Miqdori	Narxi	Summasi
1	Material «Dioganal»	m	600	11000	6 600 000
2	Material «X/b»	m	400	14000	5 600 000
3	Tugma	dona	4000	500	2000 000
4	Ip	dona	1000	1000	1000 000
	JAMI:				15200 000

1010 «Materiallar» hisobvarag'i bo'yicha quyidagi analitik schyotlar ochilgan

1011- Material «Dioganal»

1012- Material «X/b»

1013- Tugma

1014-Ip

Kirim qilingan xom ashyo va materiallarni jami summasini quyidagi jadval asosida aniqlang

Sana	Miqdori	Summasi QQSsiz	Narxi QQSsiz	QQS summasi	QQS bilan jami summasi
Material «Dioganal»					
02.01	1400	16800000	12000	2 520 000	19320000
10.01	800	10000000	12500	1 500 000	11500000
22.01	600	7500000	12500	1 125 000	8625000
23.01	1400	19600000	14000	2 940 000	22540000
Jumi	4200	53900000		8085000	61985000
Material «X/b»					
03.01	1000	15000000	15000	0	15000000
14.01	900	14400000	16000	0	14400000
Jumi	1900	29400000			29400000
Tugma	3500	1750000	500		1750000
Ip	500	500000	1000		500000
Xummasi		85550000		8085000	93635000

Xo'jalik jarayonlariga asosan quyidagi shaklda buxgalteriya yozuvlari qiling.

№	Jarayon mazmuni	PROVODKA		SUMMA
		K-t	D-t	
1	Mol yetkazib beruvchilardan olingan material «Dioganal» omborga kirim qilindi. Materiallar qiymatiga			

	QQS summasiga	4411	6010	8085000
2	Mol yetkazib beruvchilardan olingan material «X/b» omborga kirim qilindi.	1012	6010	29400000
3	Mol yetkazib beruvchilardan olingan tugma omborga kirim qilindi.	1013	6010	1750000
4	Mol yetkazib beruvchilardan olingan ip omborga kirim qilindi.	1014	6010	500000
5	Metallom omborga kirim qilindi	1090	9210	400000

Hisobdan chiqarilgan material «Dioganal» va «X/b» materiallarini o‘rtaga qiymat usuli bilan summasini aniqlang.

1. Dioganal

Mazmuni	mikdori	Narxi	Summa
01.01.21 ga qoldiq	600	11000	6600000
02.01kungi kirim	1400	12000	16800000
10.01 kungi kirim	800	12500	10000000
22.01 kungi kirim	600	12500	7500000
23.01 kungi kirim	1400	14000	19600000
Jami	4800	12604	60500000
Chiqim	4275	12604	53882100
Qoldiq	525	12606	6617900

2. X/b

Mazmuni	mikdori	Narxi	Summa
01.01.21 ga qoldiq	400	14000	5600000
03.01kungi kirim	1000	15000	15000000
14.01 kungi kirim	900	16000	14400000
Jami	2300	15217	35000000
Chiqim	1426	15217	21699442
Qoldiq		15218	13300558

Yuqoridagi operatsiyalarga buxgalteriya provodkalarini bering.

№	Jarayon mazmuni	Provodka		Summa
		Dt	Kt	
1	Maxsus kiyim tikish uchun sarflandi: -material "Diogonal" 3075 metr -tugma 4920 dona -ip berildi 410 dona	2011 2011 2011	1011 1013 1014	38757300 2460000 410000
2	Qo'lqop tikish uchun sarflandi: -material "Diogonal" 1200 metr -ip 100 dona	2012 2012	1011 1014	15124800 100000
3	Erkaklar xalati tikish uchun sarflandi: - material "X/b" 1426 metr - tugma 2480 dona - ip 186 dona	2013 2013 2013	1012 1013 1014	21699442 1240000 186000

Jurnal-order № 10

1010 schyot kreditidan schyotlar debetiga

Kredit	Debetlanuvchi schyotlar					
	2011	2012	2013			Jami
1011	38757300	15124800				53882100
1012			21699442			21699442
1013	2460000		1240000			3700000
1014	410000	100000	186000			696000
Jami	41627300	15224800	23125442	0	0	0 79977542

Vedomost № 10 a

1010 schyot debetiga schyotlar
kreditidan

01.01.21

y qoldiq

15200000

Debet	Kreditlanuvchi schyotlar					
	6010	9210				jami
1011	53900000					53900000
1012	29400000					29400000
1013	1750000					1750000
1014	500000					500000
1090		400000				400000
jami	85 550 000	400 000				85950000

01.02.21 y

qoldiq

21172458

Materiallar harakati to'g'risida hisobot. Schyot 1010

2021 yil yanvar oyi

№	Materiallar nomi	O'lchov birligi	Hisobot davri boshiga qoldiq		Kirim		Chiqim		Hisobot davn oxiriga qoldiq	
			Miq-dori	Summasi	Miq-dori	Summasi	Miq-dori	Summasi	Miq-dori	Summasi
1	Material «Diagonal»	metr	600	6600000	4200	53900000	4275	53882100	525	66179 00
2	Material «X/b»	metr	400	5600000	1900	29400000	1426	21699442	874	13300 551
3	Tugma	dona	4000	2000 000	3500	1750000	7400	3700000	100	50000
4	Ip	dona	1000	1000 000	500	500000	696	696000	804	80400 0
	JAMI			15200000		85550000		79977542		20771 451

Materiallar harakati to‘g‘risida hisobot. Schyot 1090

2021 yil yanvar oyи

№	Material -lar nomi	O‘l- chov birlig i	Hisobot davri boshiga qoldiq		Kirim		Chiqim		Hisobot davri oxiriga qoldiq	
			Miq - dori	Summasi	Miq- dori	Summasi	Miq - dori	Summasi	Miq- dori	Summa si
1	Metallo m	kg			50	400000			50	400000
	JAMI					400000		0		400000

MAVZU: MEHNATGA HAQ TO‘LASH BO‘YICHA XODIMLAR BILAN HISOB-KITOBLAR

Topshiriq:

- 1) Quyida berilgan «Shtatlar jadvali» ga muvofiq 2021 yilni yanvar oyiga uchun ish haqi hisoblang va buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
- 2) Ishlayotgan xodimlar uchun hisoblangan ish haqidan daromad solig‘ini hisoblang va ularga buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
- 3) Ish haqi bo‘yicha oy oxiriga qarz qoldig‘i summasini aniqlang.
- 4) 10-jurnal order va vedomostni tuzing.

Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlarni hisobga oluvchi schyotlar (6700)

Korxona ro‘yxatida bo‘lgan va ro‘yxatda turmagan xodimlarga mehnatga haq to‘lash (mehnat haqining hamma turlari, mukofotlar, yordam, ishlaydigan pensiya oluvchilarga hisoblangan pensiya va boshqa to‘lovlar) bo‘yicha joriy qarzlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar”;

6720 “Deponentlangan ish haqi”.

6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar” schyotining kredit tomonida mehnat haqi, ijtimoiy sug‘urta bo‘yicha nafaqalar, pensiyalar va boshqa shu kabi summalar aks ettiriladi. 6710 “Mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisoblashishlar” schyotining debet tomonida hisoblangan mehnat haqini to‘lash va undan ushlanmalar aks ettiriladi.

Har yilgi va qo‘srimcha ta’til bo‘yicha summalarini hisoblashda ushbu summalar mehnat haqi jamg‘armasiga joriy oyga to‘g‘ri keladigan ta’til kunlari summasi miqdorida kiritiladi. Ta’tilning bir qismi keyingi oyga o‘tgan hollarda, ushbu kunlar uchun xodimlarga to‘langan

summalar joriy oyda berilgan bo'nak summasi kabi aks ettiriladi va 4290 "Xodimlarga berilgan boshqa bo'naklar" schyotining debetida va 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari" schyotining kreditida ko'rsatiladi.

6720 "Deponentlangan ish haqi" schyotida xodimlarning olinmagan ish haqi bo'yicha qarzları aks ettiriladi.

6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisoblashishlar" va 6720 "Deponentlangan ish haqi" schyotları bo'yicha analitik hisob korxonaning har bir xodimi bo'yicha alohida yuritiladi.

Mehnat haqi bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar (6700)ning boshqa schyotlar bilan bog'lanishi.

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Kapital qo'yilmalar sohasida band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblandi	0810-0890	6710
2	TMZ larni tayyorlash va sotib olish muomalalari bo'yicha mehnat haqi hisoblandi	1010-1120, 2910-2990	6710
3	TMZ larni tayyorlash va sotib olish muomalalari bo'yicha mehnat haqi hisoblandi (1510 schyoti qo'llanganda)	1510	6710
4	Asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlabchiqarish sexlari, yaroqsiz mahsulotni to'g'irlash va xizmat mehnat haqi summalarini hisoblandi	2010, 2310, 2510, 2610, 2710	6710
5	Mahsulot sotishda, boshqaruv va boshqa muomalalarda band bo'lgan xodimlarga mehnat haqi hisoblandi	9410-9430	6710
6	Kelgusi davr xarajatlariga kiritiladigan ishlar uchun mehnat haqi hisoblandi (mavsumiy tarmoqlarda va boshqalar)	3190	6710

7	Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish jarayonlari bo'yicha hisoblangan mehnat haqi	9210	6710
8	Ortiqcha to'langan summalar (mehnat haqi va hokazolar) kassaga qaytarildi	5010	6710
9	Tabiiy ofatlar, yong'inlarni bartaraf qilish bilan bog'liq bo'lgan ishchilarga mehnat haqi hisoblandi	9720	6710
10	Xodimlarga bir martalik mukofot hisoblandi	9430	6710
11	Mahsulot, ish, xizmatlar qiymati korxona ishchilaridan ushlab qolindi	6710	4790
12	Xodimlarga hisoblangan summalar kassadan to'landi (mehnat haqi, mukofotlar va hokazo)	6710	5010
13	Hisobdor shaxslarning qaytarmagan bo'nak summalari ushlab qolindi	6710	4220-4290
14	Aksiyalarga obuna bo'yicha majburiyatlar qoplandi	6710	4610
15	Kreditga sotib olingan tovarlar uchun hisob-kitoblar bo'yicha navbatdag'i to'lovlar ishchilardan ushlab qolindi	6710	4710
16	Aybdor ishchilarning mehnat haqi summasidan yetkazilgan moddiy zararlar summasi ushlab qolindi	6710	4730

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 30 dekabrdagi O'RQ-599 sonli Qonuni bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi Soliq kodeksining 371-374-moddalarida jismoniy shaxslarning mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlariga quyidagilar kiritilgan.

Ish beruvchi bilan mehnatga oid munosabatlarda bo'lgan va tuzilgan mehnat shartnomasiga (kontraktiga) muvofiq ishlarni bajarayotgan xodimlarga hisoblanadigan hamda to'lanadigan quyidagi

Darcha to'lovlar mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar deb e'tirof etiladi:

mehnatga haq to'lashning qabul qilingan shakllari va tizimlariga muvofiq ishbay narxlardan, tarif stavkalaridan va mansab maoshlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan, haqiqatda bajarilgan ish uchun hisoblangan ish haqi;

ilmiy daraja va faxriy unvon uchun ustamalar;

Soliq kodeksining 372-moddasiga muvofiq rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar;

Soliq kodeksining 373-moddasiga muvofiq kompensatsiya to'lovleri (kompensatsiya);

Soliq kodeksining 374-moddasiga muvofiq ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash.

haqiqatda bajarilgan ish uchun haq hisoblangan boshqa to'lovlar.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar jumlasiga quyidagilar ham kiradi:

predmeti ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatishdan iborat bo'lgan, tuzilgan fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalarga muvofiq jismoniy shaxslarga to'lovlar (bundan yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan olingen daromadlar mustasno);

yuridik shaxsning boshqaruvi organi (kuzatuv kengashi yoki boshqa shunga o'xshash organi) a'zolariga yuridik shaxsning o'zi tomonidan amalga oshiriladigan to'lovlar;

O'zbekiston Respublikasining Mudofaa, Ichki ishlar va hujayrlodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati, O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat xavfsizlik xizmatining, harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining va boshqa harbiy xizmat nazarda tutilgan idoralar xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar.

Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar

Rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- 1) yillik ish yakunlari bo‘yicha pul mukofoti;
- 2) yuridik shaxsning mukofotlash to‘g‘risidagi nizomida nazarda tutilgan rag‘batlantirish xususiyatiga ega to‘lovlar;
- 3) kasb mahorati, murabbiylit uchun tarif stavkalariga va maoshlarga ustamalar;
- 4) ta’tilga qo‘srimcha haqlar hamda Soliq kodeksi 377-moddasining 10-bandida ko‘rsatilmagan moddiy yordam;
- 5) ko‘p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va to‘lovlar;
- 6) ratsionalizatorlik taklifi uchun to‘lov;
- 7) mehnat natijalari bilan bog‘liq bo‘lmagan bir yo‘la beriladigan mukofotlar.

Kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiya)

Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadga kiritiladigan kompensatsiya to‘lovleri (kompensatsiyalar) jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) tabiiy-iqlim sharoitlari noqulay bo‘lgan joylardagi ishlar bilan bog‘liq qo‘srimcha to‘lovlari (ish stoji uchun ustamalar, baland tog‘li, cho‘l va suvsiz hududlarda ishlaganlik uchun belgilangan koeffitsientlar bo‘yicha to‘lovlari). Bunda yuridik shaxslar xodimlarining cho‘l va suvsiz joylarda, baland tog‘li va tabiiy-iqlim sharoiti noqulay hududlarda ishlaganlik uchun ish haqiga koeffitsientlar hisoblashning eng yuqori summasini aniqlash hisoblash sanasida belgilangan mehnatga haq to‘lash eng kam miqdorining 1,41 baravari miqdorida belgilanadi;

2) O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan kasblari va ishlar ro‘yxati bo‘yicha og‘ir, zararli, o‘ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, shu jumladan shunday sharoitlardagi uzluksiz ish stoji uchun ish haqiga ustamalar;

3) texnologik jarayon jadvalida nazarda tutilgan tungi vaqtida, ish vaqtidan tashqari, dam olish kunlarida va bayram (ishlanmaydigan) kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamalar va qo‘srimcha to‘lovlari;

4) ko'p smenali rejimda ishlaganlik, shuningdek bir necha kasbda, lavozimda ishlaganlik, xizmat ko'rsatish doirasi kengayganligi, bajariladigan ishlar hajmi ortganligi, o'zining asosiy ishi bilan bir qatorda ishda vaqtincha bo'lman xodimlarning vazifalarini bajarganlik uchun ustamalar;

5) doimiy ishi yo'lda kechadigan, harakatlanish va (yoki) qatnov tusiga ega bo'lgan xodimlarning, shuningdek doimiy ishi ishlarning vuxta usulida bajarilishini nazarda tutadigan xodimlarning ish haqiga qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha to'lanadigan ustamalar;

6) ish beruvchi joylashgan yerdan (yig'ilish punktidan) ishslash joyigacha borish va u yerdan qaytish uchun vaxtada ishslash jadvalida nazarda tutilgan ishlar vaxta usulida bajarilgan holda yo'lga ketadigan kunlar, shuningdek xodimlar meteorologik sharoitlar sababli va transport tashkilotlarining aybi bilan yo'lda ushlanib qolgan kunlar uchun tarif stavkasi yoki maosh miqdorida to'lanadigan summalar;

7) yer osti ishlarida doimiy band bo'lgan xodimlarga ularning stavoldan ishslash joyiga borish va u yerdan qaytish uchun shaxtada (konda) harakatlanishining me'yoriy vaqtini uchun to'lanadigan qo'shimcha haqlar;

8) qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha dala ta'minoti;

9) xizmat safarlari vaqtida qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha kundalik xarajatlar uchun haq (sutkalik pullar);

10) ishlar vaxta usulida tashkil etilganda, ish vaqtini umumlashtirilgan holda hisobga olinayotganda va qonun hujjatlarida belgilangan boshqa hollarda xodimlarga ish vaqtining belgilangan davomiyligidan ortiq ishlaganligi munosabati bilan beriladigan dam olish kunlari (otgullar) uchun to'lovlar;

11) xizmat safarlari uchun xodimning shaxsiy avtomobilidan yoki xizmat maqsadlari uchun uning boshqa mol-mulkidan qonun hujjatlarida belgilangan normalardan ortiqcha foydalanganlik uchun to'lovlar;

12) mehnatda mayib bo'lganlik yoki sog'liqqa boshqacha tarzda shikast yetganlik bilan bog'liq zararning o'rmini qoplash uchun Soliq

kodeksi 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha olingan summalar;

13) oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymati yoki oziq-ovqat va yo'l chiptalarining qiymatini qoplash.

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash

Ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) qonun hujjatlariغا muvofiq:

a) yillik asosiy (uzaytirilgan asosiy) ta'til uchun to'lov, shuningdek ushbu ta'tildan foydalanimaganda, shu jumladan xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganda pullik kompensatsiya to'lovi;

b) noqulay va o'ziga xos mehnat sharoitlarida, shuningdek og'ir va noqulay tabiiy-iqlim sharoitlarida ishlaganligi uchun ayrim tarmoqlarning xodimlariga beriladigan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

v) o'qish bilan bog'liq ta'til va ijodiy ta'tillar uchun to'lov;

g) o'n ikki yoshga to'Imagan ikki va undan ortiq bolasi yoki o'n olti yoshga to'Imagan nogironligi bo'lgan bolasi bor ayollarga berilgan qo'shimcha ta'til uchun to'lov;

2) asosiy ish haqi qisman saqlab qolning holda majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlarga beriladigan to'lovlari;

3) donor xodimlarga ko'rikdan o'tish, qon topshirish va qon topshirilgan har bir kundan keyin beriladigan dam olish kunlari uchun to'lov;

4) O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga muvofiq davlat yoki jamoat vazifalarini bajarganlik uchun mehnatga to'lov;

5) qishloq xo'jaligi va boshqa ishlarga jalb qilinadigan xodimlarning asosiy ish joyi bo'yicha saqlab qolinadigan ish haqi;

6) ma'lum muddatga avvalgi ish joyi bo'yicha lavozim maoshi miqdori saqlab qolning holda boshqa yuridik shaxslardan ishga joylashtirilgan, shuningdek vaqtinchalik vazifani bajarib turgan xodimlarga maoshdagi farq to'lovi;

7) xodimlarga kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimida ishdan ajralgan holda o'qishlari vaqtida asosiy ish joyi bo'yicha ularga to'lanadigan ish haqi;

- 8) xodimning aybisiz bekor turib qolingan vaqt uchun to‘lov;
- 9) mehnat layoqatini vaqtincha yo‘qotgan xodimlarga qo‘sishimcha to‘lov;
- 10) qonun hujjatlariga muvofiq yoki ish beruvchining qarori bilan majburiy progul vaqtি uchun yoki kam haq to‘lanadigan ishni bajarganlik uchun to‘lov;
- 11) o’n sakkiz yoshga to‘limgan shaxslarning imtiyozli o‘atlariga, onalarga bolani ovqatlantirishi uchun ishda beriladigan tanaffuslarga, shuningdek tibbiy ko‘rikdan o‘tish bilan bog‘liq vaqt uchun to‘lov;
- 12) asosiy ishidan ozod qilingan va ozod qilinmagan holda xodimlar tayyorlash, ularni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish uchun hamda o‘quvchilar va talabalarning ishlab chiqarish amaliyotiga rahbarlik qilish uchun jalb qilinadigan yuqori malakali xodimlari mehnatiga to‘lov;
- 13) ish beruvchining mablag‘lari hisobidan to‘lanadigan pensiyalar va nafaqlarga qo‘sishchalar, stipendiyalar;
- 14) oliv o‘quv yurtini tamomlagandan keyin yosh mutaxassislarga ta’til vaqtি uchun ish beruvchi hisobidan to‘lanadigan mufaqqalar.

Soliq kodeksining o’n uchinchi bo‘limiga muvofiq, jismoniy shaxslarning mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlariga jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i undiriladi.

Soliq kodeksining 381-moddasida O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliq stavkalari quyidagicha belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi rezidenti bo‘lgan jismoniy shaxsning daromadlariga, agar Soliq kodeksi 381-moddasining ikkinchi qismida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo‘lsa, 12 foizlik soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

Dividendlar va foizlar tarzidagi daromadlarga 5 foizlik soliq stavkasi bo‘yicha soliq solinadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 26 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining 2019 yilgi asosiy makroiqtisodiy

ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari hamda 2020-2021 yillarga byudjet mo'ljallari to'g'risida"gi PQ-4086 sonli qarorida, belgilangan stavkadan kelib chiqib hisoblangan va O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o'tkaziladigan har oylik majburiy badallar summasiga kamaytirilishi, ushu badal miqdori jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i solinadigan daromadlaridan 0,1 foiz miqdorida hisoblab chiqarilishi belgilab qo'yildi.

Berilgan:

«A» xususiy ishlab chiqarish firmasining «Shtatlar jadvali» da ish haqi miqdori quyidagicha belgilangan.

Nº	Lavozimi	Familiya va ismi	Summa
Korxonani boshqarub xodimlari			
1	Boshliq	B.Komilov	1 500 000
2	Buxgalter	A.Raximov	1 200 000
3	Omborchi	O.Tolipov	1 000 000
JAMI			3 700 000
4	Sex boshligi	N.Kamolov	1 200 000
Jami			1 200 000
Maxsus kiyim bosh tikuvchi ishchilar			
5	Tikuvchi	S.Soliyeva	900 000
6	Tikuvchi	O.Xakmova	900 000
7	Tikuvchi	F.Zufarova	900 000
8	Tikuvchi	F.Olimova	900 000
9	Tikuvchi	K.Boqiyeva	900 000
10	Tikuvchi	K.G'aniyeva	900 000
11	Tikuvchi	L.Marufova	900 000
12	Tikuvchi	N.Karimova	900 000
13	Tikuvchi	Sh.Karimova	900 000
14	Tikuvchi	N.Komilova	900 000
15	Tikuvchi	B.Bozorova	900 000

	JAMI		9 900 000
Qo‘lqop tikuvchi ishchilar			
16	Tikuvchi	R.G‘oziyeva	800 000
17	Tikuvchi	F.Sidiqova	800 000
18	Tikuvchi	N.Ochilova	800 000
19	Tikuvchi	B.Oxunova	800 000
	JAMI		3 200 000
Erkaklar xalati tikuvchi ishchilar			
20	Tikuvchi	K.Uzokova	800 000
21	Tikuvchi	G.G‘ulomova	800 000
22	Tikuvchi	D.Salimova	800 000
23	Tikuvchi	M.Umarova	800 000
24	Tikuvchi	M.To‘rayeva	800 000
	JAMI		4 000 000
	HAMMASI		22 000 000

Eslatma: Omborchi O.Tolipovni arizasiga ko‘ra farzandi Farg‘ona Davlat universitetida ta‘lim olayotganligi sababli har oyda ish haqidan 800 000 so‘m, Tikuvchi O.Xakmova ipoteka krediti orqali uy-joy olganligi sababli har oyda arzasiga asosan 700 000 so‘m ish haqidan to‘lov amalga oshiriladi. Yakka taribdagi uy-joyning qiymati uch yuz million so‘mdan oshmagan hamda u ipoteka krediti bo‘yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun byudjetdan ajratilgan subsidiyalar hisobga olgan.

2021 yilni 6 yanvar kuni korxona xodimlariga ish haqi berildi, ish haqi ularning plastik kartalariga o‘tkazib berildi.

Quyidagi shakldan foydalanib 2021 yil yanvar oyi uchun ish haqi hisoblang.

FIO	Lavozi mi	01.01.21 y holatiga qoldiq	Hisob- langan ish haqi	Ushlandi		Qo‘lga tegishi lozim bo‘lga n summ a	Yanvar oyida berilgan ish haqi	01.02.21 y holatiga qoldiq	0.1 % SHJ BPJ ga to‘lo v
				Daramad solig ‘i	Boshqa ushlan -malar				
B Komilov	Boshliq	1222926	1 500 000	1800 00		13200 00	1222926	1320000	1500
A Raximov	Buxgalt er	996426	1 200 000	1440 00		10560 00	996426	1056000	1200
O Tolipov	Omborc	117918	1 000	2400	80000	17600	117918	176000	200

		hi		000	0	0	0			
	JAMI			3 700	348	80000	2 552			
			2337270	000	000	0	000	2337270	2552000	2900
4	N.Kamolov	Sex boshl		1 200	1440			10560	996426	1056000
			996426	000	00		00	996426	1056000	1200
	JAMI			1 200	144			1 056	996426	1056000
			996426	000	000		000	996426	1056000	1200
5	S.Soliyeva	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
6	O.Xakmova	Tikuvchi	125918	900 000	2400	70000	0	17600	125918	176000
7	F.Zufarova	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
8	F.Olimova	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
9	K.Boqiyeva	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
10	K.G'aniyeva	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
11	L.Marufova	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
12	N.Karimova	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
13	Sh.Karimova	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
14	N.Komilova	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
15	B.Bozorova	Tikuvchi	769926	900 000	1080			79200	769926	792000
	JAMI		7825178	9 900	1 104		700	8 096	7825178	8096000
				000	000		000	000		200
16	R.G'oziyeva	Tikuvchi	688918	800 000	9600			70400	688918	704000
17	F.Sidiqova	Tikuvchi	688918	800 000	9600			70400	688918	704000
18	N.Ochilova	Tikuvchi	688918	800 000	9600			70400	688918	704000
19	B.Oxunova	Tikuvchi	688918	800 000	9600			70400	688918	704000
	JAMI		2755672	3 200	384			2 816	2755672	2816000
				000	000		000	000		200
20	K.Uzokova	Tikuvchi	688918	800 000	9600			70400	688918	704000
21	G.G'ulomova	Tikuvchi	688918	800 000	9600			70400	688918	704000
22	D.Salimov	Tikuvchi	688918	800 000	9600			70400	688918	704000

	a	i		0		0			
M.Umarov	Tikuvchi	i	800 000 688918	9600 0		70400 0	688918	704000	800
M.To'rayev	Tikuvchi	i	800 000 694426	9600 0		70400 0	694426	704000	800
JAMI			4 000 3450098	480 000		3 520 000	3450098	3520000	4 000
HAMMASI			22000 000 17364644	2 460 000 0	1 500 00 0	18 040 000 4	1736464 4	1804000 0	20 500

Yuqoridagi ma'lumotlarga asoslanib quyidagi shaklga buxgalteriya yozuvlarini qiling

Sana	Jarayon mazmuni	PROVODKA		SUMMA
		D-t	K-t	
06.01.21	Ishchi va xizmatchilarga 2020 yil dekabr oyi uchun ish haqi berildi.	6710	5110	17364644
30.01.21	Boshqaruv apparati xodimlariga ish haqi hisoblandi.	9420	6710	3700000
	Sex apparati xodimlariga ish haqi hisoblandi.	2510	6710	1200000
	Ishchilarga ish haqi hisoblandi, jami Shu jumladan: -Maxsus kiyim tikuvchi ishchilarga -Qo'lqop tikuvchi ishchilarga -Erkaklar xalati tikuvchi ishchilarga	2010 2011 2012 2013	6710 6710 6710 6710	17100000 9900000 3200000 4000000
	Ishchilardan ushlab qolindi: O.Tolipovdan O.Xakmovadan	6710 6710	6990 6990	800000 700000

	Yanvar oyi uchun ish haqidan ushlandi				
	- Daromad soligi	6710	6412	2460000	
	- 0.1% SHJPJ	6412	6522	20500	

10-jurnal order va vedomost.

6710-schyot debeti bo'yicha

K-t D-t	5110	6412	6990	6526	Jami
6710	17364644	2460000	1500000		21324644
Jami	17364644	2460000	1500000		21324644

6710-schyot krediti bo'yicha
17364644

01.01.21 qoldiq

D-t K-t	9420	2510	2011	2012	2013	Jami
6710	3700000	1200000	9900000	3200000	400000	22000000
Jami	3700000	1200000	9900000	3200000	400000	22000000

01.02.21 qoldiq 18040000

Davlat maqsadli jamg‘armalariga majburiy ajratmalar

Sug‘urta va maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500)

Korxona mulki va xodimlarini sug‘urta qilish, davlat ijtimoiy sug‘urtasi, korxona xodimlarining nafaqa ta’minoti va tibbiy sug‘urtasi, maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar, shuningdek, uchinchi shaxslar mulkiy manfaatlariga keltirilgan zararlar uchun fuqarolik javobgarligini sug‘urta qilish bo‘yicha qarzlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6510 “Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar”;

6520 “Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar”.

6510 “Sug‘urta bo‘yicha to‘lovlar” schyoti korxonaning mulki va xodimini sug‘ortalash bo‘yicha qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

6520 “Maqsadli davlat jamg‘armalariga to‘lovlar” schyoti maqsadli davlat jamg‘armalari oldidagi ajratmalar bo‘yicha qarzlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni umumlashtirish uchun mo‘ljallangan.

Sug‘urta to‘lovleri va maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar bo‘yicha qarz summalarini sug‘urta va maqsadli davlat jamg‘armalari bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500)ning kredit tomonida surajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Sug‘urta to‘lovleri va maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar bo‘yicha qarz summalarining to‘lanishi sug‘urta va maqsadli davlat jamg‘armalari bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500)ning debet tomonida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

Sug‘urta va maqsadli davlat jamg‘armalari bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500) bo‘yicha analitik hisob sug‘urtachilar va alohida sug‘urta shartnomalari, shuningdek korxona to‘lovchi deb hisoblangan har bir maqsadli davlat jamg‘armalari bo‘yicha alohida yuritiladi.

Sug‘urta va maqsadli davlat jamg‘armalari bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6500)ning boshqa schyotlar bilan bog‘lanishi

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Kapital qo‘yilmalar bilan bog‘liq sug‘urta to‘lovlari bo‘yicha qarz summalarini	0810-0890	6510
2	Sug‘urta bo‘yicha hisoblangan to‘lovlari korxona xarajatlariga o‘tkazildi	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	6510
3	Hisoblangan sug‘urta to‘lovlari summasi bankdagি schyotlardan to‘landi	6510	5110-5530
4	Korxona xodimi hisobidan maqsadli Davlat jamg‘armalariga ajratmalar qilindi	6710	6520
5	Korxona xodimi hisobidan maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar qilindi	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	6520
6	Maqsadli davlat jamg‘armalariga ilgari hisoblangan summalar o‘tkazib berildi	6520	5110-5530

Soliq kodeksining 402-409-moddalarida ijtimoiy soliqni hisoblash va to‘lash tartibi belgilangan.

Ish beruvchining xodimlar mehnatiga haq to‘lashga doir xarajatlari ijtimoiy soliqning soliq solish obyektidir.

O‘zbekiston Respublikasi hududida ishslash uchun chet ellik xodimlar bilan ta‘minlash yuzasidan xizmatlar ko‘rsatishga doir shartnomalar bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi norezidenti bo‘lgan

yuridik shaxsga to'lanadigan chet ellik xodimlarning daromadlari ham soliq solish obyektiidir.

Quyidagilar soliq solish obyekti hisoblanmaydi:

ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki qo'shiliga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zararning o'rnini qoplash tarzidagi, Soliq kodeksi 369-moddasi ikkinchi qismining 10-bandida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari;

paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariga julk qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlari.

Jismoniy shaxslarning ayrim toifalari uchun ular tomonidan tadbirkorlik faoliyatini va (yoki) yakka tartibdagi mehnat faoliyatini amilga oshirish soliq solish obyektiidir.

Soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi Soliq kodeksining 371-moddasiga muvofiq to'lanadigan xarajatlar summasi sifatida amqlanadi.

Soliq stavkalari, agar Soliq kodeksining 408-moddasida boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Soliq to'lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1.	Soliq to'lovchilar, bundan 2 — 4-bandlarda nazarda tutilganlar mustasno	12
2.	Byudjet tashkilotlari	25
3.	«SOS — O'zbekiston Bolalar mahallalari» uyushmalari	7
4.	Ixtisoslashtirilgan sexlar, uchastkalar va korxonalarda ishlovchi nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanuvchi soliq to'lovchilar	4,7

Soliq to'lovchilarning ayrim toifalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan pasaytirilgan soliq stavkalarini belgilanishi mumkin.

Berilgan:

Davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalar bo'yicha quyidagicha schyotlar yuritiladi:

6521- ijtimoiy soliq

6522- SHJBPJga majburiy to'lov

6523- Fuqarolarning byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari.

Korxonaning 2021 yil 1 yanvar holatiga davlat maqsadli jamg'armalariga quyidagicha qarz qoldig'i bo'lgan. 6500 schyot bo'yicha jami qarz 3 327 325 so'm, jumladan:

1. Ijtimoiy soliqdan 3 300 000 so'm

2. SHJBPJdan 27 325 so'm

Ijtimoiy soliqni quyidagi jadval asosida aniqlang

Xarajat turi	Hisoblangan ish haqi	Ijtimoiy soliq stavkasi	Ijtimoiy soliq summasi
Boshqaruv apparati xodimlariga hisoblangan ish haqi	3700000	12	444000
Sex boshlig'iga hisoblangan ish haqi	1200000	12	144000
Maxsus kiyim bosh tikuvchi ishchilarga hisoblangan ish haqi	9900000	12	1188000
Qo'lqop tikuvchi ishchilarga hisoblangan ish haqi	3200000	12	384000
Erkaklar xalati tikuvchi ishchilarga hisoblangan ish haqi	4000000	12	480000
Jami	22 000 000		2640000

Yuqoridagi malumotlarga asoslanib quyidagi shaklga buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.

Sana	Jaryon mazmuni	PROVODKA		SUMMA
		D-t	K-t	
31.01.21	Boshqaruv apparati xodimlarini ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq hisoblandi	9420	6521	444000
31.01.21	Sex boshlig'i ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq hisoblandi	2510	6521	144000
31.01.21	Maxsus kiyim bosh tikuvchi ishchilarni ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq hisoblandi	2011	6521	1188000
31.01.21	Qo'lqop tikuvchi ishchilarni ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq hisoblandi	2012	6521	384000
31.01.21	Erkaklar xalati tikuvchi ishchilarni ish haqiga nisbatan ijtimoiy soliq hisoblandi	2013	6521	480000
23.01.21	Ijtimoiy soliq o'tkazildi	6521	5110	3300000
06.01.21	SHJBPJ ga to'lov o'tkazildi	6522	5110	27325
31.01.21	SHJBPJ ga to'lov hisoblandi	6412	6522	20500

10-jurnal order va vedomost.

6500-schyot debeti bo'yicha

K-t D-t	5110				Jami
6521	3300000				3300000
6522	27325				27325
Jami	3327325				3327325

6500-schyot krediti bo'yicha

01.01.21 qoldiq

3327325 so'm

D-t K-t	9420	2510	2011	2012	2013	6412	Jami
6521	444000	144000	1188000	384000	480000		2640000
6522						20500	20500
Jami	444000	144000	1188000	384000	480000	20500	2660500

01.02.21 qoldiq 2660500

NTIR

--	--	--	--	--	--	--

varaq

0	1
---	---

Hujjal turi

	/	
--	---	--

Hisobot davri

--

oy

Soliq davri

2	0	2	1
---	---	---	---

Hujjal turi: 1 – ma'lumotlar, 2 – aniqlashtiruvchi (kasr orqali aniqlashtiruv raqami)

**Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy soliq to'lovchisi
to'g'risida
MA'LUMOTLAR**

Xurjalik yurituvchi sub'ektning to'liq nomi _____ "A" xususiy korxonasi _____

Hisobot davrida o'rtacha xodimlar soni _____ 24 nafar,
shundan usosiy bo'lmagan ish joyi bo'yicha _____ nafar

Davlat ro'yxatidan o'tkazilganlik to'g'risida guvohnoma № _____ 00001 _____

Yuridik shaxsnинг joylashgan yeri Farg'ona shahar Farg'ona ko'chasi 10-uy
Pochta manzili _____Telefon:

9	9	8	9	9
kod				

 raqam

9	9	9	9	9	9	9

Hisobotni taqdim etish muddati (kun/oy/yil)

1	5		
0	2		
2	0	2	1

Farg'ona shahar DSI _____ ga taqdim etiladi.

(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organi)

Mazkur Hisob-kitobda ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligi va to'liqligini tasdiqlayman: <p>Rahbar</p> <p>STIR <table border="1"> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> </table></p> <p>F.I.SH. _____</p> <p>Imzo _____</p> <p>Bosh buxgalter</p> <p>STIR <table border="1"> <tr><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td><td> </td></tr> </table></p> <p>F.I.SH. _____</p> <p>Imzo _____</p> <p>Sana <table border="1"> <tr><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td></tr> </table> (kk/oo/yy)</p>																					Davlat soliq xizmati organi xodimi tomonidan to'ldiriladi <p>Mazkur Hisob-kitob (kerakligiga «V» belgisi qo'yilsin)</p> <p><input type="checkbox"/> shaxsan <input type="checkbox"/> pochta orqali</p> <p><table border="1"> <tr><td> </td><td> </td><td> </td></tr> </table> varaqda taqdim etilgan</p> <p>Taqdim etilgan sana <table border="1"> <tr><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td></tr> <tr><td> </td><td> </td></tr> </table> (kk/oo/yy)</p> <p>F.I.SH. _____</p> <p>Imzo _____</p>									

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i
va ijtimoiy soliq
HISOB-KITOBI

(yil boshidan o'sib horuvchi tartib bilan to'ldiriladi)

(so'mda)

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Hisoblangan daromad summasi	Ijtimoiy soliq			Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	SHJBPHga hisoblangan majburiy (ixtiyoriy) badallar summasi
			Jami	Umumbel-gilangan stavka bo'yicha	Boshqa stavkalar bo'yicha		
1	2	3	4	5	6	7	8
Hisoblangan daromadlarning umumiyligi summasi (011-satr + 0111-satr + 012-satr + 013-satr)	010	22 000 000	x	x	x	x	x
shundan:							
Mehnatga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan daromadlar (O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 371-moddasi) (Hisob-kitobga 5-ilovaning 9-ustuni)	011	22 000 000	22000000	22 000 000		x	x
shundan, hisobot davrida hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar (Hisob-kitobga 5-ilovaning 10-ustuni)	0110	22 000 000	22 000 000	22 000 000		x	x
O'zbekiston Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish shartnomasiga muvofiq yuridik shaxs O'zbekiston Respublikasi	0111				x	x	x

012	012	x	x	x	x	x	x
0121	0121	x	x	x	x	x	x
013	013						x
020	020	x			x	x	x

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Hisoblangan daromad summasi	Ijtimoiy soliq			Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	SHJBPHga hisoblangan majburiy (ixtiyoriy) badallar summasi
			Jami	Umumbel-gilangan stavka bo'yicha	Boshqa stavkalar bo'yicha		
1	2	3	4	5	6	7	8
Jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari (Misob-kitobga 2-ilovaning 010-satri)	030	x	x	x	x	1500000	x
Soliq bazasi	040	x	22000000	22000000		20500000	x
Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ijtimoiy soliq va SHJBPHga badallar stavkasi, %	050	x	x	12		12	0,1
Hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i, ijtimoiy soliq va SHJBPHga badallar summasi (040 satr x 050 satr)	060	x	2640000	2640000		2460000	20500
Filiallar va (yoki) alohida bo'linmalar hamda yuridik shaxsning bosh ofisi tomonidan kamaytiriladigan ijtimoiy soliq va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi**	061	x					x
Hisobot davri uchun qo'shimcha hisoblangan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i summasi	070	x	x	x	x		x

(Biroq-kitobga 3- iloscum 070-satr)							
SHJBPHga ijtimoiy to'langan ba'dal summasi	080	x	x	x	x	x	
hisobot ba'setda to'lanishi bo'zim bo'lgan jismony shaxshidun aloqadigan daromad solig'i, ijtimoiy soliq va SHJBPHga filiallar summasi 061-satr - 061-satr 070-satr + 080- satr	090	x	2640000	2640000		2439500	20500

* 061-satrda tasdiqlovchi hujatlar mayjud bo'lganda chet ellik xodimlarga to'lanadigan daromadlar, biroq Respublikasi hududida ishlash uchun chet ellik xodimlarni berish bo'yicha xizmatlar ko'rsatish doir xarajatlar umumiylar summasining 90 foizidan kam bo'lmagan miqdorda ko'rsatiladi.

** 061-satr O'zbekiston Respublikasining yuridik shaxslari bo'lgan, xodimlari 25 nafardan ortiq bo'lgan bo'linmalarga va (yoki) filiallarga ega soliq agentlari tomonidan to'ldiriladi, bundan yirik korxonalar Bunda alohida bo'linma va (yoki) filiallar tomonidan ijtimoiy soliq summasi kamaytiriladi, bosh ofis alahida bo'linma va (yoki) filiallarga tegishli bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i kamaytiriladi.

Rahbar

_____ (imzo)

Bosh buxgalter

_____ (imzo)

Jismoniy shaxslardan olinadigan
daromad solig'i va ijtimoiy soliq
hisob-kitobiga
1-ILOVA

Ijtimoiy soliq hisoblanmaydigan to'lov turlari

To'lov turlari	Satr kodi	Summa
Ijtimoiy soliq hisoblanmaydigan to'lov turlari, jami (020-satr + 030-satr)	010	
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq ijtimoiy soliq hisoblanmaydigan to'lov turlari - jami (0201 – 02..-satrlar yig'indisi) shu jumladan:	020	
ish beruvchining xodimga mehnatda mayib bo'lganligi yoki sog'ligiga boshqacha shikast yetganligi bilan bog'liq zaraming o'mini qoplash tarzidagi Soliq kodeksida ko'rsatilgan miqdorlardan ortiqcha xarajatlari	0201	
paxta yig'im-terimi bo'yicha mavsumiy qishloq xo'jaligi ishlariiga jalb qilingan jismoniy shaxslarning bu ishlarni bajarganligi uchun mehnat haqi to'lashga doir xarajatlar	0202	
	02..	
Normativ huquqiy hujjatlarga muvofiq ijtimoiy soliq hisoblanmaydigan to'lov turlari (0301 – 03...-satrlar yig'indisi) shu jumladan:	030	
	0301	
	03...	

Izoh: 0301-satr va keyingi satrlar soliq to'lovchilar tomonidan normativ huquqiy hujjatlarning tegishli bandini, sanasini, raqamini va nomini ko'rsatgan holda to'ldiriladi.

Rahbar

(imzo)

Bosh hisobchi

(imzo)

**Jismoniy shaxslardan olinadigan
daromad solig'i va ijtimoiy soliq
hisob-kitobiga
2-ILOVA**

**Jismoniy shaxslarning soliq solishdan ozod etilgan daromadlari
YoYILMASI**

(so 'm)

Ko'rsatkich nomi	Satr kodi	Imtiyozlar qo'llanilgan jismoniy shaxslar soni	Daromad summasi
Imtiyozlur summasi - jami (020-satr + 050-satr)	010	x	1500000
shu jumladan:		x	x
a) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq - jami (030-satr + 040-satr):	020	2	1500000
- O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 378-moddasi bo'yicha (bundi va imtiaz mazmuni ko'rsatiladi) (0301 - 03...-satrlar yig'indisi)	030	2	1500000
shu jumladan:		x	x
	0301		
	0302		
	0303		
	0304		
	0305		
	0306		
	0307		
	031...		
16) soliq to'lovchining O'zbekiston Respublikasining oliv o'quv yurtlarida ta'lif olish (o'zining, yigirma olti yoshga to'limgan bezondilarining yoki erining (xotinining) ta'lif olishi) uchun yo'naltirgan ish haqi va boshqa daromadlari	0315	1	800 000
16) soliq to'lovchining fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Xalq bankidagi ixtiyoriy ravishda shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga yo'naltirgan ish haqi va boshqa daromadlari	0316		
16) soliq to'lovchining olingan ipoteka kreditlarini va ular bo'yicha hisoblangan foizlarni soliq davri davomida jami o'n besh million so'ningucha bo'lgan miqdorda qoplashga yo'naltirgan ish haqi va boshqa daromadalari, basharti yakka tartibdagi uy-joyning yoki ko'p qavatlari yordagi xonardonning qiymati uch yuz million so'mdan oshmasa hamda u doshtlabki badalning va (yoki) ipoteka krediti bo'yicha foizlarning bir qismini qoplash uchun byudjetdan ajratilgan subsidiyalarni hisobga olgan	0317	1	700 000

holda olingan bo'lsa			
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 379 va 380-moddalari bo'yicha (bandi va imtiyoz mazmuni ko'rsatiladi) (0401 - 04...- satrlar yig'indisi)	040		
shu jumladan:		x	x
	0401		
	0402		
	04...		
b) boshqa normativ-huquqiy hujjalarga muvofiq - jami: (normativ-huquqiy hujjatning nomi, sanasi, raqami, shuningdek imtiyoz bandi va uning mazmuni ko'rsatiladi) (0501 - 05... -satrlar yig'indisi)	050		
shu jumladan:		x	x
	0501		
	0502		
	05...		
O'zbekiston Respublikasi norezidentlariga qo'llanilgan soliq imtiyozlari Imtiyozlar summasi - jami (0610-satr + 0620-satr)	060		x x
shu jumladan:		x	x
a) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq - jami (0611-satr + 06.. -satr):	0610		
	0611		
	0612		
	06...		
b) boshqa normativ-huquqiy hujjalarga muvofiq – jami: (normativ-huquqiy hujjatning nomi, sanasi, raqami, shuningdek imtiyoz bandi va uning mazmuni ko'rsatiladi) (0621-satr + 06..-satrlar yig'indisi)	0620		
	0621		
	0622		
	06...		

*) jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari bundan mustasno.

Rahbar

(imzo)

Bosh hisobchi

(imzo)

Izoh:

1. Ushbu rasshifrovka yil boshidan o'sib horuvchi tartibda to'ldiriladi.

2. Daromad solig'i stavkasini pasaytirish bo'yicha imtiyozni qo'llash uchun daromad summasining imtiyozli qismi ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan
daromad solig'i va ijtimoiy soliq
Hisob-kitobiga 5-ilova

HAR bir jismoniy shaxs kesimida hisoblangan mehnatga haq to'lash tarzidagi
daromadlar, mazkur daromadlar bo'yicha hisoblangan jismoniy shaxslardan
olinadigan daromad solig'i to'g'risida
MA'LUMOT

Fuchs

6. 7 va 8-ustunlarni to'ldirish majhuriy hisoblanadi, bunda yakka tartibdagi tadbirdorlar
8. 9 va 11-ustunlar yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan to'ldiriladi.
10-ustundagi jami summa hisob-kitobning 011-satriga teng bo'lishi kerak.
10-ustunda jami summa hisob-kitobning 010-satriga teng bo'lishi kerak.

Kalabur

(jmzo)

Bush bushgalter

MAVZU: UMUMISHLAB CHIQARISH VA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBI

Topshiriq:

1. Berilgan ma'lumotlarga asosan buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
2. Oldingi masalalardan ishlab chiqarishga taalluqli buxgalteriya yozuvlarini va summalarini ko'chirib olib o'ting.
- 3 Umum ishlab chiqarish xarajatlarini ish haqiga mutanosib ravishda quyidagi jadval asosida mahsulotlar o'rtasida taqsimlang.
- 4 Har bir mahsulot bo'yicha xarajatlarning analitik hisobini yuriting va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qiling.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (2500)

Korxonaning umumishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 2510 "Umumishlab chiqarish xarajatlari" schyotida amalga oshiriladi.

Ushbu schyotda umumishlab chiqarish xarakteriga ega bo'lgan xarajatlar aks ettiriladi, jumladan:

- a) mashina va uskunalarini saqlash va ulardan foydalanish bo'yicha;
- b) ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarning amortizatsiya ajratmalari bo'yicha;
- v) ishlab chiqarishga taalluqli bo'lgan asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlari;
- g) ishlab chiqarishdagi mol-mulkning sug'urta xarajatlari;
- d) ishlab chiqarish binolarini isitish, yoritish va saqlash xarajatlari;
- e) ishlab chiqarishda foydalilanildigan ishlab chiqarish binolari, mashina va uskunalar, boshqa ijara qilingan vositalar uchun ijara to'lovlar;
- j) ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan ishlab chiqarish xodimlarining mehnat haqi;
- z) ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Umumishlab chiqarish xarajatlari umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarning debetida ishlab chiqarish xixiralari, xodimlar bilan mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiladi. Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarda hisobga olingan xarajatlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish", 2110 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotlarining debetiga hisobdan chiqariladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini alohida hisob obyektlari orasida tajsiimlash tartibi korxonaning hisob siyosati orqali aniqlanadi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar bo'yicha analitik hisob korxonaning alohida bo'linmalari va xarajatlar moddalarini bo'yicha yuritiladi.

Umumishlab chiqarish xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (2500)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Umumishlabchiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalarning eskirishi	2510	0220-0299
2	Umumishlabchiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	2510	0510-0590
3	Umumishlabchiqarish maqsadlariga materiallarning sarflanishi	2510	1010-1090
4	Umumishlabchiqarish maqsadlariga sarflangan materiallar qiyamatidagi farq hisobdan chiqarildi	2510	1610
5	O'zida ishlab chiqargan yarim tayyor mahsulotlar umumishlabchiqarish maqsadlari uchun (sinovlar, tajribalar o'tkazishga) berildi	2510	2110
6	Yordamchi ishlab chiqarish xizmatlari	2510	2310

	umum- ishlabchiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarildi		
7	Kelgusi davr xarajatlari umumishlabchiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarildi	2510	3110-3190
8	O'zida tayyorlangan mahsulotlar umumishlabchiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan ehtiyojlar uchun foydalanildi	2510	2810
9	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish (energiya, suv, gaz, aloqa va hokazo) bo'yicha mol yetkazib beruvchilarning xizmatlari	2510	6010
10	Ilgari taqdim etilgan, lekin qondirilmagan da'volar summasining umumishlabchiqarish xarajatlariga hisobdan chiqarilishi	2510	4860
11	Umumishlabchiqarish xarajatlari bilan bog'liq sug'urta xarajatlari	2510	6510
12	Maqsadli davlat jamg'armalariga qilingan ajratmalar umumishlabchiqarish xarajatlariga kiritildi	2510	6520
13	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xodimlarning mehnat haqi xarajatlarining hisoblanishi	2510	6710
14	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish bo'yicha ajratilgan bo'linmalar, sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlari tomonidan amalga oshirilgan xarajatlar	2510	6110, 6120
15	Ilgari ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish uchun berilgan materiallarning ortiqchasi va qaytarilishi	1010	2510
16	Umumishlabchiqarish xarajatlarining mahsulot tannarxiga kiritilishi	2010	2510

17	Yordamchi sexlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha xarajatlarni ularning ish va xizmatlari tannarxiga kiritildi	2310	2510
18	Umumishlabchiqarish xarajatlarining bir qismi yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish xarajatlarga qo'shildi	2610	2510
19	Ishlab chiqarishga xizmat ko'rsatish xarajatlari kelgusi davr xarajatlari tarkibida aks ettirildi	3110-3190	2510
20	Umumishlabchiqarish xarajatlarining (bekor turib qolishlar va hokazolar) bir qismi javobgar shaxslar zimmasiga yuklandi	4730	2510
21	Umumishlabchiqarish xarajatlarining bir qismi (tabiiy ofat, yong'in va hokazolar sababli) zararlarga hisobdan chiqarildi	9430, 9720	2510

Berilgan:

2021 yilning yanvar oyi bank ma'lumotlariga ko'ra quyidagi xarajatlar to'lov uchun qabul qilindi.

Farg'ona issiqlik manbalari tashkilotining 30-yanvardagi hisobvaraq fakturasiga asosan xonalarni isitish hizmatlari qabul qilindi va xarajatlar hisobiga hisobdan chiqarildi, jami summasi 7061000 so'm, jumladan:

No	Bino nomi	QQSsiz qiymati	QQS	QQSbilan
1	Boshqaruvin binosi uchun	1 860 000	279000	2139000
2	Omchor binosi uchun	920 000	138000	1058000
3	Sex binosi uchun	3 360 000	504000	3864000
		6 140 000	921000	7061000

Foydalilanilgan elektr energiya xarajatlari xarajatlar hisobiga hisobdan chiqarildi, jami summasi 2654200 so'm, jumladan:

No	Bino nomi	QQSsiz qiymati	QQS	QQSbilan
1	Boshqaruv binosi uchun	328 000	49200	377200
2	Ombor binosi uchun	240 000	36000	276000
3	Sex binosi uchun	1 740 000	261000	2001000
	Jami	2 308 000	346200	2654200

Foydalilanilgan suv xarajatlari xarajatlar hisobiga hisobdan chiqarildi, jami summasi 632 500 so'm, jumladan:

No	Bino nomi	QQSsiz qiymati	QQS	QQSbilan
1	Boshqaruv binosi uchun	150 000	22500	172 500
2	Ombor binosi uchun	400 000	60000	460 000
	Jami	550 000	82500	632 500

2021 yilni yanvar oyi davomida amalga oshirilgan umumishlab chiqarish xarajatlari

Jarayon mazmuni	Summa	Schyotlar aloqasi	
		D-t	K-t
Sex boshlig'iga ish haqi hisoblandi	1200000	2510	6710
Ijtimoiy soliq hisoblandi	144000	2510	6521
Sex binosi uchun eskirish hisoblandi	200000	2510	0222
Issiqlik energiyasi uchun to'lov qabul qilindi			
-Boshqaruv binosi uchun	1860000	9420	6010
-Ombor binosi uchun	920000	9420	6010
-Sex binosi uchun	3360000	2510	6010
QQS summasiga	921000	4411	6010

Elektr energiyasi uchun to'lov qabul qilindi			
Boshqaruv binosi uchun	328000	9420	6010
Omchor binosi uchun	240000	9420	6010
Sex binosi uchun	1740000	2510	6010
QOS summasiga	346200	4411	6010
Suv resurslari uchun to'lov qabul qilindi			
Boshqaruv binosi uchun	150000	9420	6010
Sex binosi uchun	400000	2510	6010
QOS summasiga	82 500	4411	6010
Umumishlab chiqarish xarajatlari hisobdan chiqarildi			
Maksus kiyim bosh uchun	4078476	2011	2510
Oq'lqop uchun	1317228	2012	2510
Uraklar xalati uchun	1648296	2013	2510

2021 yilni yanvar oyi davomida amalga oshirilgan umumishlab chiqarish xarajatlari

Nº	Xarajat turi	Summasi
1	Hisoblangan ish haqi	1200000
2	Ijtimoiy soliq	144000
3	Sex binosining amortizatsiyasi	200000
4	Issiqlik energiyasi xarajatlari	3 360 000
5	Elektr energiyasi xarajatlari	1740000
6	Suv resurslari	400000
	Jami	7044000

Umumishlab chiqarish xarajatlari 7 044 000 so'mni mahsulot turlariga quyidagi jadval asosida ishchilarining hisoblangan ish haqiga mutanosib ravishda taqsimlang.

Tr	Mahsulot nomi	Hisoblangan ish haqi	Salmog'i	Uinum ishlab chiqarish xarajatlari
1	Maxsus kiyim bosh	9900000	57,9	4078476
2	Qo'lqop	3200000	18,7	1317228
3	Erkaklar xalati	4000000	23,4	1648296
	JAMI:	17100000	100	7044000

10-jurnal order va vedomost.

2510-schyot krediti bo'yicha

D-t K-t \	2011	2012	2013				Jami
2510	4078476	1317228	1648296				7044000
Jami	3453156	1115268	1395576				7044000

2510-schyot debeti bo'yicha -

K- t D-t \	6710	6521	0222	6010		Jami
2510	1200000	144000	200000	5500000		7044000
Jami	1200000	144000	200000	5500000		7044000

Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000)

Korxonaning asosiy faoliyat turi hisoblangan mahsulot (ish, xizmat)lar, asosiy ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotida amalga oshiriladi.

Oldindan (ijara, abonent to'lovi va h.k.) yoki keyingi davrlardagi (hisobdar summasining ortiqcha xarajatlari uchun to'lovlari va boshqalar) - korxona xarajatlari mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga ularning to'langan muddatidan qat'i nazar - qaysi davrga taalluqli bo'lsa o'sha hisobot davrida kiritiladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining debeti bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar shuningdek, yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari, asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar va yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar aks ettiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish bilan bevosita bog'liq bo'lgan to'g'ri xarajatlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga ishlab chiqarish zaxiralari, mehnatga haq to'lash bo'yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar va boshqalarni hisobga oluvchi hyotlarning kreditidan hisobdan chiqariladi.

Yordamchi ishlab chiqarish xarajatlari 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga 2310 "Yordamchi ishlab chiqarish" schyotining kreditidan hisobdan chiqariladi.

Asosiy ishlab chiqarishni boshqarish va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan egri xarajatlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga 2510 "Umumiy ishlab chiqarish xarajatlari" schyotidan hisobdan chiqariladi.

Yaroqsiz mahsulot hisobiga yo'qotishlar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotiga 2610 "Ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlar" schyotidan hisobdan chiqariladi.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining kreditida tugallangan mahsulot ishlab chiqarish, ish va xizmatlarni bajarishning haqiqiy tannarx summalarini aks ettiriladi. Ushbu summalar 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotidan 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar", 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi", 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlarning tannarxi" schyotlarining debetiga hisobdan chiqarilishi mumkin.

2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyoti bo'yicha oy oxiridagi qoldiq tugallanmagan ishlab chiqarishning tannarxini ko'rsatadi.

Analitik hisob xarajatlarning turlari va chiqarilayotgan mahsulotlarning turlari bo'yicha yuritiladi. Xarajatlarning yuzaga kelish joylari va boshqa belgilari bo'yicha guruhanishi shuningdek, kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida amalga oshiriladi. Ushbu schyotlarning tarkibi va foydalanish uslubiyatini har bir korxona o'zining ishlab chiqarish faoliyati, tuzilishi, boshqarishni tashkil etish xususiyatlariga qarab belgilaydi. Agar xarajatlarning vujudga kelish joyi va boshqa belgilari bo'yicha guruhanishi hamda kalkulyatsion hisob alohida schyotlar tizimida hisobga olinmasa, 2010 "Asosiy ishlab chiqarish" schyotining analitik hisobi ham korxonaning alohida bo'linmalari bo'yicha yuritiladi.

Asosiy ishlab chiqarishni hisobga oluvchi schyotlar (2000)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Bevosita mahsulot ishlab chiqarish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)da qatnashadigan asosiy vositalarning eskirishi	2010	0211-0299
2	Mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishga taalluqli bo'lgan nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi	2010	0510-0590
3	To'g'ri material xarajatlari mahsulot ishlab chiqarish, ish bajarish va xizmat ko'rsatishga hisobdan chiqarildi	2010	1010-1090
4	Chorvachilik mahsulotini olish uchun hayvonlarni so'yish (hayvonlar qiymati)	2010	1110, 1120
5	Materiallar qiymatidagi farq tegishli ulushlarda asosiy ishlab chiqarishga	2010	1610

	hisobdan chiqarildi		
6	O‘zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlarni qayta ishlash uchun asosiy ishlab chiqarish sexlariga chiqarish	2010	2110
7	Yordamchi sexlarning xarajatlarini asosiy ishlab chiqarishning mahsuloti va xizmatlari tannarxiga kiritish	2010	2310
8	Umumishlabchiqarish xarajatlarining asosiy ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlarining tannarxiga kiritilishi	2010	2510
9	Yaroqsiz mahsulotlar hisobiga yo‘qotishlar asosiy ishlab chiqarish mahsuloti va xizmatlarlari tannarxiga kiritildi	2010	2610
10	Ilgari kelgusi davr xarajatlari sifatida aks ettirilgan xarajatlarning tegishli ulushi mahsulot tannarxiga olib borildi	2010	3110-3190
11	Kirim qilingan tayyor mahsulotning ombordan sexlarga qayta ishlash va hokazo uchun qaytarilishi	2010	2810
12	Tovarlar qayta ishlashga berildi	2010	2910-2990
13	Ishlab chiqarish uchun bevosita sexlarga kelib tushadigan moddiy qiymatliklar va xizmatlar olindi	2010	6010
14	Qondirilmagan da’volar summasi asosiy ishlab chiqarish mahsulotlari, ish va xizmatlarining tannarxiga kiritildi	2010	4860
15	Asosiy ishlab chiqarishdagi sug‘urta xarajatlari	2010	6510
16	Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari bo‘yicha maqsadli davlat jamg‘armalariga ajratmalar	2010	6520
17	Asosiy ishlab chiqarish xodimlariga	2010	6710

	mehnat haqi to'lash bo'yicha summalar hisoblandi		
18	Hisobdor shaxslar tomonidan amalga oshirilgan asosiy ishlab chiqarish xarajatlari	2010	4220-4290, 6970
19	Asosiy ishlab chiqarish sexlariga turli korxonalarga ular tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzlar	2010	6990
20	Ajratilgan bo'linmalar, sho''ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining asosiy ishlab chiqarish ehtiyojlarga qilgan xarajatlari	2010	6110, 6120
21	Asosiy sexlarda aniqlangan tugallanmagan ishlab chiqarishning ortiqchalari kirim qilindi	2010	9390
22	Materiallarning asosiy ishlab chiqarishdan qaytarilishi; o'zida ishlab chiqarilgan materiallar, shuningdek qaytariladigan chiqindilarning kirim qilinishi	1010-1090	2010
23	Hayvonlarni o'stirish va bo'rdoqiga boqish bo'yicha joriy xarajatlarning xayvonlar tannarxiga (o'sish va ortgan vaznning) kiritilishi; hayvonlar naslining aks ettirilishi	1110, 1120	2010
24	Tugallanmagan mahsulotni qayta baholash: a) qiymatining oshirilishi b) qiymatining kamaytirilishi	2010 3290	6230 2010
25	O'zida ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulotlar operatsiyalararo omborlarga kirim qilindi (yarim tayyor mahsulot holida)	2110	2010
26	Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan to'g'rilanmaydigan yaroqsiz mahsulotdan yo'qotishlar hisobdan chiqarildi	2610	2010

27	Mahsulotni haqiqiy tannarx bo'yicha ishlab chiqarish	2810	2010
28	Savdo va ta'minot korxonalarida o'zida ishlab chiqargan tovarlarning (qayta ishlashdagi va xokazo) kirim qilinishi	2910-2990	2010
29	Asosiy sexlarda bajarilgan ish yoki ko'rsatilgan xizmatlarning sotilishi; tugallangan va buyurtmachi tomonidan qabul qilingan ishlarning bosqichlari bo'yicha xarajatlar summasining hisobdan chiqarilishi	9130	2010
30	Boshqa chiqib ketgan (tekinga berish va boshqalar) mahsulot tannarxining hisobdan chiqarilishi	9110	2010
31	Tabiiy ofatlar, yong'in va shu kabilar natijasida tugallanmagan ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar hisobdan chiqarildi	9720	2010
32	Asosiy ishlab chiqarishda aniqlangan moddiy qiymatliklarning kamomadi	5910	2010

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2006 yil 17 iyulda 1595-sod bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standarti, 4-sod BHMSda tashkilotning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan (tayyorlanadigan) tovar-moddiy zaxiralarning tannarxi deb ularning ishlab chiqarish tannarxi tan olinadi. Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxiga ularni ishlab chiqarish bilan bevosita bog'liq bo'lgan, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkil etish bilan shartlangan xarajatlar kiritiladi. Ularga quyidagilar tegishli bo'ladi: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar.

28. Tovar-moddiy zaxiralarning ishlab chiqarish tannarxini hosil qiluvchi xarajatlar ularning iqtisodiy mazmuniga ko'ra quyidagi elementlar bo'yicha guruhlarga ajratiladi:

- a) ishlab chiqarish moddiy xarajatlar (qaytariladigan chiqitlar qiymati chiqarib tashlangan holda);
- b) ishlab chiqarish xususiyatiga ega bo'lgan mehnatga haq to'lash xarajatlari, shu jumladan ular bo'yicha hisoblangan yagona ijtimoiy to'lov summalar;
- v) ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi;
- g) ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

Tovar-moddiy zaxiralar (mahsulot (ishlar, xizmatlar)) tannarxini aniqlash usullari ularning turi, mahsulot ishlab chiqarish xili, uning murakkabligi, tugallanmagan ishlab chiqarish mavjudligi, ishlab chiqarish tsiklining davomiyligi, tovar-moddiy zaxiralar nomenklaturasiga bog'liqdir. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxini aniqlashning asosiy usullari bo'lib: oddiy, me'yoriy, buyurtma, bosqichli usullar hisoblanadi, savdo tashkilotlarida esa xarajatlarni inventar baholash usuli ham qo'llaniladi.

Tannarxni aniqlashning oddiy usuli bir turdag'i mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqaradigan va yarim tayyor mahsulotlar va tugallanmagan ishlab chiqarishga ega bo'lмаган tashkilotlarda qo'llaniladi. Ushbu usul qo'llanilganda hisobot davridagi barcha ishlab chiqarish xarajatlari barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxiga kiritiladi. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi ishlab chiqarish xarajatlari summasini ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) birliklarining umumiy miqdoriga bo'lish yo'li bilan hisoblab chiqariladi.

Tannarxni aniqlashning me'yoriy usuli xom ashyo, materiallar, mehnat va ishlab chiqarish quvvatidan foydalanishning belgilangan me'yorlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishga asoslangan. Me'yornomalar vaqt-i vaqt bilan tahlil qilib turiladi va zarur hollarda joriy shart-sharoitlarga muvofiq qaytadan ko'rib chiqiladi.

Tannarxni aniqlashning buyurtma usuli ishlab chiqarish xarajatlari mahsulot (ish, xizmat) (bir xildagi mahsulotlar guruhi)ga doir alohida buyurtmalar bo'yicha identifikatsiyalanadigan va hisobga olinadigan yurka tartibdagi va mayda turkumli ishlab chiqarishga ega bo'lgan tashkilotlarda qo'llanadi. Buyurtmaning obyekti bo'lib mahsulot (ish, xizmat), bir xildagi mahsulot (ish, xizmat)ning mayda turkumlari yoki ta'mirlash, montaj va eksperimental ishlar hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayoni uzoq davom etadigan yirik mahsulotlarni tayyorlashda buyurtmalar yaxlit mahsulotga emas, balki uning tugallangan konstruksiyalarga ega bo'lgan alohida agregatlari, uzellariga berilishi mumkin.

Tannarxni aniqlashning ushbu usulida barcha xarajatlar buyurtmaning yakunlanishiga qadar to'laligicha tugallanmagan ishlab chiqarish deb hisoblanadi.

Buyurtma birligining tannarxi uning bajarilishi (mahsulot ishlab chiqarilishi, ishlar bajarilishi yoki xizmatlar ko'rsatilishi) turgallangandan keyin aniqlanadi. Buyurtma bo'yicha xarajatlarning butun summasi uning tannarxini tashkil qiladi. Agar ushbu buyurtma bir xildagi mahsulot (ishlar, xizmatlar) turkumidan iborat bo'lsa, mahsulot (ishlar, xizmatlar) birligining tannarxi mazkur buyurtma bo'yicha xarajatlar summasini mahsulot birliklari miqdoriga bo'lish orqali aniqlanadi.

Buyurtmalar qisman bajarilib, ular buyurtmachilarga topshirilganda qisman ishlab chiqarish tannarxi ularning konstruksiyalari, texnologiyalari, ishlab chiqarish shart-sharoitlaridagi o'zgarishlarni hisobga olgan holda ilgari bajarilgan buyurtmalarning tannarxi bo'yicha baholanadi.

Tannarxni aniqlashning bosqichli usuli boshlang'ich xom ashyo va materiallar ishlab chiqarish jarayonida bir qator bosqich, faza, pog'onalardan o'tadigan tashkilotlarda qo'llanadi. Ushbu usulda avval barcha mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi, so'ngra uning birligi tannarxi aniqlanadi.

Bosqichli usul tashkilotning tarmoqqa mansubligiga bog'liq holda ikki variantda amalga oshirilishi mumkin: yarim tayyor mahsulotli va yarim tayyor mahsulotsiz variantlarda.

Yarim tayyor mahsulotli variantda har bir bosqich bo'yicha mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hisoblab chiqariladi hamda u avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxi va mazkur bosqich bo'yicha xarajatlardan iborat bo'ladi. Oxirgi bosqich mahsulotining tannarxi barcha tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxi hamdir.

. Yarim tayyor mahsulotsiz variantda faqat oxirgi bosqich mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxigina hisoblab chiqariladi. Bunda xarajatlar avvalgi bosqichlar mahsuloti (ishlar, xizmatlar)ning tannarxini hisobga olmasdan, har bir bosqich bo'yicha alohida hisobga olinadi. Tayyor mahsulot (ishlar, xizmatlar) tannarxiga barcha alohida bosqichlar bo'yicha uni ishlab chiqarish xarajatlari kiritiladi.

Berilgan:

2021 yilni yanvar oyi davomida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar miqdori quyidagicha:

Maxsus kiyim bosh	-	820 dona
Qo'lqop	-	2000 juft
Xalat	-	620 dona

2021 yilni yanvar oyi davomida amalga oshirilgan asosiy ishlab chiqarish harajatlari

Jarayon mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
	Debet	Kredit	
Maxsus kiyim tikish uchun			
-material "Diogonal" 3075 metr	2011	1011	38757300
-tugma 4920 dona	2011	1013	2460000
-ip berildi 410 dona	2011	1014	410000
Qo'lqop tikish uchun			

material "Dioganal" 1200 metr	2012	1011	15124800
-ip berildi 100 dona	2012	1014	100000
Erkaklar xalati tikish uchun			
material "X/b" 1426 metr	2013	1012	21699442
tugma 2480 dona	2013	1013	1240000
-ip berildi 186 dona	2013	1014	186000
Ish haqi hisoblandi			
-maxsus kiyim tikuvchi ishchilarga	2011	6710	9900000
-qo'lqop tikuvchi ishchilarga	2012	6710	3200000
-erkaklar xalati tikuvchi ishchilarga	2013	6710	4000000
Ijtimoiy soliq hisoblandi			
-maxsus kiyim tikuvchi ishchilarni	2011	6521	1188000
ish haqiga nisbatan			
-qo'lqop tikuvchi ishchilarni ish haqiga nisbatan	2012	6521	384000
-erkaklar xalati tikuvchi ishchilarni	2013	6521	480000
ish haqiga nisbatan			
Amortizatsiya hisoblandi			
-maxsus kiyim bosh tikuvchi mashinalarga	2011	0230	275000
-qo'lqop tikuvchi mashinalarga	2012	0230	75000
-erkaklar xalati tikuvchi mashinalarga	2013	0230	125000
Sex xarajatlari taqsimlandi			
-maxsus kiyim bosh uchun	2011	2510	4078476
-qo'lqop uchun	2012	2510	1317228
-erkaklar xalati uchun	2013	2510	1648296
Tayyor mahsulot kirim qilindi			
-maxsus kiyim 820 dona	2810	2011	57068776
-qo'lqop 2000 juft	2810	2012	20201028
-erkaklar xalati 620 dona	2810	2013	29378738

Asosiy ishlab chiqarishga qilingan xarajatlarni analitik hisobini quydagi jadval orqali aniqlang.

№	Xarajat turlari	Jami xarajat		Shundan					
		miq-dori	summasi	Maxsus kiyim bosh		Qo'lqop		Erkaklar xalati	
				miq-dori	summasi	miq-dori	summasi	miq-dori	summasi
		2010		2011		2012		2013	
1	Materiallar jami:		79977542		41627300		15224800		2312544
	Shundan:								
	- "Diagonal"	427 5	53882100	3075	38757300	1200	15124800		
	- "X/b"	142 6	21699442					1426	21699442
	- tugma	740 0	3700000	4920	2460000			2480	1240000
	- ip	696	696000	410	410000	100	100000	186	186000
2	Ish haqi		17100000		9900000		3200000		4000000
3	Ijtimoiy soliq summasi		2052000		1188000		384000		480000
4	Asosiy vositalar amortizatsiyasi		475000		275000		75000		125000
5	Sex xarajatlari		7044000		4078476		1317228		1648296
	Jami xarajat		10664854 2		57068776		20201028		29378738
	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori				820		2000		620
	Mahsulot birligining haqiqiy tannarxi				69596,07		10100,51		47385,06

10-jurnal order va vedomost.

2010-schyot debeti bo'yicha

K-t	1011	1012	1013	1014	6710	6521	0230	2510	Jami
2011	38757300		2460000	41000 0	9900000	118800 0	275000	4078476	57068776
2012	15124800			10000 0	3200000	384000	75000	1317228	20201028
2013		21699442	1240000	18600 0	4000000	480000	125000	1648296	29378738
Jami	53882100	21699442	3700000	69600 0	17100000	205200 0	475000	7044000	106648542 2

2010-schyot krediti bo'yicha

K-t	2810							Jami
2011	57068776							57068776
2012	20201028							20201028
2013	29378738							29378738
Jami	106648542							106648542

Mahsulot birligi tannarxini aniqlash hisob-kitobi.

Maxsus kiyim bosh
dona

820

Xarajat Turi	JAMI Xarajat		1 dona mahsulot tannarxi	
	Miqdor	Summa	miqdor	Summa
Materiallar jami:		41627300		50765,00
Shundan:				
-“Dioganal”	3075	38757300	3,75	47265,00
-tugma	4920	2460000	6	3000,00
-ip	410	410000	0,5	500,00
Ish haqi		9900000		12073,17
Ijtimoiy soliq		1188000		1448,78
Asosiy vositalar amortizatsiyasi		275000		335,37
Sex xarajatlari		4078476		4973,75
Jami xarajat		57068776		69596,07

Qo‘lqop

2000 juft

Xarajat Turi	JAMI Xarajat		1 dona mahsulot tannarxi	
	Miqdor	Summa	miqdor	Summa
Materiallar jami:		15224800		7612,4
Shundan:				
-“Dioganal”	1200	15124800	0,60	7562,40
-ip	100	100000	0,05	50,00
Ish haqi		3200000		1600,00
Ijtimoiy soliq		384000		192,00
Asosiy vositalar		75000		37,50

Amortizatsiyasi				
Sex xarajatlari		1317228		658,61
Jami xarajat		20201028		10100,51

Erikaklar xalati
620 dona

Xarajat Turi	JAMI Xarajat		1 dona mahsulot tannarxi	
	Miqdor	Summa	miqdor	Summa
Materiallar jami:		23125442		37299,10
Shundan:				
"X/b"	1426	21699442	2,30	34999,10
tugma	2480	1240000	4,00	2000,00
ip	186	186000	0,30	300,00
Ish haqi		4000000		6451,61
Ijtimoiy soliq		480000		774,19
Asosiy vositalar		125000		201,61
Amortizatsiyasi				
Sex xarajatlari		1648296		2658,54
Jami xarajat		29378738		47385,06

TAYYOR MAHSULOTLAR HISOBI.

Topshiriq:

1. Yanvar oyi davomida omborga kirim qilingan tayyor mahsulotlar uchun buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
2. Berilgan jadvalga asoslanib, mahsulotlarni har bir turi bo'yicha sotilgan miqdorini va summasini aniqlang.
3. Berilgan jalvalga asoslanib sotilgan mahsulotlar haqiqiy tannarxini aniqlang.
4. Sotilgan mahsulotlar bo'yicha buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
5. Qo'shilgan qiymat solig'i hisob-kitobini tuzing.

Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar (2800)

Tayyor mahsulotlarning mayjudligi va harakati to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi.

2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar";

2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar";

2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar".

Chetga ko'rsatilgan xizmatlar va bajarilgan ishlarning qiymati tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlarda (2800) aks ettirilmaydi. Ular bo'yicha haqiqiy xarajatlar, xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlardan 9130 "Bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi" schyotiga hisobdan chiqariladi. Buyurtmachilarga joyida topshiriladigan va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmiylashtirilmagan mahsulotlar tugallanmagan ishlab chiqarish tarkibida qoladi.

2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotida tayyor mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Mazkur schyotda sotish maqsadidagi qurilish obyektlarini tannarxi bo'yicha hisobga olinadi, Qishloq xo'jaligi korxonalari o'simlikchilik mahsulotlari, chорvachilik va qayta ishlangan mahsulotlarining harakatini biznes-rejadan kelib chiqib, yil davomida prognoz tannarxi bo'yicha hisobga oladi. Yil oxirida tayyor mahsulotning haqiqiy va prognoz tannarxi o'rtasida aniqlangan farq mahsulotlar schyotiga

hisobot yili oxiridagi keltirilgan mahsulotlarning qoldig'iga taalluqli bo'lgan ulushlarda o'tkaziladi.

Sotish uchun tayyorlangan (olingan) tayyor mahsulotlar, shu jumladan, qisman korxonaning o'z ehtiyojlari uchun mo'ljallangan mahsulotlarning kirim qilinishi 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot" schyotining debetida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Xaridorlar (buyurtmachilar)ga ortib jo'natilgan tayyor mahsulotlar va ular uchun ushbu xaridor (buyurtmachi)lar tomonidan hisob-kitob bujjatlarining taqdim etilishi 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotining kreditidan sotilish tartibida 9110 "Sotilgan tayyor mahsulotlarning tannarxi" schyotining debetiga hisobdan chiqariladi.

2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotida haqiqiy ishlab chiqarish tannarxida hisobga olingan tayyor mahsulotlar, analitik hisobda alohida turdagilarning harakatini, mahsulotning haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining, uning hisob bahosi qiymatidan farqini ajratgan holda ularni hisob baho (reja tannarxida, sotish bahosida va boshqa)da aks ettirish mumkin. Bunday farqlar tayyor mahsulotning alohida muruhlari bo'yicha korxona tomonidan shakllantiriladigan hisob bahosi qiymatidan haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining farq darajasidan kelib chiqqan holda hisobga olinadi.

Tayyor mahsulotlarni 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotidan hisobdan chiqarishda haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi analitik hisobda qabul qilingan bahosi bo'yicha qiymatidan farq summasi, hisobot davri boshiga tayyor mahsulotlar qoldig'idagi farqlar va hisobot oyi mobaynida omborga kelib tushgan tayyor mahsulotlar bo'yicha farqlarning bu mahsulotlarni hisob bahosidagi qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadigan foizlar bo'yicha topiladi. Sotilgan mahsulotga to'g'ri keladigan tayyor mahsulot haqiqiy ishlab chiqarish tannarxining uning hisob bahosi bo'yicha qiymatidan farq summasi 9110 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotining kreditida va ular urtiqcha xarajat yoki tejalganlikni ko'rsatishidan kelib chiqqan holda yo'shimicha yozuv orgali tegishli schyotlarning debetida aks ettiriladi.

2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar" schyotida ko'rgazma, yarmarka, reklama va ko'rsatish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlar haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha hisobga olinadi. Bunda 2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar" schyotining debeti va 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotining krediti bo'yicha yozuvlar amalga oshiriladi. Tayyor mahsulotlar uchun javobgarlik vaqtincha bir moddiy javobgar shaxsdan boshqasiga o'tadi. Agar ko'rgazmaga, yarmarkaga va sh.k.ga qo'yilgan tayyor mahsulotlar sotilsa, u holda 2810 "Ombordagi tayyor mahsulot" schyotidagi kabi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar" schyotida komissiya va konsignatsiya shartnomalari bo'yicha ortib jo'natilgan tayyor mahsulotlar aks ettiriladi.

Boshqa korxonalarga komissiya va konsignatsiya shartlari asosida sotish uchun berilgan tayyor mahsulotlar 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyotidan 2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar" schyotining debetiga hisobdan chiqariladi. Komissiya va konsignatsiya shartlari asosida berilgan tayyor mahsulotlarni sotishda 2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar" schyoti kabi buxgalteriya yozuvlari amalga oshiriladi.

2810 "Ombordagi tayyor mahsulotlar", 2820 "Ko'rgazmadagi tayyor mahsulotlar", 2830 "Komissiyaga berilgan tayyor mahsulotlar" schyotlari bo'yicha analitik hisob javobgar shaxslar bo'yicha, turlari (sortlar, partiyalar, kiplar) bo'yicha va tayyor mahsulotni saqlash joylari bo'yicha yuritiladi.

Tayyor mahsulotlarni hisobga oluvchi schyotlar (2800)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Asosiy, yordamchi sexlardan, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklardan tayyor mahsulotlarning kirim qilinishi	2810	2010, 2310, 2710

2	Tayyor mahsulotlarni hisobning yarim tayyor usulida kirim qilish	2810	2110
3	Tayyor mahsulotlarning ko'rgazmadan omborga kirim qilinishi	2810	2820
4	Tayyor mahsulotni qayta baholash a) qiymatining oshirilishi b) qiymatining kamaytirilishi	2810 3190	6230 2810
5	Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tayyor mahsulotlar	2810	9390
6	Ichki ehtiyojlar uchun tayyor mahsulotlarning ishlatalishi, tayyor mahsulotlarning sexlarga qayta ishlov berish va boshqalar uchun qaytarilishi	2010, 2310, 2510, 2710 9410-9430	2810
7	Tayyor mahsulot omboridan mahsulotlar yaroqsiz mahsulotlarni tuzatish uchun berildi	2610	2810
8	Inventarizatsiya natijasida aniqlangan kamomad, agar aybdor shaxs aniqlanmagan bo'lsa	5910	2810
9	Kelgusi davr xarajatlari tarkibida yuritiladigan xarajatlarga tayyor mahsulotlarning ishlatalishi	3190	2810
10	Tayyor mahsulotlarning ko'rgazmaga berilishi	2820	2810
11	Sotilgan tayyor mahsulotning tannarxini hisobdan chiqarish.	9110	2810-2830
12	Tayyor mahsulotlarning moliyaviy quyilmalar (shu jumladan qimmatli qog'ozlar) hisobiga berilishi	9110	9010 2810
13	Inventarizatsiya natijasida moddiy javobgar shaxsning aybi bo'yicha kamomadning aniqlanishi	4730	2810
14	Tayyor mahsulotlarning ajratilgan	2810	6110

	bo'linmalardan kelib tushishi		
15	Tayyor mahsulotlarning ajratilgan bo'linmalarga berilishi	4110	2810-2830
16	Tayyor mahsulotlarning tekinga berilishi	9430	2810

BERILGAN:

2021 yilning yanvar oyi davomida mahsulotlarni sotish bahosi QQSsiz quyidagicha bo'lgan.

- | | | |
|-----------------------|--------|--------------|
| 1. Maxsus kiyim bosh; | donasi | 95 000 so'm. |
| 2. Qo'lqop | jufti | 14 000 so'm. |
| 3. Xalat | donasi | 62 000 so'm. |

01.01.21 yil holatiga ombordagi tayyor mahsulot qoldig'i quyidagicha bo'lgan.

Mahsulot nomi	O'Ichov birligi	Miqdori	1 dona mahsulotning haqiqiy tannarxi	Jami mahsulotning haqiqiy tannarxi
Maxsus kiyim bosh	dona	410	68312	28007920
Qo'lqop	juft	1400	10850	15190000
Xalat	dona	470	49474	23252780
				66450700

Yanvar oyi davomida quyidagi xo'jalik jarayonlari sodir bo'lgan:

2020 yilning 15 dekabrida tuzilgan 61-sonli shartnoma bo'yicha 2021 yilning 4 yanvar kuni 1-sonli hisobvaraq fakturaga asosan Farg'ona "Sabo" korxonasiga quyidagi mahsulotlar ortib jo'natildi.

Mahsulot nomi	O'Ichov birligi	Miqdori	Sotish bahosi QQSsiz	Jami summa QQSsiz	QQS summasi	Jami to'lashga bo'lgan summa
Maxsus kiyim bosh	dona	300	95000	28500000	4275000	32775000
Qo'lqop	juft	600	14000	8400000	1260000	9660000
Xalat	dona	200	62000	12400000	1860000	14260000
Jami				49300000	7395000	56695000

2020 yilning 26 dekabrida tuzilgan 62-sonli shartnoma bo'yicha
 2021 yilning 14 yanvar kuni 2-son hisobvaraq fakturaga asosan
 «Elyor» azot ishlab chiqarish birlashmasiga quyidagi mahsulotlar ortib
 jo'natildi.

Mahsulot nomi	O'Ichov birligi	Miqdori	Sotish bahosi QQSsiz	Jami summa QQSsiz	QQS summasi	Jami to'lashga bo'lган summa
Maksus hiyim bosh	dona	350	95000	33250000	4987500	38237500
Qo'lqop	juft	500	14000	7000000	1050000	8050000
Nalat	dona	400	62000	24800000	3720000	28520000
Jami				65050000	9757500	74807500

2021 yilning 8 yanvarida tuzilgan 1-sonli shartnoma bo'yicha 2021 yilning 24 yanvar kuni 3-sonli hisobvaraq fakturaga asosan «Elyor» kuzusiy firmasiga quyidagi mahsulotlar ortib jo'natildi.

30.01	40000000					40000000
Jami	177912500	25000000	196650	0	0	203109150

01.02.21 ga qoldiq 54 006 192 soʻm.

2-JURNAL ORDER.

5110-achyot kreditidan schivelde debetiga										JAMI		
Sənət	6412	6522	6710	6910	9430	5010	4413	4414	0829	6421	6411	6990
06.yanv	1048031	27325	17946644									18440000
08.yanv				34320000	179800	200000						34695800
10.yanv							471620	280000				751620
14.yanv				20550000	105250	150000						20805250
15.yanv					1100				220000			221100
16.yanv				20150000	102000							20252000
22.yanv			31165000	100000								31265000
23.yanv									3300000	27965000		31265000
31.yanv		10347700	2053988							1500000		13901688
												0
JAMI	1048031	27325	17946644	11653270	2588138	350000	471620	280000	3300000	27965000	1500000	171597458

MAVZU : MOL YETKAZIB BERUVCHI VA PUDRATCHILAR BILAN HISOB KITOBLAR HISOBI

Topshiriq:

- Berilgan malumotlarga buxgalteriya yozuvlarini oldingi masalalardan olib yozing.
- Mol yetkazib beruvchilarining har biri bo'yicha analitik hisob kartochkalariga yozuvlar qiling va oy davomidagi oborot oy oxiriga qoldiqni chiqaring.
- Mol yetkazib beruvchilar bilan hisob kitoblar bo'yicha 6 jurnal orderini to'ldiring va oy oxiriga qoldiq chiqaring.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4300)

Tovar-moddiy zaxiralari va boshqa aktivlarni yetkazib berish shuningdek, ish bajarish va xizmat ko'rsatish uchun berilgan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

4310 "TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar";

4320 "Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar";

4330 "Boshqa berilgan bo'naklar".

Berilgan bo'naklar summasi shuningdek, qisman tayyor holdagi tovarlar, ish va xizmatlar uchun to'langan summalar 4310 "TMQlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar", 4320 "Uzoq muddatli aktivlar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar", 4330 "Boshqa berilgan bo'naklar" schyotlarining debetida pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'naklar mol yetkazib beruvchilar va korxona o'tasida tuzilgan shartnoma yoki kontrakt asosida beriladi. Ayrim hollarda, qisman bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomaga bo'lishi mumkin. Bunda to'lov topshiriqnomalarida qisman to'lov miqdori yoki oldindan to'lov foizi ko'rsatiladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4300) bo'yicha analitik hisob har bir debitor bo'yicha yuritiladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4300)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash uchun naqd pulda bo'naklar berildi	4310	5010
2	Bankdagি schyotlardan bo'naklar o'tkazildi	4310-4330	5110-5530
3	Olingan kreditlar va qarzlar hisobidan bo'naklar o'tkazildi	4310-4330	6810-6820, 7810-7820
4	Kontraktning bekor qilinishi natijasida avval berilgan bo'naklar qaytarildi	5010-5530	4310-4330
5	Mol yetkazib beruvchilar yoki pudratchilarga bo'lgan qarzlarni qoplashda avval berilgan bo'naklarning hisobga olinishi	6010, 7010	4310-4330
6	Mol yetkazib beruvchilarga berilgan bo'naklarning da'vo muddati o'tganlari hisobdan chiqarildi	9430	4310-4330
7	Berilgan bo'nakning tegishli summasi uzoq muddatli qismidan joriy qismiga o'tkazildi	4310-4330	0940

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to'lanadigan schyotlar (6000)

Tovar-moddiy qiymatliklar, bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, tashish bo'yicha olingan xizmatlar uchun mol yetkazib

beruvchilar va pudratchilarga bo‘lgan joriy majburiyatlar to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar”;

6020 “Berilgan veksellar”.

Pudratchi qurilish va montaj, ilmiy-tadqiqot va shu kabi korxonalar bosh pudratchi (bosh korxona) hisoblansa, o‘z subpudratchilariga bo‘lgan majburiyatlarini ham ushbu schyotda aks ettiradi.

6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” schyoti haqiqatda kelib tushgan TMZ va boshqa aktivlar, qabul qilingan ish va xizmatlarning qiymatiga ushbu qiymatliklarni yoki tegishli xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda kreditlanadi.

Agar omborga kelib tushgan moddiy qiymatliklarning sifati, miqdori, shuningdek, bahosi shartnomada kelishilgan shartlarga mos kelmasa, 6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” schyoti 4860 “Da’volar bo‘yicha olinadigan schyotlar” schyoti bilan bog‘langan holda tegishli summaga kreditlanadi.

6010 “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir mol yetkazib beruvchi va pudratchi bo‘yicha alohida yuritiladi.

6020 “Berilgan veksellar” schyotining kreditida sotib olingan TMZ va boshqa aktivlar, qabul qilingan ish va xizmatlar uchun veksellar bilan ta’minlangan joriy majburiyatlar hisobga olinadi va ularni qoplash davrigacha hisobda turadi. Veksellar bo‘yicha majburiyatlar qoplanishiga qarab ular pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlarning kreditidan 6020 “Berilgan veksellar” va 6920 “Hisoblangan foizlar” schyotlarining debetiga hisobdan chiqariladi.

6020 “Berilgan veksellar” schyoti bo‘yicha analitik hisob berilgan veksellarning har bir turi bo‘yicha alohida yuritiladi.

Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lanadigan schyotlar (6000)ning boshqa schyotlar bilan bog‘lanishi

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mol yetkazib beruvchilardan o‘rnatiladigan asbob-uskunalar kelib tushdi	0710, 0720	6010
2	Kapital quyilmalar uchun mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning bajargan ishlari va ko‘rsatgan xizmatlari yuzasidan berilgan schyotlar to‘lovga qabul qilindi	0810-0890	6010
3	Mol yetkazib beruvchilardan materiallar kelib tushdi	1010-1090	6010
4	Mol yetkazib beruvchilardan o‘stirishga va boquvga hayvonlar kelib tushdi	1110, 1120	6010
5	Mol yetkazib beruvchilardan turli TMZ kelib tushdi (1510 schyoti qo‘llanilganda)	1510	6010
6	Mol yetkazib beruvchilardan tovar-moddiy zaxiralarni xarid qilishda hisobga olingan QQS summasi	4410	6010
7	Korxona tomonidan asosiy va yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatuvchi xo‘jalik, umumishlabchiqarish va boshqaruv ehtiyojlari uchun mol yetkazib beruvchilarning bajargan ish va xizmatlari (jumladan: energiya, gaz, bug‘, suv) qabul qilindi	2010, 2310, 2510, 2710, 9420	6010
8	Yaroqsiz mahsulotni tuzatish va	2610	6010

	kafolatli ta'mirlash bo'yicha mol yetkazib beruvchilarning ko'rsatgan xizmatlari qabul qilindi		
9	Mol yetkazib beruvchilardan kelgusi davr xarajatlariga tegishli bo'lgan ish va xizmatlar qabul qilindi	3190	6010
10	Mol yetkazib beruvchilardan tovarlar kelib tushdi	2910-2990	6010
11	Mahsulotlar, tovarlar, ish va xizmatlarni sotishda mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar ko'rsatgan ish va xizmatlar qabul qilindi	9410	6010
12	Tabiiy ofatlarni tugatish bo'yicha mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning xizmatlari qabul qilindi	9720	6010
13	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga bo'lgan qarzlar bankdagi schyotlardan to'landi	6010	5110-5530
14	Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarning schyotlarini to'lashda oldindan berilgan bo'naklarning hisobga olinishi olinishi	6010	4310-4330
15	Da'vo muddati tugagan kreditorlik qarzları hisobdan chiqarildi	6010	9360
16	Kreditorlik qarzini to'lash uchun mol yetkazib beruvchiga oddiy veksel berildi	6010	6020

BERILGAN :

- ❑ Mol yetkazib beruvchi va pudratchilar bilan hisob kitoblar bo'yicha 2021 yil 1 yanvar holatiga 6010-to'lanadigan schyotlar bo'yicha quyidagi qoldiq mavjud.

«SADAF-N» firmasidan qoldig'i	1300000 so'm qarz
«HAYOT» firmasidan qoldig'i	2400000 so'm qarz

- ❑ Yanvar oyi davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan.

02.01.21 y . «SADAF-N» firmasining 3-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan material «Diogonal» qabul qilindi. Jami summasi 19320000 so'm.

03.01.21 y . «HAYOT» firmasining 10-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan material «X/b» qabul qilindi. Jami summasi 15 000 000 so'm.

10.01.21 y . «SADAF-N» firmasining 18-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan mmaterial «Diogonal» qabul qilindi.Jami summasi 11 500 000 so'm.

10.01.21 y . 15- sonli hisobvaraq fakturaga asosan «SAMSUNG» firmasidan konditsioner sotib olindi. 6 800 000 so'm

11.01.21 y «BAHOR» firmasining 5-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan materiallar kirim qilindi: Jami summasi 2 250 000 so'm.

14.01.21 y «HAYOT» firmasining 35-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan material «X/b» qabul qilindi Jami summasi QQSsiz 14 400 000 so'm.

15.01.21 y . 44-sonli hisobvaraq fakturaga asosan «Koinot» firmasidan tikuv mashinasi sotib olindi, QQS bilan 5 750 000 000 so'm.

22.01.21 y «SADAF-N» firmasining 44-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan material «Diogonal» qabul qilindi. Jami summasi 8625000 so'm.

23.01.21 y «SADAF-N» firmasining 71-sonli hisobvaraq fakturasiga asosan material «Diogonal» qabul qilindi, Jami summasi 22 540 000 so'm.

30.01.21 y . Farg'ona issiqlik manbalari tashkilotining hisobvaraq fakturasiga asosan xonalarni isitish hizmatlari qabul qilindi, jami summasi 7 061 000 so'm.

30.01.21 y . Farg'ona elektr tarmoqlarini taqdim etgan hisobvaraq fakturasiga asosan elektr energiya xarajatlari xarajatlar hisobiga hisobdan chiqarildi, jami summasi 2 654 200 so'm.

30.01.21 y . Farg'ona suv ta'minoti korxonasinga taqdim etgan hisobvaraq fakturasiga asosan foydalanilgan suv xarajatlari xarajatlar hisobiga hisobdan chiqarildi, jami summasi 632 500 so'm.

2021 yil 08 yanvar kuni 4-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan «SADAF-N» firmasiga olingan material uchun pul o'tkazib berildi. Summasi 19320000 so'm.

2021 yil 08 yanvar kuni 5-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan «HAYOT» firmasiga olingan material uchun pul o'tkazib berildi. Summasi 15 000 000 so'm.

2021 yil 14 yanvar kuni 8-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan «SAMSUNG» firmasiga olingan konditsioner uchun pul o'tkazib berildi. Summasi 6 800 000 so'm

2021 yil 14 yanvar kuni 9-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan «SADAF-N» firmasiga olingan material uchun pul o'tkazib berildi. Summasi 11500000 so'm.

2021 yil 14 yanvar kuni 10-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan «BAHOR» firmasiga olingan material uchun pul o'tkazib berildi. Summasi 2 250 000 so'm.

2021 yil 16 yanvar kuni 12-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan «Koinot» firmasiga olingan tikuv mashinalari uchun pul o'tkazib berildi. Summasi 5750000 so'm.

2021 yil 16 yanvar kuni 13-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan «HAYOT» firmasiga olingan material uchun pul o'tkazib berildi. Summasi 14 400 000 so'm.

2021 yil 22 yanvar kuni 14-sonli to'lov topshiriqnomasiga asosan «SADAF-N» firmasiga olingan material uchun pul o'tkazib berildi. Summasi 31165000 so'm.

2021 yil 31 yanvar kuni 18-sonli to‘lov topshiriqnomasiga asosan Farg‘ona issiqlik manbaiga olingan issiqlik energiyasi uchun pul o‘tkazib berildi. Summasi 7061000 so‘m.

2021 yil 31 yanvar kuni 19-sonli to‘lov topshiriqnomasiga asosan Farg‘ona elektr tarmoqlari korxonasiiga olingan elektr energiyasi uchun pul o‘tkazib berildi. Summasi 2 654 200 so‘m.

2021 yil 31 yanvar kuni 20-sonli to‘lov topshiriqnomasiga asosan Farg‘ona suv ta’minoti korxonasiiga olingan ichimlik suvi uchun pul o‘tkazib berildi. Summasi 632500 so‘m.

Yuqoridagi operatsiyalarga buxgalteriya provodkalarini bering.

№	Operatsiya mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
		D-t	K-t	
1	«SAMSUNG» firmasidan konditsioner sotib olindi.	0820	6010	6800000
2	«Koinot» firmasidan tikuv mashinasi sotib olindi. QQS summasiga	0820 4411	6010 6010	5000000 750000
3	“Sadaf-N” firmasidan material «Diogonal» qabul qilindi. QQS summasiga	1011 4411	6010 6010	53900000 8085000
4	«HAYOT» firmasidan material «X/b» qabul qilindi.	1012	6010	29400000
5	«BAHOR» firmasidan material qabul qilindi.	1013	6010	1750000
6	«BAHOR» firmasidan material qabul qilindi.	1014	6010	500000
7	Issiqlik energiyasi uchun to‘lov qabul qilindi			
	-Boshqaruv binosi uchun	9420	6010	1860000
	-Ombor binosi uchun	9420	6010	920000
	-Sex binosi uchun	2510	6010	3360000
	QQS summasiga	4411	6010	921000

8	Elektr energiyasi uchun to'lov qabul qilindi			
	-Boshqaruv binosi uchun	9420	6010	328000
	-Ombor binosi uchun	9420	6010	240000
	-Sex binosi uchun	2510	6010	1740000
	QQS summasiga	4411	6010	346200
9	Suv resurslari uchun to'lov qabul qilindi			
	-Boshqaruv binosi uchun	9420	6010	150000
	-Sex binosi uchun	2510	6010	400000
	QQS summasiga	4411	6010	82500

Analitik hisob kartochkasi.

«Sadaf-N» korxonasi schyot 6010 № 1

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq		1300000	
1	02.01.21	material «Dioganal» qabul qilindi.		19320000	1011
2	10.01.21	material «Dioganal» qabul qilindi.		11500000	1011
3	22.01.21	material «Dioganal» qabul qilindi.		8625000	1011
4	23.01.21	material «Dioganal» qabul qilindi.		22540000	1011
5	08.01.21	olingan material uchun pul o'tkazib berildi	19320000		5110
6	14.01.21	olingan material uchun pul o'tkazib berildi	11500000		5110
7	22.01.21	olingan material uchun pul o'tkazib berildi	31165000		5110
		Oy davomidagi oborot	61985000	61985000	
		Oy oxiriga qoldiq		1300000	

«Hayot» korxonasi schyot 6010 №_2

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq		2400000	
1	03.01.21	material «X/b» qabul qilindi		15000000	1012
2	14.01.21	material «X/b» qabul qilindi		14400000	1012
3	08.01.21	olingan material uchun pul o'tkazib berildi	15000000		5110
4	16.01.21	olingan material uchun pul o'tkazib berildi	14400000		5110
		Oy davomidagi oborot	29400000	29400000	
		Oy oxiriga qoldiq		2400000	

«SAMSUNG» korxonasi schyot 6010 №_3

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq			
1	10.01.21	konditsioner sotib olindi.		6800000	0820
2	14.01.21	olingan konditsioner uchun pul o'tkazib berildi	6800000		5110
		Oy davomidagi oborot	6800000	6800000	
		Oy oxiriga qoldiq			

«BAHOR» korxonasi schyot 6010 № 4

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa- lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq			
1	11.01.21	materiallar kirim qilindi		2250000	1013/1014
2	14.01.21	olingan material uchun pul o'tkazib berildi	2250000		5110
		Oy davomidagi oborot	2250000	2250000	
		Oy oxiriga qoldiq			

«Koinot» korxonasi schyot 6010 № 5

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa- lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq			
1	15.01.21	tikuv mashinasi sotib olindi		5750000	0820/411
2	16.01.21	olingan tikuv mashinalari uchun pul o'tkazib berildi	5750000		5110
		Oy davomidagi oborot	5750000	5750000	
		Oy oxiriga qoldiq			

Farg'ona issiqlik manbai korxonasi schyot 6010 № 6

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
Oy boshiga qoldiq					
1	30.01.2 1	xonalarni isitish hizmatlari qabul qilindi		7061000	9420,25 10, 4411
2	31.01.2 1	isitish hizmatlari uchun pul o'tkazib berildi	7061000		5110
Oy davomidagi oborot					
Oy oxiriga qoldiq					

Farg'ona elektr tarmoqlari korxonasi schyot 6010
№ 7

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
Oy boshiga qoldiq					
1	30.01.2 1	elektr energiya xarajatlari to'lov uchun qabul qilindi		2654200	9420,25 10, 4411
2	31.01.2 1	olingan elektr energiyasi uchun pul o'tkazib berildi	2654200		5110
Oy davomidagi oborot					
Oy oxiriga qoldiq					

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqalar uchun schyot
Oy boshiga qoldiq					
1	30.01.2 1	Foydalanaligan ichimlik suvi to'lov uchun qabul qilindi		632500	9420,21 10, 4411
2	31.01.2 1	olingan ichimlik suvi uchun pul o'tkazib berildi	632500		5110
Oy davomidagi oborot					
Oy oxiriga qoldiq					

Mol yetkazib beruchi va pudratchilar bilan hisob-kitoblarni analitik aylanma vedomosti

№	Mol yetkazib beruvchi nomi	Oy boshiga qoldiq		Yanvar oyidagi oborot		Oy oxiriga qoldiq	
		Debet	Kredit	Debet	Kredit	Debet	Kredit
1	«Sadaf-N»		1300000	61985000	61985000		1300000
2	«Hayot»		2400000	29400000	29400000		2400000
3	«SAMSUNG»			6800000	6800000		
4	«BAHOR»			2250000	2250000		
5	«Koinot»			5750000	5750000		
6	Farg'ona issiqlik manbai			7061000	7061000		
7	Farg'ona elektr tarmoqlari			2654200	2654200		
8	Farg'ona suv ta'minoti			632500	632500		
	Jami		3700000	116532700	16532700		3700000

№	Mol yetkazib beruvchi nomi	60 (0-schyot kreditidan schyotlar debetiga)						01.01.21 ga qoldiq schyot kreditidan	6010-schyot debetiga schyotlar kreditidan		
		0820	4411	1011	1012	1013	0104	9420	2510	Jami	Jami
	“Sadaf-N”		8055000	53900000					61985000	61985000	61985000
	«HAYOT»				29400000				29400000	29400000	29400000
	«Samsung»	6800000							6800000	6800000	6800000
	«BAHOR»					1750000	5000000		2250000	2250000	2250000
	«Koinot»	5000000	720000						5750000	5750000	5750000
	FIT		921000				2780000	3360000	7061000	7061000	7061000
	FET		346200				5680000	1740000	2654200	2654200	2654200
	FST		82400				150000	400000	632500	632500	632500
	JAMI	1800000	13579600	53900000	29400000	1750000	5000000	3498000	5500000	116532700	116532700

MAVZU: XARIDOR VA BUYURTMACHILAR BILAN HISOB KITOBLAR HISOBI

TOPSHIRIQ:

- Berilgan ma'lumotlarga buxgalteriya yozuvlarini oldingi masalalardan olib yozing.
- Xaridorlarni har biri bo'yicha analitik hisob kartochkalariga yozuvlar qiling va oy davomidagi oborot hamda oy oxiriga qoldiqni toping.
- Quyidagi jadvalga asosan oy davomidagi jami oborot va oy oxiriga qoldiqni hisoblab chiqaring va 11 jurnal orderni to'ldiring.

Olinadigan schyotlar (4000)

Xaridorlar va buyurtmachilar bilan tovarlar, tayyor mahsulotlar, bajarilgan ishlар, ko'rsatilgan xizmatlar uchun debitorlik qarzлari bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar";

4020 "Olingan veksellar".

4010 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olinadigan schyotlar" schyotida sotilgan mahsulot (tovar)lar, bajarilgan ishlар va ko'rsatilgan xizmatlar uchun xaridorlar va buyurtmachilarga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlari bo'yicha debitorlik qarzлari hisobga olinadi.

4020 "Olingan veksellar" schyotida olingan veksellar bilan ta'minlangan xaridorlar va buyurtmachilar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik qarzi hisobga olinadi.

Muddatida to'lanmagan veksellar bo'yicha da'vo bildirilganda, veksellar qiymati 4020 "Olingan veksellar" schyotining kreditidan 4860 "Da'volar bo'yicha olinadigan schyotlar" schyotining debitiga hisobdan chiqariladi.

Olinadigan schyotlar (4000) asosiy (operatsion) faoliyat daromadlarini hisobga oluvchi schyotlar (9000), asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishini hisobga oluvchi schyotlar (9200) va asosiy faoliyatning boshqa daromadlarni hisobga oluvchi schyotlar

(9300) bilan bog‘langan holda xaridor (buyurtmachi)larga taqdim etilgan hisob-kitob hujjatlaridagi summaga debetlanadi.

Olinadigan schyotlar (4000) pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan kelib tushgan to‘lovlar summasiga, olingan bo‘naklarni hisobga olish va boshqalar bilan bog‘langan holda kreditlanadi.

Olinadigan schyotlar bo‘yicha analitik hisob har bir xaridor (buyurtmachi) bo‘yicha yuritiladi.

Olinadigan schyotlar (4000)ning bog‘lanishi

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Tovar, ish va xizmatlarni sotishdagi xaridorlar va buyurtmachilarning qarzları summasi	4010	9010-9030
2	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotishdagi xaridorlar va buyurtmachilarning qarzları summasi	4010	9210, 9220
3	Xaridorlar va buyurtmachilardan to‘lovlar kelib tushdi	5010-5530	4010
4	Xaridorlar va buyurtmachilarga sotilgan mahsulotlar, tovarlar, bajarilgan ish va ko‘rsatilgan xizmatlar uchun da’vo bildirildi	4860	4010
5	Xaridorlar va buyurtmachilarga sotilgan tovarlar, mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko‘rsatilgan xizmatlar bo‘yicha hisob-kitob hujjatlarini taqdim etishda olingan bo‘naklarning hisobga olinishi	6310	4010
6	Xaridorlar va buyurtmachilarning to‘lanmagan qarzlarini zararga hisobdan chiqarilishi	9430	4010
7	Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzları	4910	4010

	dargumon qarzlar bo'yicha rezervlar hisobiga hisobdan chiqarilishi		
8	Olingan veksellar bo'yicha qarzlarning qoplanishi	5010-5530	4020
9	Olingan veksellarning uzoq muddatli qismdan joriy qismga o'tkazilishi	4020	0910

Olingan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (6300)

Buyurtmachilarga qisman tayyor holdagi TMQni yetkazib berishga yoki ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish, shuningdek, aksiyaga obunachilardan olingan bo'naklar bo'yicha joriy majburiyatlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

6310 "Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar";

6320 "Aksiyaga obunachilardan olingan bo'naklar";

6390 "Boshqa olingan bo'naklar".

Korxona xaridor va buyurtmachilarga mahsulot va tovarlarni yetkazib berish, shuningdek ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish uchun ulardan bo'nak to'lovini (oldindan to'lashni) talab qilishi mumkin. Bunday holatda bo'nak TMQlarni yetkazib berish, ishlarni bajarish va xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha shartnomaning bajarilishi, hamda xaridor va buyurtmachilardan kelgusidagi to'lovlarning kelib tushishiga kafolat sifatida xizmat qiladi.

Bunday bo'naklar pul mablag'ini olgan korxona uchun mahsulot va tovarlarni yetkazib berish hamda ishlarni bajarish yoki xizmatlarni ko'rsatish amalga oshirilishiga qadar majburiyat bo'lib hisoblanadi. Olingan bo'naklarga quyidagilar misol bo'ladi: korxona tomonidan gaz, suv, yoritish va boshqa maishiy xizmatlar, shuningdek TMQ va boshqalarni yetkazib berish uchun oldindan olingan to'lovlar.

Olingan bo'nak summalarini, shuningdek, qisman tayyor holdagi mahsulot (ish, xizmat) uchun qabul qilingan to'lovlar summasi olingan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (6300)ning krediti va pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi. Buyurtmachilarga ishlar tugatib topshirilganda va xizmatlari

ko'rsatilganda shuningdek, xaridorlarga mahsulot yuklab jo'natilganda, olingan bo'naklar xaridor va buyurtmachilarning majburiyatlarini kamaytiradi va olingan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (6300)ning debeti va olinadigan schyotlar (4000) kreditiga olib boriladi.

Olingen bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (6300) bo'yicha analitik hisob har bir olingen bo'naklar turi bo'yicha alohida yuritiladi.

Olingen bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (6300)ning boshqa schyotlar bilan bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Bo'naklar olindi	5010-5530	6310-6390
2	Mahsulotlar, tovarlarni yetkazib berish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish, shuningdek asosiy vositalar va boshqa aktivlarni sotishda ilgari olingen bo'naklar hisobga olindi	6310-6390	4010
3	Ilgari olingen bo'naklar qaytarildi	6310-6390	5010-5530
4	Ilgari olingen bo'naklar bank kreditlari va boshqa korxonalarning qarzları hisobidan qaytarildi	6310-6390	6810-6840, 7810-7840
5	Da'vo bildirish muddati davomida foydalanimagan bo'nak summaları hisobdan chiqarildi	6310-6390	9390

BERILGAN:

* Xaridorlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha 01.01.21 yil holatiga quyidagi qoldiq mavjud.

- Olingen avanslar, 6310 schyot bo'yicha:
Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasidan 3 000 000 so'm.

❑ Olinadigan schyotlar, 4010 schyot bo'yicha:

Farg'ona TES korxonasidan

500 000 so'm

8

2021 yil yanvar oyi davomida quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan.

28.01.21 y . Tikuv mashinasi Farg'ona «Nargiza» firmasiga 5- sonli hisobvarak fakturaga asosan sotildi. Summasi 1150000 so'm.

04.01.21 y . 1-sonli hisobvaraq fakturaga asosan Farg'ona "Sabo" korxonasiga mahsulotlar sotildi. Summasi QQSsiz 49300000 so'm, QQS 7395000 so'm, QQS bilan 56695000 so'm.

14.01.21 y . 2-son hisobvaraq fakturaga asosan Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasiga mahsulotlar sotildi. Summasi QQSsiz 65050000 so'm, QQS 9757500 so'm, QQS bilan 74807500 so'm.

24.01.21 y . 3-sonli hisobvaraq fakturaga asosan «Elyor» xususiy firmasiga mahsulotlar sotildi. Summasi QQSsiz 18450000 so'm, QQS 2767500 so'm, QQS bilan 21217500 so'm.

28.01.21 y . 4-son hisobvaraq fakturaga asosan Farg'ona TES korxonasiga mahsulotlar sotildi. Summasi QQSsiz 52450000 so'm, QQS 7867500 so'm, QQS bilan 60317500 so'm.

07.01.21 y . 18-sonli to'lov topshiriqnomasi bilan Farg'ona "Sabo" korxonasidan olingan mahsulot uchun pul kelib tushdi. Summasi 56695000 so'm.

10.01.21 y . 59-sonli to'lov topshiriqnomasi bilan Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasidan olinadigan mahsulot uchun oldindan pul kelib tushdi. Summasi 10 000 000 so'm.

15.01.21 y . 116-sonli to'lov topshiriqnomasi bilan Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasidan olingan mahsulot uchun pul kelib tushdi. Summasi 60 000 000 so'm.

21.01.21 y . 75-sonli to'lov topshiriqnomasi bilan Farg'ona TES korxonasidan olinadigan mahsulot uchun oldindan pul kelib tushdi. Summasi 15 000 000 so'm.

28.01.21 y 5-sonli to'lov topshiriqnomasi bilan «Elyor» xususiy firmasidan olingan mahsulot uchun pul kelib tushdi. Summasi 21217500 so'm.

30.01.21 y 139-sonli to'lov topshiriqnomasi bilan Farg'ona TES korxonasidan olingan mahsulot uchun pul kelib tushdi. Summasi 40 000 000 so'm.

Yuqoridagi operatsiyalarga buxgalteriya provodkalarini bering

Tr	Operatsiya mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
		D-t	K-t	
1	Tikuv mashinasi Farg'ona «Nargiza» firmasiga sotildi	4010	9210	1000000
	QQS ga	4010	6411	150000
2	Farg'ona "Sabo" korxonasiga mahsulotlar sotildi.	4010	9010	49300000
	QQS ga	4010	6411	7395000
3	Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasiga mahsulotlar sotildi	4010	9010	65050000
	QQS ga	4010	6411	9757500
4	"Elyor" firmasiga mahsulot sotildi.	4010	9010	18450000
	QQS ga	4010	6411	2767500
5	Farg'ona TES korxonasiga mahsulotlar sotildi	4010	9010	52450000
	QQS ga	4010	6411	7867500
6	Farg'ona "Sabo" korxonasidan pul kelib tushdi	5110	4010	56695000
7	Farg'ona azot ishlab	5110	6310	10000000

	chiqarish birlashmasidan oldindan pul kelib tushli				
8	Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasidan pul kelib tushdi	5110	4010	60000000	
9	Farg'ona TES korxonasidan oldindan pul kelib tushdi	5110	6310	15000000	
10	«Elyor» xususiy firmasidan pul kelib tushdi	5110	4010	21217500	
11	Farg'ona TES korxonasidan pul kelib tushdi	5110	4010	40000000	
12	1-sonli ma'lumotnomaga asosan oldindan to'lov hisobdan chiqarildi	6310	4010	13000000	
13	2-sonli ma'lumotnomaga asosan oldindan to'lov hisobdan chiqarildi	6310	4010	15000000	

Xaridorlar bo'yicha analitik hisob ma'lumotlari.
Farg'ona «Nargiza» firmasi schyot 4010 № 1.

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa lanuvchi schyot
Oy boshiga qoldiq					
1	28.01	5- sonli hisobvarak fakturaga asosan tikuv mashinasi sotildi.	1150000		9010/641
Oy davomidagi oborot					
Oy oxiriga qoldiq					

Farg'ona "Sabo" korxonasi schyot 4010 № 2.

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq			
1	04.01	1-sonli hisobvaraq fakturaga asosan mahsulot sotildi.	56695000		9010/641 1
2	07.01	18-sonli to‘lov topshiriqnomasi bilan pul tushdi		56695000	5110
		Oy davomidagi oborot	56695000	56695000	
		Oy oxiriga qoldiq			

Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasi schyot 4010 № 3.

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq			
1	14.01	2-son hisobvaraq fakturaga asosan mahsulot sotildi.	74807500		9010/641 1
2	15.01	116-sonli to‘lov topshiriq-nomasi bilan pul tushdi		60000000	5110
3	31.01	Ma'lumotnomaga asosan oldindan to‘lov hisobdan chiqarildi		13000000	
		Oy davomidagi oborot	74807500	73000000	
		Oy oxiriga qoldiq	1807500		

Farg'ona azot ishlab chiqarish birlashmasi schyot 6310 № 3.

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq		3000000	
1	10.01	59-sonli to'lov topshiriq-nomasi bilan pul tushdi		10000000	5110
2	31.01	Ma'lumotnomaga asosan oldindan to'lov hisobdan chiqarildi	13000000		4010
		Oy davomidagi oborot	13000000	10000000	
		Oy oxiriga qoldiq			

Malumotnomma № 1.

Tr	Operatsiya mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
		D-t	K-t	
1	Farg'ona "Azot" ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan to'langan oldindan to'lov hisobdan chiqarildi	6310	4010	13000000

«Elyor» xususiy firmasi schyot 4010 № 4.

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq			
1	24.01	3-sonli hisobvaraqt fakturaga asosan	21217500		9210/641

		mahsulot sotildi.			
2	28.01	5-sonli to'lov topshiriq-nomasi bilan.		21217500	5110
		Oy davomidagi oborot	21217500	21217500	
		Oy oxiriga qoldiq			

Farg'ona TES korxonasi schyot 4010 № 5.

T/r	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq	8500000		
1	28.01	4-son hisobvaraq fakturaga asosan mahsulot sotildi.	60317500		9010/6411
2	30.01	139-sonli to'lov topshiriq-nomasi bilan pul tushdi		40000000	5110
3	31.01	Ma'lumotnomaga asosan oldindan to'lov hisobdan chiqarildi		15000000	
		Oy davomidagi oborot	60317500	55000000	
		Oy oxiriga qoldiq	13817500		

Farg'ona TES korxonasi schyot 6310 № 5.

Tr	Sana	Jarayon mazmuni	Debet	Kredit	Aloqa-lanuvchi schyot
		Oy boshiga qoldiq			
1	21.01	75-sonli to'lov topshiriq-nomasi bilan oldindan to'lov kelib tushdi.		15000000	5110

2	31.01	Ma'lumotnomaga asosan oldindan to'lov hisobdan chiqarildi	15000000		4010
		Oy davomidagi oborot			
		Oy oxiriga qoldiq			

Malumotnomma № 2.

Tr	Operatsiya mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
		D-t	K-t	
1	Farg'ona TES korxonasi tomonidan to'langan oldindan to'lov hisobdan chiqarildi	6310	4010	15000000

11-JURNAL-ORDER.

Kt Dt	2810	9210	6411	9010	4010	6310	Jami
4010		10000 00	2793750 0	18525000 0			2141875 00
5110					17791250 0	2500000 0	2029125 00
6310					28000000		2800000 0
9110	138403 063						1384030 63
JAMI	138403 063	10000 00	2793750 0	18525000 0	20591250 0	2500000 0	5835010 63

Oborot vedomost

Schyot 4010

Tr	Xaridorlar nomi	01.01.21 ga qoldiq		Oy davomidagi oborot		01.02.21 ga qoldiq.	
		D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
1	«Nargiza»			1150000		1150000	
2	“Sabo”			56695000	56695000		
3	“Azot”			74807500	73000000	1807500	

4	«Elyor»			21217500	21217500		
5	Farg'ona TES	8500000		60317500	55000000	13817500	
	JAMI	8500000		214187500	205912500	16775000	

Oborot vedomost

Schyot 6310

Fr	Xaridorlar nomi	01.01.21 ga qoldiq		Oy davomidagi oborot		01.02.21 ga qoldiq.	
		D-t	K-t	D-t	K-t	D-t	K-t
1	“Azot”		3000000	13000000	10000000		
2	Farg'ona TES			15000000	15000000		
	JAMI		3000000	28000000	25000000		

MAVZU: HISOBDOR SHAXSLAR BILAN HISOB-KITOBLAR HISOBI

TOPSHIRIQ:

- Berilgan malumotlarga asoslanib buxgalteriya yozuvlarini amalga oshiring.
- Hisobdor shaxslar bilan hisob kitoblar bo'yicha 7-jurnal-orderni to'ldirning.

Turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900)

Turli kreditorlar bilan muomalalari bo'yicha qarzlar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 6910 "To'lanadigan operativ ijara";
 - 6920 "Hisoblangan foizlar";
 - 6930 "Royalti bo'yicha qarzlar";
 - 6940 "Kafolatlar bo'yicha qarzlar";
 - 6950 "Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi";
 - 6960 "Da'volar bo'yicha to'lanadigan schyotlar";
 - 6970 "Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar";
 - 6990 "Boshqa majburiyatlar".
- 6910 "To'lanadigan operativ ijara" schyotida korxonaning operativ ijara bo'yicha ijaraga beruvchi oldidagi majburiyati aks ettiriladi. Hisoblangan ijara summasi 6910 "To'lanadigan operativ ijara" schyotining kredit tomonida, ijaraga beruvchiga to'langan summa esa ushbu schyotning debet tomonida aks ettiriladi.

6910 "To'lanadigan operativ ijara" schyoti bo'yicha analitik hisob har bir operativ ijara shartnomasi bo'yicha alohida yuritiladi.

6920 "Hisoblangan foizlar" schyotida kreditorlar tomonidan berilgan qarzlar va kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar aks ettiriladi. To'lanishi lozim bo'lgan foizlar bo'yicha hisoblangan summalar 6920 "Hisoblangan foizlar" schyotining kreditida, foizlar bo'yicha qarzlarni to'lash esa ushbu schyotning debetida aks ettiriladi.

6920 “Hisoblangan foizlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kreditor bo‘yicha alohida yuritiladi.

6930 “Royalti bo‘yicha qarzlar” schyotida korxonaning boshqa ko‘jalik yurituvchi subyektlardan foydalanish uchun aktivlarning olinishi natijasida vujudga kelgan royalti to‘lovlari bo‘yicha korxonaning majburiyatlari hisobga olinadi. Royalti bo‘yicha hisoblangan qarzlar 6930 “Royalti bo‘yicha qarzlar” schyotining kredit tomonida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

6930 “Royalti bo‘yicha qarzlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob har bir kreditor bo‘yicha alohida yuritiladi.

6940 “Kafolatlar bo‘yicha qarzlar” schyotida korxonaning sotilgan mahsulotlarga kafolatli xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xaridorlar oldidagi majburiyatlari aks ettiriladi. Agar korxona mahsulotini sotish vaqtida xaridorga kafolatli muddat bersa, ushbu majburiyat butun kafolat muddati davomida mavjud bo‘ladi. Kafolat summasi mahsulot sotish amalga oshirilgan davrda xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlarning debetida aks ettiriladi. Korxona o‘z tajribasidan kelib chiqqan holda, kelgusi davrlarga beriladigan kafolat summasi qanchaga to‘g‘ri kelishi, ya‘ni tovar yoki xizmatning bir birligiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha xizmat qiymatini hisoblab chiqishi va ushbu summani 6940 “Kafolatlar bo‘yicha qarzlar” schyotining kredit tomonida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettirishi mumkin.

6940 “Kafolatlar bo‘yicha qarzlar” schyoti bo‘yicha analitik hisob kafolat bilan sotilgan xar bir mahsulot, ish va xizmatlarning turlari bo‘yicha alohida yuritiladi.

6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi” schyotida mazkur hisobot davrida to‘lanishi lozim bo‘lgan uzoq muddatli qarz majburiyatlarining joriy qismi aks ettiriladi. Uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismga o‘tkazilganda 6950 “Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi” schyoti to‘lanadigan summaga uzoq muddatli majburiyatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda kreditlanadi va uzoq muddatli majburiyatlarning boshlang‘ich summasini kamaytiradi.

SHuningdek ushbu schyotda moliyaviy ijara bo'yicha ijaraga beruvchi oldidagi uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi ham aks ettirladi.

6950 "Uzoq muddatli majburiyatlar - joriy qismi" schyoti bo'yicha analitik hisob uzoq muddatli majburiyatlarning turlari, qaytarilish muddatlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi hududidagi va uning tashqarisidagi uzoq muddatli majburiyatlarni ajratgan holda, alohida yuritiladi.

6960 "Da'volar bo'yicha to'lanadigan schyotlar" schyoti xaridorlar, buyurtmachilar va boshqa korxonalar tomonidan bildirilgan da'volar, shuningdek tan olingen (yoki e'tirof etilgan) jarimalar, penyalar va neustoykalar bo'yicha korxonaning qarzi to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan. Da'volar asosan shartnomalari majburiyatlarini bajarmaganlikdan kelib chiqib, 6960 "Da'volar bo'yicha to'lanadigan schyotlar" schyotining kreditida xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog'langan holda aks ettiriladi.

6960 "Da'volar bo'yicha to'lanadigan schyotlar" schyoti bo'yicha analitik hisob har bir kreditor va da'vo bo'yicha alohida yuritiladi.

6970 "Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar" schyoti korxona ishchilariga ma'muriy-xo'jalik va operatsion xarajatlar, shuningdek xizmat safarlari uchun berilgan hisobdorlik summalarini bilan haqiqiy sarflangan summalarini o'rtasidagi farq natijasida kelib chiqadigan qarzlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun mo'ljallangan.

Agar sarflangan summa hisobdorlik bo'yicha berilgan summadan oshsa, korxonaning hisobdor shaxs oldida qarzi vujudga keladi va ushbu summa 6970 "Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar" schyotining kreditida tomonida ko'rsatiladi.

6970 "Hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar" schyoti bo'yicha analitik hisob har bir hisobdor shaxslar bo'yicha alohida yuritiladi.

6990 "Boshqa majburiyatlar" schyoti turli notijorat muomalalari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslar (o'quv yurtlari, ilmiy korxonalar va sh.k.) oldidagi sud organlarining ijroya hujjatlari yoki qarorlari asosida korxona ishchilarining mehnat haqidan turli korxona va alohida

shaxslar foydasiga ushlab qolningan summalar bo'yicha korxonaning joriy majburiyatları aks ettiriladi.

6990 "Boshqa majburiyatlar" schyoti bo'yicha analitik hisob boshqa majburiyatlarning har bir turi bo'yicha alohida yuritiladi.

Turli kreditorlarga bo'lgan qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6900)ning boshqa schyotlar bilan bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Operativ ijara bo'yicha foiz hisoblandi	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar	6910
2	Operativ ijara bo'yicha qarz to'landi	6910	5010-5530
3	Moliyaviy ijara bo'yicha foiz hisoblandi	9610	6920
4	Qarzlar bo'yicha foizlar hisoblandi	9610	6920
5	Qarzlar bo'yicha hisoblangan foizlar to'landi	6920	5110-5530
6	Royalti hisoblandi	9690	6930
7	Hisoblangan royalti to'landi	6930	5110-5530
8	Kafolatli xizmat bo'yicha qarz hisoblandi	9430	6940
9	Kafolatli xizmat bo'yicha haqiqiy xarajatlar hisobdan chiqarildi	6940	Xarajatlarni hisobga oluvchi schyotlar
10	Uzoq muddatli majburiyatlar joriy qismga o'tkazildi	7810-7920	6950
11	Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi bo'yicha to'langan summa	6950	5110-5530
12	Tan olingan da'volar (xatolar)	9430	6960

	yo'ldagi kamomad, mahsulot sifatining muvofiq kelmasligi va hokazolar) bo'yicha qarzlar hisoblandi		
13	TMZ lardagi arifmetik xatolardan kelib chiqqan da'volar bo'yicha qarzlar (hisob-kitob hujjatlaridagidan haqiqatda kam yetkazib berilganda) hisoblandi	1010-2990	6960
14	Shartnoma majburiyatlariga rioya qilmaganlik uchun jarimalar, penyalar, neustoykalar summalari bo'yicha qarzlar (tan olingan yoki arbitraj tomonidan e'tirof etilgan xajmda) hisoblandi	9430	6960
15	Asosiy ishlab chiqarish, yordamchi ishlab chiqarish, umumishlabchiqarish va boshqaruv ehtiyojlari, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklarga taalluqli xarajatlarni amalga oshirganligi uchun hisobdor shaxslarga qarzlar hisoblandi	2010, 2310, 2510, 2710, 9420	6970
16	Yaroqsiz mahsulot bilan bog'liq bo'lган turli xarajatlar (qaytarib olib kelish va hokazo) to'lovi uchun hisobdor shaxslarga qarzlar hisoblandi	2610	6970
17	Sotib olingan tovarlar uchun hisobdor shaxslarga bo'lган qarzlar hisoblandi	2910-2990	6970
18	Mahsulotni sotish bilan bog'liq bo'lган (transport va boshqa) xarajatlarni amalga oshirganligi uchun hisobdor shaxslarga bo'lган	9410	6970

	qarzlar hisoblandi		
19	Tabiiy ofatlarning oldini olish yoki bartaraf qilish bilan bog'liq bo'lgan turli xarajatlarning to'lovi uchun hisobdor shaxslarga bo'lgan qarzlar hisoblandi	9720	6970
20	kapital qo'yilmalarda turli korxonalar xizmatlar ko'rsatdi	0810-0890	6990
21	Turli korxona va shaxslardan turli TMZ sotib olindi va har xil xizmatlar qabul qilindi	1510	6990
22	Turli korxonalar asosiy, yordamchi, umumishlabchiqarish xizmat ko'rsatish xizmatlari ko'rsatishdi	2010, 2310, 2510, 2710	6990
23	Yaroqsiz mahsulotni tuzatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar bo'yicha iste'molchilarga bo'lgan qarz	2610	6990
24	Boshqa shaxslardan tovarlar kelib tushdi	2910-2990	6990
25	Asosiy vositalarni hisobdan chiqarishda ko'rsatgan xizmatlari uchun boshqa korxonalarga bo'lgan qarz	9210	6990
26	Boshqa shaxslardan pul ekvivalentlari kelib tushdi	5610	6990
27	Boshqa shaxslardan o'tkazmalar kelib tushdi	5710	6990
28	Boshqa shaxslardan qimmatli qog'ozlar sotib olindi	0610, 5810	6990
29	Turli korxonalarning ijtimoiy soha obyektlarini saqlash bo'yicha ko'rsatgan xizmatlari hisoblandi	2710	6990

30	Sotib olingen aksiyalarni saqlaganligi uchun depozitariyga bo'lgan qarz hisoblandi	9690	6990
----	--	------	------

Xodimlarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4200)

Korxona xodimlariga mehnat haqi bo'yicha, operatsion ma'muriy-xo'jalik xarajatlari uchun hisobdorlik asosida shuningdek, xizmat safarlari uchun berilgan bo'naklar bo'yicha hisob-kitoblar to'g'risidagi axborotlarni umumlashtirish quyidagi schyotlarda amalga oshiriladi:

- 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar";
- 4220 "Xizmat safarlariga berilgan bo'naklar";
- 4230 "Umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar";
- 4290 "Xodimlarga berilgan boshqa bo'naklar".

Hisobdorlikka berilgan summaga, xodimlarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4200) pul mablag'larini hisobga oluvchi schyotlar bilan, jumladan 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari", 5020 "Chet el valyutasidagi pul mablag'lari" schyotlari bilan bog'langan holda debetlanadi. Xodimlarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4200) xarajatlari va sotib olingen qiymatliklar hisobga olinadigan schyotlar bilan, yoki amalga oshirilgan xarajatlarning turiga qarab boshqa schyotlar bilan bog'langan holda kreditlanadi.

To'liq ishlatilmagan bo'naklar (masalan, xizmat safarlari uchun korxona kassasiga qaytarilishi hamda xodimlarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4200)ning kreditida va 5010 "Milliy valyutadagi pul mablag'lari", 5020 "Chet el valyutasidagi pul mablag'lari" schyotlarining debitida aks ettirilishi lozim.

4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schyotida korxona xodimlariga mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklarning barcha turlari yuzasidan hisob-kitoblar hisobga olinadi. Bo'naklarning kelgusidagi mehnat haqi hisobiga berilishi xodimlarning sababi ko'rsatilgan arizasiga asosan amalga oshiriladi. Bundan tashqari, ushbu schyotda quyidagi buxgalteriya yozuvlari bilan aks ettiriladigan, ya'ni 6710 "Mehnat haqi bo'yicha xodim bilan hisoblashishlar" schyotining debeti

va 4210 "Mehnat haqi bo'yicha berilgan bo'naklar" schyotining kreditida mehnat haqi bo'yicha har oylik bo'naklar hisobga olinadi.

4220 "Xizmat safarlariga berilgan bo'naklar" schyotida korxona xodimlariga xizmat safarlari uchun berilgan bo'naklar hisobga olinadi. Xorijga xizmat safariga yuborilayotgan xodimga O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 2000 yil 7-fevralda 16-son bilan tasdiqlangan "Vazirliklar, idoralar, korxona va tashkilotlarning xodimlarini O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborilganda xizmat safari xarajatlari mablag'lar berish tartibi"ga (5.06.2000 y. 932-sonli ro'y.) muvofiq, chet el valyutasida bo'nak beriladi. Ushbu valyutadagi bo'nak berilgan kundagi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki kursi bo'yicha so'mga aylantiriladi va so'mda hisobga olinadi. Xizmat safarlari uchun berilgan va sarflangan chet el valyutasining hisobi alohida yuritiladi.

Xizmat safarlari uchun bo'naklar xizmat safari to'g'risidagi buyruq, chiptalar qiymati, kunlik yashash xarajatlari va boshqalar ko'rsatilgan holda bo'nak summasini hisoblash asosida beriladi.

4230 "Umumxo'jalik xarajatlari uchun berilgan bo'naklar" schyotida umumxo'jalik ehtiyojlari uchun turli xildagi kichik inventar va jihozlarni naqd pulga sotib olish uchun berilgan bo'naklar aks ettiriladi. Tovar-moddiy qiymatliklarni baholash va kirim qilish tegishli tasdiqlovchi hujjatlarga asosan amalga oshiriladi.

4290 "Xodimga berilgan boshqa bo'naklar" schyotida 4210-4230 schyotlarida aks ettirilmagan korxona xodimlariga berilgan boshqa bo'naklar hisobga olinadi.

Xodimlarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4200) bo'yicha analitik hisob har bir berilgan bo'nak bo'yicha yuritiladi.

Xodimlarga berilgan bo'naklarni hisobga oluvchi schyotlar (4200)ning bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mehnat haqi hisobidan bo'nak berildi	4210	5010
2	Xodimlarga kelgusidagi mehnat haqi	6710	4210

	hisobiga berilgan bo'naklar ushlab qolindi		
3	Hisobdor shaxslarga bankdagi schyotlardan bo'naklar berildi	4220-4290	5110-5530
4	Hisobdor shaxslarga kassadan bo'naklar berildi	4220-4290	5010, 5020
5	Hisobdor shaxslarga pul ekvivalentlari berildi	4220-4290	5610
6	Ishlatilmagan hisobdor summalarini kassaga qaytarildi	5010, 5020	4220-4290
7	Ishlatilmagan hisobdor summalarini korxonaning bankdagi schyotiga qaytarildi	5110- 5530	4220-4290
8	Hisobdor shaxslar sotib olingan turli xildagi pul ekvivalentlariga haq to'ladi	5610	4220-4290
9	Ishlatilmagan pul ekvivalentlari qaytarildi	5610	4220-4290
10	Hisobdor shaxslar kapital qo'yilmalar, tovarlar, hayvonlar, materiallar, asbob uskunalarini sotib olish, yetkazib kelish, tayyorlash bilan bog'liq xarajatlarni amalga oshirdi	0710-0890, 1010-1090, 1110-1120, 2910-2990	4220-4290
11	Hisobdor shaxslar yaroqsiz mahsulot bilan bog'liq turli xildagi xarajatlarni to'ladi	2610	4220-4290
12	Hisobdor shaxslar asosiy, yordamchi ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatuvchi xo'jaliklar, umumishlabchiqarish shuningdek, xarajatlarni amalga oshirdi	2010, 2310, 2510, 2710	4220-4290
13	Hisobdor shaxslar davr xarajatlariga tegishli bo'lgan turli xildagi xarajatlarni to'ladi	9410-9430	4220-4290

14	Hisobdor shaxslar kelgusi davr xarajatlariiga tegishli bo'lgan turli xarajatlarni to'ladi	3190	4220-4290
----	---	------	-----------

BERILGAN:

- Quyidagi xo'jalik operatsiyalari sodir bo'lgan.
1. 08.01.21 kuni 1-sonli kassa chiqim orderi bilan bilan korxona rahbari B.Komilovga safar xarajatlari uchun avans (bo'nak) berildi. Summasi 200 000 so'm.
 2. 11.01.21 kuni korxona rahbari B.Komilov tomonidan taqdim etilgan avans hisoboti to'lash uchun qabul qilindi. Summasi 350000 sum.
 3. 14.01.21 kuni 2-sonli kassa chiqim orderi bilan bilan korxona rahbari B.Komilovga Toshkent shahriga borib kelganligi tasdiqllovchi hisobotiga asosan to'landi. Summasi 150 000 so'm.

Yuqoridagi operatsiyalarga buxgalteriya provodkalarini bering

Tr	Operatsiya mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
		D-t	K-t	
1	08.01.21 kuni 1-sonli kassa chiqim orderi bilan bilan korxona rahbari B.Komilovga safar xarajatlari uchun avans (bo'nak) berildi	4220	5010	200000
2	11.01.21 kuni korxona rahbari B.Komilov tomonidan taqdim etilgan avans hisoboti to'lash uchun qabul qilindi.	9430	6970	350000
3	14.01.21 kuni 2-sonli kassa chiqim orderi bilan korxona rahbari B.Komilovga hisobotiga asosan to'landi.	6970	5010	150000
4				

Malumotnomma № 3.

№	Operatsiya mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
		D-t	K-t	
1	31.01.21 kuni korxona rahbari B.Komilovga berilgan avans to'lovi hisobdan chiqarildi.	6970	4220	200000

7-JURNAL ORDER.

Schyot № 4220.

№	Hisobdor shaxs F.I.O	Oy boshiga qoldiq		Hisobi beriladigan pul berildi.			Ishlatilmagan avans summasi ushlandi. (4220 schyot ktidan schyotlar debetiga)			Taqdim etgan hisoboti bo'yicha		Hisobi beriladigan summa ishlatildi		Oy oxiriga qoldiq	
		D-t	K-t	Sana	Aloq schyot	Summa	Sana	6970	Sana	Tadiq. Summa	9430	D-t	K-t		
1	B.Komil ov			08.01.21	5010	200000	31.01.21	200000							
	JAMI					200000		200000							

7- JURNAL ORDER.

Schyot 6970

№	Hisobdor shaxs F.I.O	Oy boshiga qoldiq		Hisobi beriladigan pul berildi.			Ishlatilmagan avans summasi ushlandi. (6970 schyot ktidan schyotlar debetiga)			Taqdim etgan hisoboti bo'yicha		Hisobi beriladigan summa ishlatildi		Oy oxiriga qoldiq	
		D-t	K-t	Sana	Aloq	Summ	Sana		Sana	Tadiq.	9420	D-t	K-t		

“Ma’muriy xarajatlar” schyoti 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

9430 “Boshqa operatsion xarajatlar” schyotida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash xarajatlari, axborot, auditorlik va maslahat xizmatlari uchun to‘lov xarajatlari, ish haqi hisoblashda hisobga olinmaydigan kompensatsiyalash va rag‘batlantirish ahamiyatiga molik to‘lovlar, bank va depozitariya xizmatlarining to‘lovlari, zararlar, jarimalar, penyalar va boshqa operatsion faoliyat jaryonida vujudga keladigan, ishlab chiqarish jarayoni, moliyaviy faoliyat va favqulodda xarajatlar moddalarining belgilari bo‘limgan boshqa xarajatlar aks ettiriladi. Hisobot davrining oxirida 9430 “Boshqa operatsion xarajatlar” schyoti 9910 “Yakuniy moliyaviy natija” schyoti bilan bog‘langan holda yopiladi.

Davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlar (9400)ning bog‘lanishi

T/r	Xo‘jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1	Mahsulotlarni jo‘natish bo‘yicha transport xarajatlari	9410	6990
2	CHetdan reklama va marketing xizmatlari	9410	6010
3	Savdo jarayonida ishlatilayotgan asosiy vositalarning eskirishi	9410	0210-0299
4	Savdo jarayonida ishlatilayotgan nomoddiy aktivlarning eskirishi	9410	0510-0590
5	Boshqaruva xodimlarining mehnat haqi xarajatlari	9420	6710
6	Boshqaruva ahamiyatiga molik asosiy vositalarning eskirishi	9420	0210-0299
7	Boshqaruva binosining ijara to‘lovi	9420	6910
8	Boshqaruva ehtiyojlari uchun materiallar sarflandi	9420	1010-1090

9	Transport korxonalarining xizmati	9420	6010
10	Xizmat safarlari va vakillik xarajatlari	9420	4220, 4230
11	Yuridik shaxsnинг yuqori tashkiloti va birlashmalarini saqlashga ajratmalar	9420	6120
12	Bank va auditorlik xizmatlari uchun to'lovlar	9430	6990
13	Asosiy vositalar va boshqa aktivlarning chiqib ketishidan zararlar	9430	9210, 9220
14	Aybdor shaxsni aniqlash imkonini bo'lmagan holdagi kamomadlar va yo'qotishlar	9430	5910
15	SHubhali qarzlar bo'yicha zaxira hisoblandi	9430	4910
16	Soliq idoralari qaroriga ko'ra jarima hisoblandi	9430	6410
17	Korxona balansida bo'lgan oliy o'quv yurtlarini saqlash uchun ajratmalar	9430	6110
18	Korxona xodimlari uchun dam olish uylari va sanatoriylarga yo'llanmalar to'landi	9430	5110-5530
19	Bekor qilingan buyurtmalar bo'yicha xarajatlar hisobdan chiqarildi	9430	2010
20	O'tgan yillar muomalalaridan ko'rilgan zararlar	9430	Olinadigan schyotlar
21	Xo'jalik shartnomalarini buzganlik uchun jarimalar	9430	6960
22	Mahalliy transportdan foydalanish uchun yo'l hujjatlari to'landi	9430	5110-5530
23	TMZning sotilishi bo'yicha bahoning kamayish natijalari hisobdan chiqarildi	9430	3190
24	Quyidagi ishlarda foydalanilgan asosiy vositalarning eskirishi va nomoddiy aktivlarning amortizatsiyasi:	9430	0210-0299, 0510-0590

	a) yangi turdag'i mahsulot ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan ishga tushirish ishlarida; b) ommaviy yoki seriyali ishlab chiqarishga mo'ljallanmagan yangi texnologik jarayonlarni o'zlashtirishga xizmat ko'rsatishda.		
25	Hisobot davri oxirida davr xarajatlarini hisobga oluvchi schyotlarning yopilishi	9910	9410-9430

BERILGAN:

1. Yanvar oyida boshqaruv bino uchun eskirish hisoblandi. Summasi 125000 so'm.
2. Yanvar oyida ombor binosi uchun eskirish hisoblandi. Summasi 50000 so'm.
3. Stol va stullarga eskirish hisoblandi. Summasi 312500 so'm.
4. Kompyuter uchun eskirish hisoblandi. Summasi 30000 so'm.
5. Televizor uchun eskirish hisoblandi. Summasi 27500 so'm.
6. Avtomobil uchun eskirish hisoblandi. Summasi 1000000 so'm.
7. Boshqaruv apparati xodimlariga ish haqi hisoblandi. Summasi 3700000 so'm.
8. Boshqaruv apparati xodimlarini ish haqiga nisbatan Yalt hisoblandi. Summasi 444000 so'm.
9. Issiqlik energiyasi uchun to'lov qabul qilindi.
 -Boshqaruv binosi uchun 1860000 so'm.
 -Ombor binosi uchun 920000 so'm.
6. Elektr energiyasi uchun to'lov qabul qilindi.
 -Boshqaruv binosi uchun 328000 so'm.
 -Ombor binosi uchun 240000 so'm.
7. Suv resurslari uchun to'lov qabul qilindi. Summasi 150 000 so'm
8. Bank xizmati uchun ushlab qolindi. Summasi 538138 so'm.
9. Mehribonlik uyiga hayriya maqsadida o'tkazildi. Summasi 2000000 so'm.

10. Korxona rahbari B.Komilov tomonidan taqdim etilgan avans hisoboti to‘lash uchun qabul qilindi. Summasi 350000 so‘m.

Soliqlar bo‘yicha quyidagi analitik schyotlar yuritiladi.

1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	4411	6411
2	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	4412	6412
3	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	4413	6413
4	Yuridik shaxslarning mol-sulk solig‘i	4414	6414
5	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	4415	6415
6	Yuridik shaxslardan olinadigan foya solig‘i	4416	6416

Yuqoridagi operatsiyalarga buxgalteriya provodkalarini bering.

№	Operatsiya mazmuni	Schyotlar aloqasi		Summa
		D-t	K-t	
1	Boshqaruв bino uchun eskirish hisoblandi	9420	0221	125000
3	Ombor binosi uchun eskirish hisoblandi	9420	0223	50000
4	Stol va stullarga eskirish hisoblandi	9420	0240	312500
5	Kompyuter uchun eskirish hisoblandi	9420	0250	30000
6	Televizor uchun eskirish hisoblandi	9420	0290	27500
7	Avtomobil uchun eskirish hisoblandi	9420	0260	1000000
8	Boshkaruv apparati xodimlariga ish haqi hisoblandi.	9420	6710	3700000
9	Boshkaruv apparati xodimlarini ish	9420	6521	444000

	haqiga nisbatan ijtimoiy soliq			
10	Issiqlik energiyasi uchun to'lov qabul qilindi			
	-Boshqaruv binosi uchun	9420	6010	1860000
	-Ombor binosi uchun	9420	6010	920000
11	Elektr energiyasi uchun to'lov qabul qilindi			
	-Boshqaruv binosi uchun	9420	6010	328000
	-Ombor binosi uchun	9420	6010	240000
12	Suv resurslari uchun to'lov qabul qilindi	9420	6010	150000
13	Bank xizmati uchun pul olindi	9430	5110	538138
14	Mehribonlik uyiga hayriya maqsadida pul o'tkazildi	9430	5110	2000000
15	Safar xarajatlari	9420	6970	350000
16	Mulk solig'i hisoblandi	9430	6414	1751250
17	Yer solig'i hisoblandi	9430	6413	7476000
18	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisoblandi	9430	6415	137020
19	Ma'muriy xarajatlar hisobdan chiqarildi	9910	9420	9537000
20	Boshqa operatsion xarajatlar hisobdan chiqarildi	9910	9430	11902408

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblash tartibi.

Soliq kodeksining 411-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliqqa tortish obyekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Ko'chmas mulk yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq solish obyekti hisoblanadi.

Ko'chmas mulk jumlasiga quyidagilar kiradi:

1) ko'chmas mulkka bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda ro'yxatdan o'tkazilishi lozim bo'lgan binolar va inshootlar;

2) qurilishi tugallanmagan obyektlar. Qurilishi tugallanmagan obyektlarga qurilish obyektiga doir loyiha-smeta hujjatlarida belgilangan normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar, agar qurilishning normativ muddati belgilanmagan bo'lsa, ushbu obyektning qurilishiga vakolatli bo'lgan organning ruxsatnomasi olingan oydan e'tiboran yigirma to'rt oy ichida qurilishi tugallanmagan obyektlar kiradi;

3) temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlar;

4) qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan turar joy ko'chmas mulk obyektlari, ko'chmas mulk obyekti foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgach.

Soliq kodeksining 412-moddasiga muvofiq yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni soliq solinadigan bazasi bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

1) Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 1 va 3-bandalarida nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha — o'rtacha yillik qoldiq qiymati.

Ko'chmas mulkning qoldiq qiymati ushbu mol-mulkning boshlang'ich (tiklanish) qiymati bilan soliq to'lovchining hisob siyosatida belgilangan usullardan foydalanilgan holda hisoblab chiqilgan amortizatsiya miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Bunda to'liq amortizatsiya qilingan bino bo'yicha uning uch yilda kamida bir marta aniqlanadigan qayta baholangan (bozor) qiymati soliq bazasidir;

2) Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 2-bandida nazarda tutilgan obyektlar bo'yicha — tugallanmagan qurilishning o'rtacha yillik qiymati;

3) Soliq kodeksi 411-moddasi ikkinchi qismining 4-bandida belgilangan obyektlar bo'yicha — mazkur obyektlarning o'rtacha yillik qiymati (realizatsiya qilinmagan qismi bo'yicha).

O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining ko'chmas mulk obyektlariga nisbatan soliq bazasi ushbu mol-mulkning o'rtacha yillik qiymatidir.

Soliq kodeksini 415-moddasiga asosan Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi soliq solinadigan bazaning 2 foizi miqdorida belgilanadi.

Agar Soliq kodeksi 415-moddasining uchinchi qismida boshqacha qo'da nazarda tutilmagan bo'lsa, qurilishi normativ muddatda tugallanmagan obyektlarga nisbatan soliq stavkasi 4 foiz miqdorida belgilanadi.

Bo'sh turgan binolar, foydalanilmayotgan ishlab chiqarish maydonlari, yashash uchun mo'ljallanmagan inshootlar, shuningdek tugallanmagan qurilish obyektlariga nisbatan qonun hujjatlarida oshirilgan soliq stavkalarini belgilash yo'li bilan ta'sir choralarini qo'llanilishi mumkin hamda Soliq kodeksining 414-moddasida ko'rsatilgan soliq imtiyozlari ularga tatbiq etilmaydi.

Soliq stavkasi quyidagilarga nisbatan 0,2 foiz miqdorida belgilanadi:

1) umumiy foydalanishdagi temir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lган inshootlar;


2) konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlari.

Biz mol-mulk solig'ini 2020 yil uchun hisoblanishi lozim edi, lekin 2021 yil 1 yanvaridan yuridik shaxslarni mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha soliq qonunchiligiga kiritilgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda 2021 yil uchun mol-mulk solig'ini hisoblaymiz.

Korxonaning 2021 yil 1 yanvar holatiga bo'lган ko'chmas mulklarining dastlabki qiymati 150 000 000 so'mni, jamg'arilgan eskirish summasi 60 000 000 so'mni tashkil etadi.

Soliq kodeksining 306-moddasiga muvofiq bino va imoratlar uchun amortizatsiyaning yillik eng yuqori normasi 3 foiz qilib belgilangan.

STIR



varaq | 0 4

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq HISOB-KITOBI

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Soliq bazasi (Hisob-kitobiga 1-ilovaning 010-satri 15-ustuni)	010	87 562 500
Soliq bazasini kamaytirish (Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 3-ilovaning 010-satri 3 ustuni)	020	
To'liq amortizatsiya qilingan binoning taxmin qilinayotgan qayta baholangan (bozor) qiymati	030	
Qurilish tashkilotlari yoki imoratlarni quruvchilar balansida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan foydalanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgan turar joy ko'chmas mulk obyektlarining(sotilmagan qismi) o'rtacha yillik qiymati Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 040-satri 15-ustuni)	040	
Soliq bazasi (010-satr - 020-satr+ 030-satr+ 040-satr)	050	87 562 500
Soliq stavkasi, foizda	060	2 %
Soliq summasi (050-satr x 060-satr)	070	1 751 250
Femir yo'llar, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish uniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 0203-satri 15-ustuni)	080	
Konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va tugallanmagan qurilish obyektlarining o'rtacha yillik qoldiq (o'rtacha yillik) qiymati (Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 030-satri 15-ustuni)	090	

Soliq stavkasi, foizda	100	
Soliq summasi ((080-satr+ 090 satr) x 100-satr)*	110	
Normativ muddatda tugallanmagan qurilish obyektnining o'rtacha yillik qiymati (Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 1-ilovaning 060-satri 15-ustuni)	120	
Soliq bazasini kamaytirish, jami (Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq hisob-kitobiga 3-ilovaning 10-satri 4-ustuni)	130	
Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish uchun soliq bazasi (normativ muddatda ishga tushirilmagan, qurilishi tugallanmagan obyektning o'rtacha yillik qiymati) (120 satr-130 satr)	140	
Soliq stavkasi, foizda	150	
Soliq summasi (140 satr x 150 satr)	160	
Byudjetga to'lanadigan yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning umumiy summasi (070-satr+110-satr+160-satr)	170	1 751 250
Soliq davri uchun joriy to'lovlar bo'yicha yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning hisoblangan summasi	180	1 700 000
Qo'shimcha to'lashga	190	51 250
	21023	

Izoh:

Ushbu hisob-kitob soliq organlariga O'zbekiston Respublikasi norezidenti bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan ham taqdim etiladi.

Hisob-kitobni ko'chmas mulk joylashgan joyga soliq organlariga topshirishda hisob-kitob faqat ushbu hududda joylashgan ko'chmas mulkning bir qismiga to'ldiriladi

(080-satrda ko'rsatilgan obyektlar bundan mustasno), shu bilan birga ko'chmas mulk ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risida guvohnoma taqdim etilganda hisobga olinmaydi.

080-satrda ko'rsatilgan obyektlar bo'yicha hisob-kitob faqat soliq hisobini olib horish joyidagi soliq organlariga beriladi.

010-satr dan 200-satr gacha avtomat shakllanadi.

* *Ushbu hisob-kitobning 110-satrda hisoblangan soliq summasi 2020 yil uchun teng ulushlarda 9 oyga hisoblanadi. (110-satr/12*9)*

Kredit tashkiloti tomonidan qarzni so'ndirish hisobiga sotish maqsadida undirilgan mol-mulk (garov mol-mulki) tovar hisoblanadi, shu munosabat bilan mol-mulk solig'i bo'yicha soliq solish obyektida hisobga olinmasligi kerak, kredit tashkiloti tomonidan o'z ehtiyojlari uchun foydalaniladigan garov mol-mulki bundan mustasno.

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

Yuridik shaxslarning mol-mulkiga
solinadigan soliq hisob-kitobiga
1-IL.OVA

**Soliq solinadigan obyektlarning o'rtacha yillik qoldiq qiymati (o'rtacha
yillik qiymati) hisob-kitobi**

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Oxirgi kun holatiga:													O'rtacha yillik (qoldiq) qiymat 3-usi + 4-usi + 5 ust + 6-usi + 7-usi + 8 ust + 9-usi + 10-usi + 11 ust + 12-usi + 13-usi + 14-usi)/12											
		1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15										
Soliq bazasi:	010																									
Boshlang'ich (tiklash) qiymati	0101	60375000	15000000	89625000		89250000											87562500									
Eskirish summasi Buxgalteriya balansining 011-satri	0102	60375000	15000000	60750000	15000000	61125000	15000000	61500000	15000000	61875000	15000000	62250000	15000000	62625000	15000000	63000000	15000000	63375000	15000000	63750000	15000000	64125000	15000000	64500000	15000000	x
																									x	

Joldiq (balans) qiymati 010-satr – 020-satr)	0103	89625000	89250000	888875000	88500000	88125000	87750000	87375000	87000000	86625000	86250000	85875000	85500000	87562500
Temir yo'llar, magistral gavurlar, aloqa va elektr tehnich liniyalari, shuningdek mazkur obyektlarning ajralmas tehnologik qismi bo'lgan ishotlar	020													
Ioshlang'ich (tiklash) qiymati	0201													
Bukirish summasi	0202													
Joldiq (balans) qiymati (0201- satr – 0202-satr)	0203													
Konservatsiya qilinishi In'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilingan ko'chmas mulk va fugallanmagan qurilish obyektlarining o'rtacha yillik joldiq (o'rtacha yillik) qiymati	030													
qurilish tashkilotlari yoki moratlarni quruvchilar salunsida keyinchalik sotish uchun ko'rsatilgan Inydanishga topshirilgandan keyin olti oy o'tgan turar joy ko'chmas mulk obyektlarining o'rtacha yillik qiymati	040													
O'zbekiston Respublikasi narezidentlari ko'chmas mulkining o'rtacha yillik qiymati	050													
Normativ muddada ishga ushirilmagan, qurilishi fugallanmagan obyektning	060													

Izoh:

Hisob-kitobni ko'chmas mulk joylashgan yerdagi soliq organiga taqdim etishda ushbu ilova faqatgina ko'chmas mulk obyekti (binolar, inshootlar va normativ muddatda qurilishi tugallanmagan obyektlar) haqiqatda joylashgan yer bo'yicha to'ldiriladi (020-satrda ko'rsatilgan obyektlar bundan mustasno), shu bilan birga ushbu ko'chmas mulk soliq ro'yxatga olingan joyda hisob-kitobni topshirishda hisobga olinmaydi. 020-satrda ko'rsatilgan obyektlar bo'yicha hisob kitob faqat soliq hisobini olib borish joyidagi soliq organlariga beriladi.

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini hisoblash tartibi.

Soliq kodeksini 426-moddasiga asosan yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ini soliq solish obyekti bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

Mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqlari asosida yuridik shaxslarda bo‘lgan yer uchastkalari yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘ining (bundan buyon ushbu bobda soliq deb yuritiladi) soliq solish obyektidir.

Quyidagi yer uchastkalari soliq solish obyekti sifatida hisoblanmaydi:

1) notijorat tashkilotlari tomonidan notijorat faoliyati doirasida foydalaniladigan yerlar;

2) aholi punktlarining, bog‘dorchilik, uzumchilik yoki polizchilik shirkatlarining umumiyligi foydalanishdagi yerlari (maydonlar, ko‘chalar, tor ko‘chalar, yo‘llar, shaxobcha yo‘llar, sug‘orish tarmoqlari, kollektorlar, sohil bo‘yi yerlari va boshqa shu kabi umumiyligi foydalanishdagi yerlar);

3) umumiyligi foydalanishdagi avtomobil yo‘llari egallagan yerlar;

4) aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlar (daraxtzorlar, istirohat bog‘lari, sayilgohlar, xiyobonlar, aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun belgilangan joylar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan yerlar);

5) davlat qo‘riqxonalarining, kompleks (landshaft) buyurtma qo‘riqxonalarining, tabiat bog‘larining, davlat tabiat yodgorliklarining, buyurtma qo‘riqxonalarning (bundan ovchilik xo‘jaliklarida tashkil etiladigan buyurtma qo‘riqxonalar mustasno), tabiiy pitomniklarning, davlat biosfera rezervatlарining, milliy bog‘larning yerlari;

6) sog‘lomlashtirish ahamiyatiga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan, profilaktika hamda davolash ishlarini tashkil etish uchun qulay tabiiy shifobaxsh omillarga ega bo‘lgan yer uchastkalari;

7) rekreatsiya ahamiyatiga molik yerlar – aholining ommaviy dam olishi va turizmini tashkil etish uchun tegishli muassasalar hamda tashkilotlarga berilgan yer uchastkalari;

8) tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar – tegishli muassasalar va tashkilotlarga doimiy foydalanishga berilgan moddiy madaniy meroz obyektlari, xotira bog‘lari egallagan yer uchastkalari;

9) gidrometeorologiya va gidrogeologiya stantsiyalari hamda postlari egallagan yerlar;

10) yuridik shaxs balansida bo‘lgan va fuqaro muhofazasi hamda safarbarlik ahamiyatiga molik alohida joylashgan obyektlar egallagan yerlar;

11) kommunal-maishiy ahamiyatga molik yerlar (dafn etish joylari, maishiy chiqindilarni yig‘ish, qaytadan ortish va saralash joylari, shuningdek chiqindilarni zararsizlantirish hamda utilizatsiya qilish joylari);

12) ko‘p kvartirali uylar egallagan yerlar, bundan yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk obyektlari egallagan yer uchastkalari mustasno;

13) suv fondi;

14) zaxiralar.

Soliq kodeksi 426-moddaning ikkinchi qismida ko‘rsatilgan yer uchastkalari xo‘jalik faoliyatini yuritish uchun foydalanilsa, ular ushbu bobda belgilangan tartibda soliq solish obyekti hisoblanadi.

Soliq kodeksini 427-moddasiga asosan yuridik shaxslardan olinadigan yer soliq‘ini soliq solinadigan bazasi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

Quyidagilar soliq bazasidir:

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha — Soliq kodeksining 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan yer uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holda, qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkasining umumiy maydoni;

qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerlar bo‘yicha — Soliq kodeksining 428-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq soliq

solinmaydigan yer uchastkalari chegirib tashlangan holda, yer uchastkalarining qonunchilikka muvofiq aniqlangan normativ qiymati.

Yer uchastkalariga bo‘lgan mulk huquqi, egalik qilish, foydalanish yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to‘lovchiga o‘tgan bo‘lsa, soliq bazasi yer uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi. Yer uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq bazasi yer uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e’tiboran kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq vujudga kelgan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq vujudga kelgan oydan e’tiboran kamaytiriladi. Soliq imtiyoziga bo‘lgan huquq bekor qilingan taqdirda, soliq bazasi ushbu huquq tugatilganidan keyingi oydan e’tiboran hisoblab chiqariladi (ko‘paytiriladi).

Soliq to‘lovchi soliq to‘lash nazarda tutilmagan faoliyat turlarini amalga oshirganda, soliq bazasi soliq solinadigan va soliq solinmaydigan yer uchastkasi bo‘yicha alohida-alohida hisob yuritish asosida aniqlanadi. Alohida-alohida hisob yuritish imkoniyati bo‘limganda, soliq bazasi soliqni to‘lash nazarda tutilgan faoliyatdan olinadigan sof tushumning umumiyligi sof tushum hajmidagi ulushidan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Soliq stavkalari soliq kodeksini 429-moddasida belgilangan.

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha bazaviy soliq stavkasiga respublika hududlari kesimida 1 hektar uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

Respublika hududlari	I hektar uchun bazaviy soliq stavkasi (mln so‘mda)
Toshkent shahri	208,2
1 zona	166,5
2 zona	124,9
3 zona	83,3
4 zona	41,6
5 zona	
Qoraqalpog‘iston	26,2
Respublikasi	
Andijon viloyati	33,0

Buxoro viloyati	26,7
Jizzax viloyati	26,7
Qashqadaryo viloyati	26,7
Navoiy viloyati	26,7
Namangan viloyati	33,0
Samarqand viloyati	33,0
Surxondaryo viloyati	23,5
Sirdaryo viloyati	20,8
Toshkent viloyati	27,6
Farg'ona viloyati	26,7
Xorazm viloyati	26,7

STIR

varaq 0 3

**Joriy soliq davrining 1 yanvaridagi holat bo'yicha
qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan
yerlar uchun to'lanadigan yer solig'i**

HISOB-KITOBI

(Aylanmadan soliq to'lovchi bo'lmaganlar uchun)

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	O'lcov birligi	Yer maydoni	Summa
Yer uchastkasining umumiy maydoni, mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010 satr 3-ustuni	010	hektar	0.28	x
Soliq solinmaydigan yer maydoni - mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010 satr 4-ustuni	020	hektar		x
Soliq bazasi mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 5-ustuni	030	hektar	0.28	x
Yil uchun byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan jami soliq summasi mazkur hisob-kitobga 1-ilovaning 010-satr 7-ustuni	040	so'm	x	7 476 000
Har oylik yer solig'i summasi (040-satr / 12), shu jumladan: yanvar oy uchun – 10 yanvargacha	x	x	x	x
	0401			623000

fevral oy uchun – 10 fevralgacha	0402			623000
mart oy uchun – 10 martgacha	0403			623000
aprel oy uchun – 10 aprelgacha	0404			623000
may oy uchun – 10 maygacha	0405			623000
iyun oy uchun – 10 iyungacha	0406			623000
iyul oy uchun – 10 iyulgacha	0407			623000
avgust oy uchun – 10 avgustgacha	0408			623000
sentyabr oy uchun – 10 sentyabrgacha	0409			623000
oktyabr oy uchun – 10 oktyabrgacha	0410			623000
noyabr oy uchun – 10 noyabrgacha	0411			623000
dekabr oy uchun – 10 dekabrgacha	0412			623000

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

STIR



varaq



Qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik
bo'lmagan yerlar uchun to'lanaqidigan
yer solig'i hisob-kitobiga
1-ILOVA

Soliq to'lovchining yer uchastkalari to'g'risida

MA'LUMOT

Yer uchastkasi joylashgan joy	Satr kodi	Yer maydoni, Gektar	Soliq solinmaydigan yer uchastkalari, gektar - (Qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallanmagan yerlar uchun to'lanaqidigan yer solig'i hisob- kitobining 2-ilovasi 010-satr)	Soliq bazasi, gektar (3-ustun - 4-ustun)	Soliq stavkasi 1 gektar uchun, so'm	Soliq summasi (5-ustun x 6-ustun)
1	2	3	4	5	6	7
Yuridik shaxsga tegisli bo'lgan yer uchastkalari, jami:	010	0,28		0,28	x	7 476 000

(020-satr+030-satr+040-satr+050-satr)						
Belgilangan stavka bo'yicha soliq solinadigan yer uchastkalari (030-satr, 040-satr va 050-satrdagilar bundan mustasno), shu jumladan:	020	0,28		0,28	x	7 476 000
Farg'ona shahar Farg'ona	0201	0,28		0,28	26 700 000	7 476 000
Ko'chasi 10 uy					
	0250					
Belgilangan muddatda qurilishi tugallanmagan yer uchastkalari, shu jumladan:	030				x	
	0301					
					
	0310					
Yer maydonlaridan hujjatlarsiz yoxud yer uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalaniqan yer uchastkalari uchun	040				x	
	0401					
					
	0410					
Soliq kodeksining 429-moddasiga asosan soliq stavkasiga 0,1 koeffitsient ko'llaniladigan yer uchastkalari uchun *	050				x	
	0501					
	0502					
	0503					
	0504					

	0505						
	0506						
	0507						
	0508						

Izoh:

- 1) 030-satr va keyingi satrlarda ko'rsatilgan yer uchastkalari uchun ikki haravar soliq stavkalari bo'yicha to'lanadi.
- 2) 040-satr va keyingi satrlarda ko'rsatilgan yer uchastkalari uchun belgilangan soliq stavkalarining to'rt baravari miqdorida belgilanadi.
- 3) 050-satr va keyingi satrlarda ko'rsatilgan yer uchastkalari uchun soliq stavkasiga 0,1 koeffitsient qo'llaniladi.
- 4) Ushbu hisob kitobning 7-ustunning 050-satrida hisoblangan soliq summasi 2020 yil uchun teng ulushlarda 9 oyga hisoblanadi. (7-ustunning 050-satr/12*9)

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash tartibi.

Soliq kodeksini 442-moddasiga muvofiq suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni solish obyekti bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

Yer usti va yer osti manbalaridan olib foydalaniladigan suv resurslari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (bundan buyon ushbu bo'limda soliq deb yuritiladi) solish obyekti.

Quyidagilar soliq solish obyekti bo'lmaydi:

1) notijorat tashkilotlar tomonidan notijorat faoliyatni amalga oshirish doirasida foydalaniladigan suv resurslari;

2) sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan davolash maqsadida foydalaniladigan yer osti mineral suvlari, bundan savdo tarmog'ida realizatsiya qilish uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

3) atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqarib olingan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

4) shaxtadan suvlarni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish paytida chiqarib olingan va qatlamdag'i bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qayta quyiladigan yer osti suvlari, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalanilgan suv hajmi mustasno;

5) gidroelektrostantsiyalar gidravlik turbinalarining harakati uchun foydalaniladigan suv resurslari;

6) issiqlik elektr stantsiyalari va issiqlik elektr markazlari tomonidan qayta quyiladigan suv resurslari;

7) qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yarlarni yuvish uchun foydalaniladigan, suvdan foydalanish va suv iste'moli sohasidagi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan sho'rlarni yuvish normalari doirasidagi suv resurslari.

Foydalanilgan suvning hajmi soliq bazasidir.

Soliq kodeksini 445-moddasida soliq stavkalari belgilangan.

Belgilangan limitlar doirasida yer usti va yer osti manbalaridan olinadigan suv resurslari uchun soliq stavkalari bir kub metr uchun mutlaq o‘lchamda quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/ r	Soliq to‘lovchilar va soliq solish obyekti	1 kub. m uchun soliq stavkasi (so‘mda)	
		yer usti suv resurslari manbalari	yer osti suv resurslari manbalari
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (bundan 2 — 6-bandlarda ko‘rsatilganlari mustasno), shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar	182	221
2.	Sanoat korxonalari	472	564
3.	Elektr stantsiyalari va kommunal xizmat ko‘rsatish korxonalari	70	90
4.	Qishloq xo‘jalik yerlarini sug‘orish va baliqlarni o‘stirish (etishtirish) uchun foydalaniłgan suv hajmi qismi, shu jumladan dehqon xo‘jaliklari	40	40
5.	Avtotransport vositalarini yuvish uchun foydalaniłdigan suv hajmi	1990	1990
6.	Alkogolsiz ichimliklar hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniłdigan suv hajmi	25 185	25185

Soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Dehqon xo‘jaliklari uchun soliq summasi soliq bazasidan va belgilangan soliq stavkalaridan kelib chiqqan holda soliq organlari tomonidan aniqlanadi.


Soliq hisoboti suvdan foydalanish yoki suvni iste’mol qilish joyidagi soliq organlariga quyidagilar tomonidan yilda bir marta taqdim etiladi:

O‘zbekiston Respublikasi yuridik shaxslari tomonidan, bundan qishloq xo‘jaligi korxonalari mustasno — yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda;

qishloq xo‘jaligi korxonalari tomonidan — joriy soliq davrining 15-dekabrigacha;

O‘zbekiston Respublikasida faoliyatini doimiy muassasalar orqali amalga oshirayotgan O‘zbekiston Respublikasining norezidentlari bo‘lgan yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagи tadbirkorlari tomonidan — soliq davridan keyingi yilning 20 yanvarigacha.

Biz shartli ravishda yanvar oyida foydalilanigan suv resurslari uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblaymiz.



Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq

HISOB-KITOBI

Yuridik shaxslar, shuningdek yakka tartibdagitadbirkorlar uchun

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Jami	Yer osti manbalari	Yer osti manbalari
Soliq solinadigan baza (soliq solinishi lozim bo'lgan jami olingan suvning umumiy hajmi), metr kub	010			620
Soliq solinadigan bazani kamaytirish - Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobiga ilovaning 010-satri	020			
Soliq solinadigan baza (010-satr - 020-satr)	030			620
I metr kub uchun belgilangan soliq stavkasi (so'm)	040			221
Byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq summasi (030-satr x 040-satr)	050			137 020
Joriy to'lovlar bo'yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqning hisoblangan summasi	060			
Qo'shimcha to'lashga	070			
Kamaytirishga	080			

Rahbar

_____ (imzo)

Bosh buxgalter

_____ (imzo)

Yakka tartibdagil
tadbirkor

_____ (imzo)

10-JURNAL-ORDER.

Kt \ Dt	9910					Jami
9420	9537000					9537000
9430	11902408					11902408
JAMI	21439408					21439408

10 a-VEDOMOST.

Kt \ Dt	9420	9430				JAMI
0221	125000					125000
0223	50000					50000
0240	312500					312500
0250	30000					30000
0290	27500					27500
0260	1000000					1000000
6710	3700000					3700000
6521	444000					444000
6010	2780000					2780000
6010	568000					568000
6010	150000					150000
6970	350000					350000
5110		538138				538138
5110		2000000				2000000
6414		1751250				1751250

6413		7476000				7476000
6415		137020				137020
JAMI	9537000	11902408				21439408

MAVZU. YURIDIK SHAXSLARDAN OLINADIGAN FOYDA SOLIG‘INI HISOBBLASH TARTIBI

Topshiriq:

1. Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzing.
2. Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblang.

Berilgan:

1. Mahsulot sotishdan olingan daromad 185 421 000 so‘m.
2. Sotilgan mahsulot tannarxi 138 403 063 so‘m.
3. Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari 700 000 so‘m.
4. Ma‘muriy xarajatlar 9 537 000 so‘m.
5. Boshqa operatsion xarajatlar 11 902 408 so‘m.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotni tuzing.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagisi 54-sonli qaroriga ilova “Mahsulot (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomda korxonaning moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibi quyidagicha berilgan:

MOLIYAVIY NATIJALARNI SHAKLLANTIRISH

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya hisobida xarajatlarni to‘g‘ri va to‘liq aks ettirishga, shuningdek, xo‘jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalarini (foyda yoki zararni) aniqlashga yo‘naltirilgandir.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaniq quyidagi ko‘rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

- mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan so‘tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o‘rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi;

YaF=SST-IT,

bunda,

YaF - yalpi foyda;

SST - sotishdan olingen sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

- asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingen yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$\text{AFF}=\text{YaF}-\text{DX}+\text{BD}-\text{BZ},$$

bunda,

AFF-asosiy faoliyatdan olingen foyda;

DX-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingen boshqa daromadlar;

BZ-asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar;

- xo‘jalik faoliyatidan olingen foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingen foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$\text{UF}=\text{AFF}+\text{MD}-\text{MX},$$

bunda,

UF - umumxo‘jalik faoliyatidan olingen foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingen daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

- soliq to‘langungacha olingen foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingen foyda plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$\text{STF}=\text{UF}+\text{FP}-\text{FZ},$$

bunda,

STF - soliq to‘langungacha olingen foyda;

FP - favqulodda vaziyatlardan olingen foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar;

- yilning sof foydasi, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o‘zida foydadani to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarini chiqarib tashlagan holda soliqlar to‘langunga qadar olingen foydani ifodalaydi:

SF=STF-DS-BS,

bunda,

SF - sof foyda;

DS - foydadan to'lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar

va

to'lovlar

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining
2002 yil 27 dekabrdagi 140-sonli buyrug'iiga
2-sonli ilova, O'zR AV tomonidan 2003 y.
24 yanvarda ro'yxatga olingan N 1209

MOLIYAVIY NATIJALAR TO'G'RISIDAGI HISOBOT - 2-sonli shakl

20 ___ 1 yanvardan 1 _____ 2021 yilgacha

_____ 20 ___ yil
uchun

Kodlar

Korxona, tashkilot

BHUT bo'yicha 2-shakl | 071000 |

2

KTUT bo'yicha | |

Tarmoq
Otrasi

XXTUT bo'yicha | |

Tashkiliy-huquqiy shakli

THSHT bo'yicha | |

Mulkchilik shakli

MSHT bo'yicha | |

Vazirlilik, idora va boshqalar

DBJBT bo'yicha | |

Soliq to'lovchining identifikasiatsion
raqami

STJR

Hudud

MHOBT

Manzil

Jo'natilgan sana

O'ichov birligi, ming so'm

Qabul qilingan sana

Taqdim qilish muddati

Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodi	O'tgan yilning shu davrida		Hisobot davrida	
		daromadlar (foyda)	xarajatlari (zararlar) rasxodlari (ubiqitid)	dromadlar (foyda)	xarajatlar (zararlar) rasxodlari (ubiqitid)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishdan so'f tushum	010		x	185421.0	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) larning tannarxi	020	x		x	138403.1
Mahsulot (tovar, ish va xizmat) larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr.010+020)	030			47017.9	
Davr xarajatlari, jami (satr.050+060+070+080), shu jumladan:	040	x		x	21439.4
Sotish xarajatlari	050	x		x	
Ma'muriy xarajatlari	060	x		x	9537.0
Boshqa operatsion xarajatlari	070	x		x	11902.4
Hisobot davrinining so'liq solinadigan foydadan kelgusida chegiriladigan xarajatlari	080	x		x	
Aсосија фаолиятнинг босхга даромадлари	090		x	700.0	x
Aсосија фаолиятнинг foydasasi (zarari) (satr. 030-040+090)	100			26278.5	
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (satr. 020+030+040+050+060), shu jumladan:	110			x	x

Dividendlar shaklidagi daromadlar	120		x		x
Foizlar shaklidagi daromadlar	130		x		x
Moliyaviy ijaradan daromadlar	140		x		x
Valyuta kursi farqidan daromadlar	150		x		x
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari	160		x		x
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlari (satr.180+190+200+210), shu jumladan:	170	x		x	
Foizlar shaklidagi xarajatlari	180	x		x	
Moliyaviy ijara bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlari	190	x		x	
Valyuta kursi farqidan zararlar	200	x		x	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlari	210	x		x	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) (satr.100+110+170)	220			26278.5	
Fayquloddagi foyda va zararlar	230				
Foyda solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr.220+/-230)	240			26278.5	
Foyda solig'i	250	x		x	4241.8
Foydadan boshqa soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar	260	x		x	
hisobot davrinining so'f foydasi (zarari) (satr.240-250-260)	270			22036.7	

**BYUDJETGA TO'LOVLAR TO'G'RISIDA
MA'LUMOT**

	Ko'rsatkichlar nomi	Satr kodи	Hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha to'lanadi	Hisobot davri uchun hisob-kitob bo'yicha hisoblangandan huqiqutda to'langan
	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i	280	4241.8	
	Jismomy shaxslardan olinadigan daromad solig'i	290	2439.5	1048.0
	shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvvaraqlariga ajratmalar	291	20.5	27.3
	Obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantrish solig'i	300		
	Ko'shilgan qiymat solig'i	310	24621.3	27965.0
	Aksiz solig'i	320		
	Er osti boyliklardan foydalanganlik uchun soliq	330		
	Suv resurslardan foydalanganlik uchun soliq	340	137,0	
	Yuridik shaxslarning mul-mulkiga olinadigan soliq	350	1751.2	280.0
	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'i	360	7476.0	471.6
	Yagona soliq to'lovi	370		
	Yagona yer solig'i	380		
	Boshqa soliqlar, 30 %, 2200 bo'yicha	400		
	Respublika yo'l jamg' armasiga majburiy to'lovlari	410		
	Byudjetdan tashqari Pensiya jamg' armasiga majburiy to'lovlari, fuqarolarning byudjetidan tashqari pensiya jamg' armasiga sug'urta badali	420		
	Ta'lim va tibbiyot muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg' armasiga majburiy to'lovlari	430		
	Mahalliy byudjetga yig'imalar	460		
	Byudjetga to'lovlarning kechiktirilganligi uchun moliyaviy jazolar	470		
	Jami byudjetga to'lovlari summasi (280 dan 470 satrgacha 291 satrdan tashqari)	480	40687.3	29791.9

Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ini hisoblang.

Soliq kodeksining 295-moddasiga asosan, yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘ining obyekti quyidagilardir:

Soliq to‘lovchi tomonidan olingen foyda foyda solig‘i bo‘yicha soliq solish obyekti hisoblanadi.

Quyidagilar foyda deb e’tirof etiladi:

1) yuridik shaxs uchun — ushbu bo‘limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

2) faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshiruvchi norezident uchun — Soliq kodeksining 49-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingen holda, Soliq kodeksini 12-bo‘limida nazarda tutilgan doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan jami daromad (shu jumladan bunday doimiy muassasaning faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi manbalardan olingen daromadlar) va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

3) norezident uchun — Soliq kodeksining 50-bobida belgilangan xususiyatlar inobatga olingen holda, O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan olingen daromadlar;

4) yakka tartibdagi tadbirdor uchun — Soliq kodeksining 51-bobida belgilangan o‘ziga xos xususiyatlar inobatga olingen holda, ushbu bo‘limda nazarda tutilgan jami daromad va xarajatlar o‘rtasidagi farq;

5) zimmasiga oddiy shirkat ishlarini yuritish yuklatilgan shaxs uchun — birgalikda ishlab chiqarilgan tovarni (ko‘rsatilgan xizmatni) realizatsiya qilishdan olingen daromad va birgalikda ishlab chiqarilib realizatsiya qilingan tovarga (xizmatga) to‘g‘ri keladigan birgalikdagi faoliyatga kiritilgan mablag‘lar summasi o‘rtasidagi farq.

Soliq kodeksining 295-moddasiga muvofiq aniqlanadigan, soliq solinishi lozim bo‘lgan foyda summasi soliq bazasi hisoblanadi.

Soliq bazasini ushbu bo‘limda belgilangan tartibda va shartlarda aniqlashda soliq to‘lovchi daromadlarining va (yoki) xarajatlarining (zararlarining) ayrim turlari maxsus qoidalar bo‘yicha inobatga olinishi yoki inobatga olinmasligi mumkin.

Soliq to‘lovchi ushbu bo‘limga muvofiq foydani va zararni hisobga olishning umumiy tartibidan farq qiladigan tartibi nazarda tutilgan operatsiyalar bo‘yicha daromadlarning (xarajatlarning) alohidalo hida hisobini yuritadi.

hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan foydadan kelib chiqib belgilanadi.

- Soliq kodeksining 337-moddasiga muvofiq yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i stavkalari

Soliq stavkalari quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

T/r	Soliq to‘lovchilar	Soliq stavkalari, foizlarda
1	Banklar	20
2	Quyidagi soliq to‘lovchilar: tsement (klinker) ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; polietilen granulalar ishlab chiqarishni amalga oshiruvchi; faoliyatining asosiy turi mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatishdan iborat bo‘lgan	20
3	O‘zi ishlab chiqargan o‘z qishloq xo‘jaligi mahsulotini realizatsiya qilishdan olingan foyda bo‘yicha Soliq kodeksining 57-moddasi nazarda tutilgan mezonlarga javob beruvchi qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari va baliq xo‘jaligi korxonalari	0
4	Ijtimoiy sohada faoliyatni amalga oshiruvchi soliq to‘lovchilar	0

5	Qo'shimcha manbalardan daromadlar oluvchi byudjet tashkilotlari	0
6	Tovarlarni (ishlarni) eksportga realizatsiya qilishdan olingen foyda	0
7	Bozor va savdo komplekslarida xizmat ko'rsatishdan olingen foyda	20
8	Tovarlarning (xizmatlarning) elektron savdosini amalga oshiruvchi elektron tijorat subyektlarining milliy reestriga kiritilgan soliq to'lovchilar	7,5
9	Yagona ishtirokchilari nogironligi bo'lgan shaxslarning jamoat birlashmalari bo'lgan va umumiy xodimlar sonida nogironligi bo'lgan shaxslar kamida 50 foizni tashkil etadigan va nogironligi bo'lgan shaxslarning mehnatiga haq to'lash jamg'armasi mehnatga haq to'lash umumiy fondining kamida 50 foizini tashkil etadigan soliq to'lovchilar	0
10	O'zbekiston Respublikasi Xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalanishdan olinadigan daromadlar	0
11	Dividendlar tarzidagi daromadlar	5
12	Qolgan soliq to'lovchilar, bundan 1 — 11-bandlarda ko'rsatilganlar mustasno	15

Foyda solig'i
UZSOR-KITOB

STIR

THEORY AND PRACTICE

varaq [0 | 1]

Huijat tyri

□ / □

Hisobot davri

Chora

Solig davri

varaq [0 | 1]

Huijat turi: 1 = hisob-kitob, 2 = qayta hisob-kitob (kase orqa) qayta hisob-kitobning raqamini

Soliq to'jochining to'lij nomi

Soliq to 'lovchining joylashgan joyi

Pochta manzili

Xodimlarning yillik o'ttacha soni

1000

shundan, nogironligi bo‘lgan
shaxslar

* ovidan boshlab foyda solig'i to'loychisi.

Hisob-kitobni taqdim etish muddati (kun/oy/yil)

ga taqdim etiladi

(soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi soliq organi)

O'Ichov birligi so'mi

Ko'rsatkichlar (o'sib boruvchi tartibda to'ldiriladi)	Satr kodi	Summa
Jami daromadlar (<i>Hisob-kitobning 1-ilovasi 010-satri – 110-satri – 121-satri</i>)	010	186121000
Shundan, notijorat tashkilotlarning soliq solinmaydigan daromadlari	011	
Chegiriladigan xarajatlar (<i>Hisob-kitobning 2-ilovasi 010-satri 3 va 4 ustunlar ayirmasi</i>) + (<i>Hisob-kitobning 4-ilovasi 060-satri</i>)	020	157842500
Soliq solinadigan foyda (<i>010-satr - 011-satr - 020-satr</i>)	030	28278500
Imtiyozlar - jami (<i>Hisob-kitobning 3-ilovasi 030-satri</i>)	040	
Nol stavka qo'llaniladigan soliq to'lovchilar foydasi (<i>Hisob-kitobning 5-ilovasi 030-satri</i>)	050	
Soliq bazasi (<i>030-satr – 040-satr - 050-satr</i>)	060	28278500
Foyda solig'ining belgilangan stavkasi, foizda	070	15
Nogironligi bo'lgan shaxslar mehnatidan foydalanayotgan yuridik shaxslar uchun tuzatilgan soliq stavkasi	071	
Foyda solig'i summasi – jami (<i>060-satr x 070-satr</i>)	080	4241779
Doimiy muassasa sifatida hisobga qo'yilguniga qadar	090	

to'lov manbaida ushlab qolning foyda solig'i summasi		
Ushbu hisobot davrida hisoblangan bo'nak to'lovlari	100	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5813-son Farmoniga asosan kamaytiriladigan foyda solig'i summasi	101	
Foyda solig'ining byudjetga to'lanishi lozim bo'lgan jami summasi (080-satr - 090-satr - 101-satr - Hisob-kitobning 8-ilovasi 090-satri + Hisob-kitobning 9-ilovasi 060-satri), shu jumladan:	110	
Alohiba bo'linmalar joylashgan joyi bo'yicha (alohiba bo'linmaga to'g'ri keladigan foyda solig'i summalarini hisob-kitobidan kelib chiqib)	111	

Izoh:

* Kalendar yil davomida foyda solig'ini to'lashga o'tgan soliq to'lovchilar tomonidan to'ldiriladi.

071-satrda o'zida ishlovchilarning umumiyligi o'rtacha yillik sonining 3 foizidan ko'prog'i nogironligi bo'lgan shaxslarni tashkil etadigan yuridik shaxslar uchun soliq stavkasi ushbu moddada belgilangan normadan ortiqcha ishga joylashtirilgan nogironlarning har bir foiziga soliq stavkasining bir foizi hisobidan kamaytiriladi.

090-satrda doimiy muassasa sifatida soliq organida hisobga qo'yishga qadar olingan daromadlarini hisobga olish, soliq agenti tomonidan soliq ushlab qolningligini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

100-satr o'sib bormaydigan tartibda joriy hisobot davrida hisoblangan bo'nak to'lovlari ko'rsatiladi.

alohiba bo'linmaga to'g'ri keladigan foyda solig'i summalarini hisob-kitobining ko'chirma nusxalari ushbu Hisob-kitobga ilova qilinadi.

Ushbu hisob-kitobda ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'liqligini va ishonchhlilagini tasdiqlayman:

Rahbar	Bosh buxgalter
STIR	STIR
F. I. O.	F. I. O.
Imzo	Imzo
Sana (kun/oy/yil)	<input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/> <input type="text"/>

STIR



varaq 0 | 3

Jami daromadlar

Ko'rsatkichlar	Satr kodi	Summa
Jami daromadlar (020-satr - 180-satrlar yig'indisi), shu jumladan	010	186121000
Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromad (021-satr - 026-satrlar yig'indisi), shu jumladan faoliyat turlari kesimida	020	
Ishlab chiqarish faoliyati	021	185421000
	022	
	023	
	024	
	025	
	026	
Kredit (qarz, mikrokredit va boshqa moliyaviy operatsiyalar) bo'yicha mukofot tarzidagi daromad	030	
Sug'urta, qayta sug'urta tashkilotining sug'urta, qayta sug'urta qilish shartnomalari bo'yicha daromadi	040	
Asosiy vositalarning va boshqa mol-mulkning chiqib ketishidan olingan daromad	050	700000
Mol-mulkni mulk ijarasiga (ijaraga) berishdan olingan daromad, bundan moliyaviy ijara (lizing) mustasno	060	
Tekin olingan mol-mulk (xizmatlar), moliyaviy yordamlar	070	
Inventarizatsiya natijasida aniqlangan ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning va boshqa mol-mulkning qiymati tarzidagi daromad	080	
Qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda majburiyatlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromad	090	

*Xarajatlar*

Xarajatlar ro'yxati	Satr kodi	Xarajatlar (zararlar) summasi	shundan, chegirish maydigan xarajatlar (zararlar)
1	2	3	4
Jami xarajatlar (020-satr - 07...-satrlar yig'indisi), shu jumladan:	010	159842500	2000000
Sotilgan tovarlar (xizmatlar) bilan bog'liq xarajatlar (tannarx)	020	138403100	
Sotish xarajatlari	030		
Ma'muriy xarajatlar	040	9537000	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar	050		
Boshqa xarajatlar (zararlar)	060	11902400	2000000
07...			
010-satriga kiritildigan asosiy xarajatlar*	X	X	X
Sarflangan xom ashyo va materiallar (0102, 0103 satrlardan tashqari)	0101	86667542	
Sarflangan yoqilg'i xarajatlari	0102		
Sarflangan tabiiy, suyultirilgan gaz xarajatlari	0103		
Sarflangan elektr energiya xarajatlari	0104	2308000	
Mehnatga haq to'lash xarajatlari va ijtimoiy soliq bo'yicha xarajatlar	0105	24640000	
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	0106	2220000	
Qayta toshit uchun sotib olingan tovarlar qiyomi	0107		
Bino va inshootlarni joriy va kapital ta'mirlash	0108		
Mashina va asbob-uskunalami joriy va kapital ta'mirlash	0109		
Marketing va reklama xarajatlari	0110		
Transport xizmati va tashish xarajatlari	0111		
Operativ ijara bo'yicha xarajatlari	0112		
Mol-mulk, yer, suv resurslardan hamda yer qa'ridan foydalanganlik soliqlar	0113	9364270	
Foizlar va ayrim chiqimlar bo'yicha xarajatlar	0114		
shu jumladan, kreditlar bo'yicha hisoblangan foizlar	01141		
Salbiy kurs farqidan zararlar	0115		
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 314-moddasasi bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'iga doir xarajatlar	0116		
Zaxira fondlarini shakllantirish xarajatlari	0117		
Soliq to'lovchining Soliq kodeksining 376-moddasida nazarda tutilgan jismoniy shaxsning	0118		

moddiy naf tarzidagi daromadlari hisoblangan xarajatlari			
Pensiyalarga ustamalar va qo'shimcha to'lovlar	0119		
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 377-moddasi birinchi qismi 10-bandining to'rtinch va beshinchini satboshibilarida ko'rsatilgan moddiy yordam	0120		
Xayriya yordami tarzida berilgan mablag'lar, bundan metsenatlik ko'magini ko'sratish uchun yo'naltirilgan mablag'lar mustasno	0121	2000000	2000000
Aybdorlari aniqlanmagan talon-taroj qilishlar va kamomadlardan yoki aybdor taraf hisobidan zarur summalarining o'mini qoplash imkonini bo'lmasan taqdirda ko'rilib zararlar	0122		
Boshqa shaxslar uchun to'langan soliqlar	0123		
Soliq tekshiruvlari natijalari bo'yicha qo'shimcha hisoblangan soliqlar va yig'imlar	0124		
Soliq to'lovchining tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish bilan bog'liq bo'lmasan tadbirlarga (sog'liqni saqlashga oid, sport va madaniy tadbirlar, dam olishni tashkil etish hamda boshqa shunga o'xshash tadbirlarga) doir xarajatlari	0125		
Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmasan xizmatlar (shaharlarni va shaharchalarni obodonlashtirish bo'yicha xizmatlar, qishloq xo'jaligiga yordamlashish va xizmatlarning boshqa turlari) ko'sratganlik uchun qilingan xarajatlar	0126		

Daromad olishiga qaratilgan faoliyat bilan bog'liq bo'lmasan xarajatlar, agar qonunchilik hujjatlariga muvofiq bunday xarajatlarni amalga oshirish majburiyati soliq to'lovchining zimmasiga yuklatilmasan bo'lsa	0127		
Byudjet tizimiga kiritilishi lozim bo'lgan (kiritilgan) penyalar, jarimalar va boshqa sanktsiyalar	0128		
Tekin berilgan mol-mulkning (xizmatlarning) qiymati va bunday berish bilan bog'liq bo'lgan (shu jumladan qo'shilgan qiymat solig'i summasi kiritilgan) xarajatlar	0129		
Notijomat tashkilotlariiga va xalqaro tashkilotlarga to'lanadigan badallar, yig'imlar va boshqa to'lovlar	0130		
Xo'jalik shartnomalari shartlarini buzganlik uchun to'langan yoki tan	0131		

olingan jarimalar, penyalar va sanktsiyalarning boshqa turlari			
O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 348-moddasida 2-qismida keltirilgan xarajatlar	0132		
O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomasi qoidalariiga ko'ra nerezidentning boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatlar (01331-satr yoki 01332-satr xarajatlarni mutanosib ravishda taqsimlash usuli	0133		
xarajatlarni chegirmalarga bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) kiritish usuli	01332		
Ushbu ilovaning 0101-0133-satrlarida ko'rsatilmagan boshqa xarajatlar (01341- satr - 0134...-satrlar yig'indisi), shu jumladan:	0134	888138	
Safar xarajatları	01341	350000	
Bank xizmati uchun to'lov	01342	538138	
		...	

Izoh:

Agar ayni bir xarajatlar xarajatlarning bir nechta moddasida nazarda tutilgan bo'lsa, mazku xarajatlar faqat bir marta ko'rsatiladi.

020-satrda tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan daromadlar bilan bog'liq xarajatlar ko'rsatiladi.

0114-satr O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 310-moddasida belgilangan talablar asosida to'ldiriladi.

0117-satr O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 315-moddasida belgilangan talablar asosida to'ldiriladi.

0133-satrdagi nerezidentning boshqaruvga oid va umumma'muriy xarajatları O'zbekiston Respublikasidagi doimiy muassasaning chegirmalariga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 348 moddasida belgilangan talablar asosida kiritiladi.

*010-satrda jami xarajatlar tarkibiga kiradigan asosiy xarajatlarni 0101-0134-satrlarda ko'rsatish lozim.

Rahbar

(imzo)

Bosh buxgalter

(imzo)

MAVZU: BYUDJET BILAN HISOB KITOBLAR HISOBI

TOPSHIRIQ:

- Berilgan xo‘jalik operatsiyalariga buxgalteriya provodkalarini bering.
- Daromad (foyda) solig‘i hisob-kitobini tuzing.
- 8-jurnal orderni to‘ldiring.

Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar (6400)

Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha korxonaning joriy majburiyatları to‘g‘risidagi axborotlarni umumlashtirish 6410 “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)” schyotida amalga oshiriladi.

6410 “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)” schyotining kreditida byudjetga to‘lanishi kerak bo‘lgan majburiyat summasi olinadigan schyotlar, davr xarajatlari, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarni to‘lash uchun foydaning ishlatalishi, mehnat haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblarni hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Yakuniy hisob-kitobda, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha byudjetga ilgari o‘tkazilgan bo‘nak to‘lovleri 6410 “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)” schyotining debet tomonida byudjetga bo‘nak to‘lovlarni hisobga oluvchi schyotlar (4400) bilan bog‘langan holda aks ettiriladi. Byudjetga haqiqatda o‘tkazilgan summalar 6410 “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)” schyotining debet tomonida pul mablag‘larini hisobga oluvchi schyotlar bilan bog‘langan holda aks ettiriladi.

6410 “Byudjetga to‘lovlar bo‘yicha qarzlar (turlari bo‘yicha)” schyoti bo‘yicha analitik hisobi har bir soliq turlari bo‘yicha alohida yuritiladi.

Byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga oluvchi schyot (6400)ning boshqa schyotlar bilan bog'lanishi

T/r	Xo'jalik muomalalarining mazmuni	Schyotlarning bog'anishi	
		Debet	Kredit
